



# ONA TILI

**Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining  
8-sinfi uchun darslik**

*Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi  
vazirligi tasdiqlagan*

**Toʻrtinchi nashri**



**Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2019**



UO'K 811.512.133  
KBK 81.2 O'zb ya721

### Mualliflar

**Muhammadjon Qodirov, Hamid Ne'matov, Muhabbat Abduraimova,  
Ra'no Sayfullayeva, Baxtiyor Mengliyev**

### Mas'ul muharrirlar

**G'ofir Hamroyev** — Respublika ta'lim markazi metodisti;  
**Dilnoza Berdiyeva** — Kitob tumanidagi 1-IDUM oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi

### Taqrizchilar

**Shodiyor To'rayev** — Qo'shrabot tumanidagi 35-umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi;  
**Dilafro'z Hoshimova** — Piskent tumanidagi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi;  
**Mehrixon Abdurasulova** — Yangiyo'l shahridagi 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi

### Shartli qisqartmalar

*A.Qod.* — Abdulla Qodiriy  
*A.Q.* — Abdulla Qahhor  
*A.O.* — Abdulla Oripov  
*As.M.* — Asqad Muxtor  
*E.V.* — Erkin Vohidov  
*H.O.* — Hamid Olimjon  
*H.N.* — Hakim Nazir  
*H.G'.* — Hamid G'ulom  
*H.* — Hamza  
*O.* — Oybek  
*Z.* — Zulfiya  
*O.M.* — Omon Muxtor  
*P.T.* — Parda Tursun

*P.Q.* — Pirmqul Qodirov  
*R.F.* — Rahmat Fayziy  
*S.A.* — Said Ahmad  
*S.Ayn.* — Sadridin Ayniy  
*T.M.* — Tohir Malik  
*U.* — Uyg'un  
*X.T.* — Xudoyberdi To'xtaboyev  
*Y.Sh.* — Yoqubjon Shukurov  
*O.Y.* — Odil Yoqubov  
*O'H.* — O'tkir Hoshimov  
*G'G'.* — G'afur G'ulom  
*Sh. R.* — Sharof Rashidov  
*Shuh.* — Shuhrat  
*Ch.Ayt.* — Chingiz Aytmatov

### Shartli belgilar:



— savol va topshiriqlar



— eslatma



— bilib oling



— uyga vazifa

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari  
hisobidan ijara uchun chop etildi**

ISBN 978-9943-05-619-0

© M. Qodirov va boshq., 2019  
© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014  
© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019

# 1-SENTABR – MUSTAQILLIK KUNI

## KIRISH

### 1-dars

#### «SO‘ZDAN SO‘ZNING FARQI BOR...»

##### 1-topshiriq. Hikmatlarni o‘qing va mag‘zini chaqing.

1. Boshimizga kulfat va zahmatlarning aksari yomon tili-mizdan, me‘yordan ortiq so‘ylaganimizdan kelur. 2. Viqor deb kibr va g‘ururdan, manmanlikdan o‘z fe‘lini saqla-moqqa aytilur. 3. Intizom deb ibodatlarimizni, ishlarimizni o‘z vaqtida tartibi ila qilmoqqa aytilur. Agar yer yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqa ham yasholmas edilar. 4. Iffat deb gunoh va buzuq ishlardan saqlanmoqqa aytilur. Bizni gunohdan saqlaguvchi, harom-xarishdan nafsimizni asrovchi narsa faqat iffatimizdir. 5. Hayo deb ishda, so‘zda odobga rioya qilmoqni aytilur. Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdurki, inson har vaqt shul ma‘naviy nurning ziyosiga muhtojdir.

*Abdulla Avloniy*



#### Bilib oling

Tilni bilish so‘z boyligiga ega bo‘lish, so‘zning ma‘no nozikliklarini anglash, ulardan to‘g‘ri, o‘rinli va odob bilan foydalanishdir.

**1-mashq.** Quyidagi izohlardan *viqor, kibr, g‘urur, gunoh, iffat, harom-xarish, hayo, odob, ma‘naviy, ma‘naviyat, ziyo* so‘zlarining ma‘nosini aniq-lab lug‘at daftaringizga ko‘chiring: 1) vijdoni poklik, nomus; 2) mag‘rurona va ulug‘vor ko‘rinish, salobat; 3) o‘zini hammadan yuqori his etish; manmanlik, kekkayish hissi; 4) insonning o‘z qadr-qimmatini bilishi, hurmat qilishi; izzat-nafs; 5) odob-axloq doirasiga sig‘maydigan ish, nojo‘ya xatti-harakat; ayb; 6) nopok, iste‘molga yaramaydigan; 7) nojo‘ya, noma‘qul xatti-harakatdan tiyilish hissi; uyat, sharm; 8) bilim, ilm, ma‘rifat; 9) axloqqa, shaxsning ichki dunyosiga oid; 10) ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi yaxshi axloq, tarbiya, xushmuomalalik.



#### Savol va topshiriqlar

1. Odobning qanday turlarini bilasiz?

2. «Odobni odobsizdan o'rgan» maqolining mazmunini qanday tushunasiz?
3. Kibr va g'ururning farqi nimada?
4. Kibrli kishi manman bo'ladimi yoki mag'rur?
5. Gerdayish kibrga kiradimi yoki g'ururga?

**2-mashq.** Kishilarda uchraydigan fazilat va nuqsonlarni ifodalovchi zid ma'noli so'zlarni ikki ustunga ajratib yozing.

**Namuna:**

Fazilatni ifodalovchi so'zlar	Nuqsonni ifodalovchi so'zlar
Savob	Gunoh
Kamtar	Manman



**Uyga vazifa**

**3-mashq.** «Odob – hurmat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lmoq» mavzusida radionutq tayyorlang.

**4-mashq.** Sinfda lug'at daftariga yozgan so'zlaringizni ma'nolari bilan yod oling.

## 2-dars

### ADABIY NUTQ ME'YORLARI. NUTQNING KO'RINISHLARI

**2-topshiriq.** Matnni o'qing.

Til – fikrni bayon etish va o'zgarlar fikrini tushunishning eng asosiy vositasi. U o'z vazifasini og'zaki va yozma shaklda bajaradi. Til ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: adabiy nutq va sheva nutqi. Faqat adabiy nutq yozma shaklga ega. Shevaning belgilab qo'yilgan qonuniy me'yorlari yo'q.

**Adabiy nutq** – xalq tilining ishlov berilgan, qat'iy qoidalashtirilgan ko'rinishi. U ko'p shevali millatning yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. Har bir so'z va qo'shimchanning adabiy nutqdagi talaffuzi va imlosi, tinish belgilarining qo'llanishi, odatda, qoida sifatida qonun bilan aniq belgilab qo'yiladi. Zarur hollarda bu qoidalarga amal qilmaslik qo'pol xato, qonunni buzish sifatida baholanadi. Og'zaki adabiy nutqning ham, yozma adabiy nutqning ham o'z qoidalari bor. Har doim ham aytilgandek yozish, yozilgandek aytish to'g'ri bo'lavermaydi. Odatda, barcha rasmiy yozishmalar, hujjatlar, o'qitish va nashr ishlari, ommaviy

axborot vositalarining xabarlari adabiy nutqda beriladi. Adabiy nutq me'yorlariga amal qilmaslik savodsizlik va madaniyatsizlik emas, balki o'z ona tiliga nisbatan hurmatsizlikdir. «Ona tili» o'quv predmeti o'quvchilarni ana shu adabiy nutq me'yorlari bilan qurollantiradi, ularning so'z boyligini oshirib, so'z qo'llash malakasini shakllantiradi va yuksaltiradi. Faqat rasmiy holatlarda adabiy nutq me'yorlariga rioya qilish talab etiladi. Esda tutish lozimki, oila davrasida, o'zaro suhbatlarda sheva nutqida so'zlash ayb emas. Madaniyatli kishi adabiy nutqqa ham, sheva nutqiga ham o'z o'rnida rioya qiladi.

Adabiy nutqning turli qo'llanish sohalari mavjud. Masalan, og'zaki so'zlashuv sohasi, badiiy adabiyot sohasi, axborot-**targ'ibot** sohasi, ish yuritish sohasi, ilmiy soha. Adabiy nutqning biror sohaga xoslangan bunday ko'rinishi **adabiy nutq uslubi** deyiladi.

**So'zlashuv uslubi** – oilada, ko'cha-ko'yda fikr almashish jarayonida qo'llanadigan nutq uslubi. So'zlashuv uslubi, ko'pincha, dialog shaklida bo'ladi. So'zlashuv uslubida adabiy nutqning og'zaki me'yorlariga qat'iy rioya qilish talab etilmaydi. Ammo turli sheva vakillari suhbatida adabiy nutqning og'zaki me'yorlariga rioya qilish madaniyatlilik hisoblanadi.

**Badiiy uslub** – badiiy adabiyotga xos nutq turi. Unda badiiylilik, ifodaviylik, ta'sirchanlik kuchli bo'ladi.

**Publitsistik uslub** – rasmiy axborot berishga, davrning ijtimoiy-siyosiy masalalarini aks ettirishga mo'ljallangan ommaviy axborot vositalari (radio-televideniye, gazeta-jurnallar) uslubidir.

**Ilmiy uslub** – ilmiy asarlar, ilmiy jurnallar, darslik va qo'llanmalar yoziladigan uslub, unda ilmiy atamalardan keng foydalaniladi, ko'chma ma'noli til ifodalari nihoyatda kam ishlatiladi.

**Rasmiy-idoraviy uslub** – davlat qonunlari, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, turli hujjatlar, ish qog'ozlari, idoralararo yozishmalar yoziladigan uslub. Rasmiy-idoraviy uslubda gaplar ixcham va aniq, mazmunli quriladi, ko'pincha, egasiz, kesimlari majhul nisbatda bo'ladi.

**3-topshiriq.** Matnlarni o‘qing. Ularning har biri adabiy nutqning qaysi uslubiga xosligini aniqlang.

1. Ma’lumotnoma Murodjon Yo‘ldoshevga uning O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida ishlayotganligi haqida berildi.

2. Kimyoviy suv molekulasida bir atom kislorod va ikki atom vodoroddan tashkil topadi. Bunday suv tabiatda uchramaydi va maxsus usul bilan hosil qilinadi.

3. G‘alaba! Sen uyimizga sovg‘a-salomlarga to‘lib emas, aftoda bir holatda: to‘voni teshik askar etigini kiyib, horib-charchab, sillang qurigan holda kirib kelding.

**5-mashq.** Yuqoridagi ilmiy matn mazmunini jadval ko‘rinishida ifodalang.



**Savol va topshiriqlar**

1. Adabiy nutqning qanday me‘yorlari bor?
2. Nega adabiy nutq uslublarga bo‘linadi?
3. Qaysi uslubda adabiy nutq me‘yorlariga qat‘iy rioya qilinmaydi?
4. Oila a‘zolari shevada suhbatlashishmoqda. Ulardan faqat bittasi, shevada erkin gaplasha olsa-da, adabiy nutqda so‘zlamog‘da. Bu to‘g‘rimi? Nega?
5. Adabiy nutqni yaratishga qanday ehtiyoj sabab bo‘ladi?



**Uyga vazifa**

**6-mashq.** Quyidagi izohlardan uslub, malaka, sheva, targ‘ibot, adabiy so‘zlarining ma‘nosini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va uni og‘zaki bayon qilishga tayyorlaning: 1) biror g‘oya, ta‘limot va shu kabilarni yoyishga, kishilar ongiga singdirishga qaratilgan ishlar; 2) til unsurlarining ma‘lum vazifa bajarishiga bog‘liq holda birlashadigan, o‘ziga xos tanlanadigan tizimi; 3) badiiy adabiyotga, badiiy ijod faoliyatiga oid; 4) bilim va kasbni, ishni yaxshi o‘zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba; mahorat; 5) umumxalq tilining ma‘lum hududga xos tarmog‘i, mahalliy til.

## 1-BO‘LIM

### O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

#### 3-dars

### MUSTAQIL SO‘Z TURKUMLARI

**7-mashq.** Berilgan so‘zlarni qanday so‘roqqa javob bo‘lishiga ko‘ra jadvalga joylashtiring.

Kuz, biz, ertalab, o‘tirmoq, o‘ntacha, buyuk, bormoq, har kim, chopmoq, chiroy, uchala, foydalanmoq, uyqu, chiroyli, bugun, hamma, mardlarcha, befoyda, so‘zlamog‘,

shirin, picha, foyda, uzun, mingta, har narsa, ohista, havo, oltov.


**4-topshiriq.** Yuqoridagi soʻzlarni qaysi turkumga oidligi asosida jadvalga joylashtiring.

Fe'l	Ot	Sifat	Son	Ravish	Olmosh

**8-mashq.** Jadvaldagi ma'lumotlarni birlashtirib, ogʻzaki bayon qiling.

**9-mashq.** Rivoyatni oʻqing va mazmunini soʻzlab bering. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning soʻrogʻini aniqlang.

## SHARAFLI BURCH

Bir kuni **mavlono** Alisher Navoiy mulozimlari bilan otda uzoq togʻ sayridan qaytib kelayotgan edi. Yoʻl qabrston oralab oʻtar ekan. Qabrstoniga yuz qadamlar qolganda mavlono otdan tushib, boshini quyi solib yoʻlida davom etibdi. Mulozimlari ham otlaridan tushib, uning ortidan ergashibdilar. Qabrstonidan ancha uzoqlashgandan keyin yana otlariga minib, yoʻlda davom etishibdi. Biroz yurishgandan soʻng **mulozimlar** shoirning qabrstoniga yaqinlashganda otdan tushishi sababini soʻrabdilar. Alisher Navoiy ancha vaqt sukut saqlab turibdi-da, keyin mulozimlaridan norozi ohangda shunday deb javob beribdi:

– Bu yerda xalqimizning **jigargoʻshalari**, tabarruk **padari buzrukvorlari** mangu uyquga ketganlar. Bular yonidan ot choptirib, changitib oʻtish insonlik shaʼniga isnoddir, nahotki shuni ham bilmasalaring? Buni bilmaslik – tiriklikdagi oʻliklik. Ota-bobolarimiz **xokini**, xotirasini eʼzozlamoq har bir kishining sharaflı burchidir.

Mulozimlar otasi oldida ayb ish qilib qoʻygan boladek to Hirotning qorasi koʻringuncha tillarini tishlab, **aqlini peshlab** boribdilar.

*Qudrat Hikmat*

**10-mashq.** Matndagi ajratilgan soʻzlarni lugʻat daftaringizga yozing. Quyidagi izohlardan ularga mosini tanlang:

1) eng yaqin kishi, tugʻishganday yaqin birodar; farzand; 2) cheksiz hurmatga loyiq ota; 3) olim va fozil kishi; 4) oʻtmishda amaldorlar xizmatida boʻlgan kishi; 5) mayda tuproq; tuproqqa aylangan inson jasadi; 6) asboblarning tigi, damini tiklamoq; aql-idrokni oʻstirmoq.

**11-mashq.** «Ota-ona hurmati — muqaddas burch» mavzusida chiroyli ogʻzaki nutq tayyorlab, ifodali bayon eting.

### Savol va topshiriqlar

1. Lugʻaviy maʼno ifodalovchi soʻzlar guruhi nima deyiladi?
2. Gap boʻlagi boʻlib keladigan soʻzlar-chi?
3. Soʻroqqa javob boʻluvchi soʻzlarni nima deb nomlaymiz?
4. Quyidagi soʻzlarni ikki guruhga ajrating: 1) maʼnosi aniq; 2) maʼnosi noaniq: bormoq, nima, bu, ortiq, oʻshanday, kitob, sariq, barcha, ular.
5. Anvar va Jahongir — oʻrtoqlarim. Ular bilan birga dam oldik. Ular soʻzining aynan shu gapdagi maʼnosi aniqmi yoki noaniq? Bu nima evaziga sodir boʻldi?
6. Nuqtalar oʻrniga mos soʻz qoʻying: ...gan ...lar ...magandan ...roq ...adi. Bu soʻzlarni tanlashingizga nima asos boʻldi?
7. Yaxshi bola yaxshi oʻqiydi gapidagi yaxshi soʻzlari qaysi belgisi asosida farqlanadi?

### Uyga vazifa

**12-mashq.** Yozgi taʼtildan olgan taassurotlaringiz haqida matn tuzing. Undagi mustaqil soʻzlarni maʼnodoshlari bilan almashtirib koʻring. Qanday farqlarni sezdingiz?



### Eslatma

Mustaqil soʻz lugʻaviy maʼno anglatadi, soʻroqqa javob boʻlib, biror gap boʻlagi vazifasida keladi.

## 4-dars

### YORDAMCHI SOʻZLAR

**13-mashq.** Quyidagi yordamchi soʻzlarni jadvaldagi oʻz xonasiga joylashtiring.

Nahotki, basharti, qadar, agar, axir, goʻyo, boshqa, hatto, sari, chunki, xuddi, keyin, balki, faqat, orqali.



Ko'makchi	Bog'lovchi	Yuklama
....	....	....

**14-mashq.** Berilgan gaplardagi nuqtalar o'rniga mos yordamchi so'zlarni qo'ying.

1. Yig'ilgan xaloyiq suron ... yangi shahar ... qo'zg'aldi. (O.) 2. Gulnoz shundan keyin uch marta xat yozdi, ... javob kelmadi. (H.G'.) 3. Bilasiz..., siz va biz bir ariqdan suv ichamiz-... . (O.) 4. Hali xabaring yo'q...? Asrora opam kasalxonadalar-...! (S.A.) 5. Nahot sen uning talanti ..., shon-shuhrati ... turmushga chiqqan bo'lsang? (O.Y.) 6. Shuni unutma..., tarbiyaning otasi – mehnat. (H.N.) 7. Otlar ... ovchidan qochgan kiyiklar ... qo'sh oyoqlab shamoldek uchib bormoqda. (Y.Sh.)

**15-mashq. 1.** Gaplardagi xaloyiq, bir ariqdan suv ichmoq, iste'dod so'z va iboralarining ma'nosini quyida berilgan izohlardan aniqlang. Lug'at daftaringizga ko'chirib, ma'nosini eslab qoling.

1) odamlar, jamoa; 2) yonma-yon, qo'shni bo'lib yashamoq; 3) yuqori darajali tug'ma qobiliyat.

**2.** Berilgan izohlar asosida qobiliyat – iste'dod so'zlarining ma'nosini aniqlang:

1) tug'ma uquv; 2) yuqori darajadagi tug'ma iste'dod.

**16-mashq.** Rasmni kuzating. Unda qaysi fasl va nimalar tasvirlangan? «O'zbekistonda kuz» mavzusida matn tuzing. Unda qo'shimchalarni yordamchi so'z (ko'makchi, bog'lovchi va yuklama)lar bilan almashtirishga harakat qiling. Gap mazmuni hamda so'zlar ma'nosida qanday o'zgarish yuz berganini aniqlang va tushuntiring.



## Savol va topshiriqlar

1. *Yordamchi soʻz turkumlari nega bunday nomlangan? Ularning mustaqil soʻzdan farqi nimada?*
2. *Koʻmakchining qanday maʼno turlari bor?*
3. *Bogʻlovchi gapdagi vazifasiga koʻra necha turga boʻlinadi? Ular qaysilar?*
4. *Yuklamaning qanday maʼno turlari bor?*
5. *Koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklamalar bir-biri oʻrnida almashinib qoʻllanishi mumkinmi? Misollar keltiring.*

## Uyga vazifa

**17-mashq.** Shu oʻquv yilida amalga oshirmoqchi boʻlgan ishlaringiz va rejalaringiz haqida «Men sakkizinchi sinf oʻquvchisiman» mavzusida insho yozing. Undagi yordamchi soʻzlarni aniqlang. Gaplarni ularsiz oʻqib yoki moslarini qoʻshimchalar bilan almashtirib koʻring. Oʻzgarishlarni izohlang.  
**Namuna:** *Men faqat aʼlo baholarga oʻqiyman – Men aʼlo baholarga oʻqiyman* (Yuklama olib oʻqilganda, maʼno kuchsizlanib qoladi).

## 5-dars

### UNDOV, TAQLID VA MODAL SOʻZLAR

**5-topshiriq.** Quyida aralash holda berilgan soʻzlarni jadvalga joylashtiring.

Ehtimol, eh, gʻir-gʻir, ofarin, taqir-tuqur, shekilli, evoh, yalt-yult, shubhasiz, hoy, duv-duv, beh-beh, albatta, qars-qurs, afsuski.

Undov	Taqlid	Modal
...	...	...

**18-mashq.** Jadval mazmunini ogʻzaki bayon qiling.

**6-topshiriq.** Berilgan gaplardagi nuqtalar oʻrniga mos undov, taqlid va modal soʻzlarni qoʻyib gaplarni koʻchiring. Bu soʻzlarni guruhlang. Gapdagi vazifasini sharhlang.

1. ..., ishlash mumkin. ..., ketmon bilan yer agʻdarishga ham toʻgʻri kelar. (A.Q.)
2. Razm solib qaragam, koʻl beti ... oʻrdakka toʻlib ketibdi. (S.A.)
3. Akramning xayolini mototsiklning ...i buzib yubordi. (O.Y.)
4. ..., bunaqasini yemaganimga necha yil boʻldi ekan... . (A.Q.)
5. Kengash yaxshi oʻtgan, ..., Gʻiyosiddinovning vaqti chogʻ edi. (P.Q.)
6. Dildor, ..., Chortherakning fayzi, jamoli edi. (S.A.)
7. Oshxonaga chiqsak, ..., hovliga bola degani sigʻmay ke-

tibdi. (X.T.) 8. Yo‘lakning oxirida ... yongan shu‘la ko‘rinardi. (O.Y.)

**Tavsiya etiladigan so‘zlar:** pat-pat, bay-bay-bay, chamasi, nazarimizda, voy-bo‘y, milt-milt, demak, ehtimol, g‘uj-g‘uj.



### Savol va topshiriqlar

1. Undov, taqlid va modallar nega alohida so‘z turkumlari deyiladi?
2. Tilda undovlar bo‘lmasa, so‘zlovchi nimada qiynalar edi?
3. Alohida so‘zlardan qaysi biri, odatda, juft va takror holda qo‘llanadi?
4. Alohida so‘zlardan qaysisi gohida takror holda qo‘llanib, lekin juft holda ishlatilmaydi?
5. So‘zlovchining o‘z fikriga munosabati, ko‘pincha, qaysi turkumdagi so‘z bilan ifodalanadi?
6. Undov, taqlid va modal so‘zlarning ot vazifasida qo‘llanishiga misol keltiring. Bunday qo‘llanish nima deb nomlanadi?



### Uyga vazifa

**7-topshiriq.** Kundalik matbuot nashrlaridan undov, taqlid va modal so‘zlar qatnashgan matn yoki parchalarni ko‘chirib yozing. Gaplarni bu so‘zlarsiz o‘qib ko‘ring. Farqlarni tushuntiring.

**8-topshiriq.** Berilgan izohlardan uchqun, shu‘la, nur, ziyo, yog‘du so‘zlarining ma‘nolarini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va eslab qoling. So‘zlarni «kitobiylik belgisining oshib borishi» asosida tartiblang:

- 1) tumanday taraluvchi yorug‘lik; 2) bir yo‘nalishda yo‘nalgan yorug‘lik;
- 3) lipillab, ko‘rinib-ko‘rinmay turgan olov yoki yorug‘lik; 4) bilim, ma‘rifat;
- 5) olov zarrasi.

## 6-dars

### OLMOSHNING MA‘NO TURLARI

**19-mashq.** Quyida olmosh ma‘no turlarining har biriga aralash holda 5 tadan misol berilgan. Ularni ma‘no turlari bo‘yicha jadvalga joylashing, ma‘no turi nomlarini yozib, jadval mazmunini og‘zaki bayon qiling.

O‘sha, hamma, qaysi, o‘zim, allakim, hech qaysi, men, barcha, o‘zi, hech qancha, sen, ana, qachon, har kim, o‘zlari, sizlar, hech qayer, biz, qayer, mana shu, qaysidir, hech qachon, qanaqa, ular, bari, o‘zing, nega, ana o‘sha, nimadir, o‘zingiz, allaqancha, hech bir, allaqanday, har qancha, bu.

Ma‘no turi							
Olmoshlar							

**20-mashq.** Misollarni ko'chiring. Nuqtalar o'rniga tegishli olmoshlarni qo'yib, qaysi ma'no turiga mansubligini qavs ichida yozing.

1. Agar indamasak, ...larning **lapar** aytishlaring kechgacha tugamaydiganga o'xshaydi. (S.A.) 2. ... uyim deb so'zlama, uy ortida kishi bor. 3. **Baxil** topsa, bosib yer; **saxiy** topsa, ... yer. (Maqollar) 4. ... kishidan bir gap chiqadi. (A.Q.) 5. ... gapingiz haq, o'rtoq Ahmedov. (A.Q.) 6. ... xayol, ... tasavvur bilan yigit Darayi Nihonga qarab jo'nadi. (S.A.) 7. ...ga ...ning **insofim** yo'l bermaydi. (S.A.) 8. Shirinso'z, mehribon xola yana ...ning yelkasiga qoqib **omonlashdi**. (Mirmuhsin) 9. ... ona bo'lishdan behad shod. (I.R.) 10. ...ning qoni to'kilgan joydan shifobaxsh buloq chiqqan. (I.R.) 11. ... gapni hazilga **yo'yish** uchun Sidiqjon ham kuldi. (A.Q.) 12. ...dan qarzimni uzib, keyin bolamga qarz bermoqchiman. (A.Q.) 13. ... ..ni ... sirli odam deb o'ylayapsiz. (Mirmuhsin)

**Tavsiya etiladigan so'zlar:** sen, o'z, barcha, u, hamma, unday, bunday, shu, bu, men, siz, qandaydir.

**21-mashq.** Quyida berilgan izohlardan *lapar, baxil, saxiy, insof, omonlashmoq, yo'ymoq* so'zlarining ma'nolarini topib, lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling: 1) birovga hech narsani ravo ko'rmaydigan; sarf-xarajatni yoqtirmaydigan; 2) to'y va yig'in, xalq sayillarida yigitlar bilan qizlar orasida tarafma-taraf bo'lib birgalikda ijro etiladigan qo'shiq va raqs; 3) birovdan narsasi, iliq so'zi va mehrini ayamaydigan; 4) adolat va vijdon bilan ish tutish; 5) salomlashmoq; vidolashmoq; 6) biror narsaning sababini o'zicha taxmin qilmoq.



**Uyga vazifa**

**22-mashq.** «Kim birovga choh qazisa, unga o'zi yiqiladi» maqoli asosida matn yarating va uni sinfdoshlaringiz huzurida telenutq sifatida og'zaki ifodali bayon etishga tayyorlaning.

## 7-dars

### RAVISHNING MA'NO TURLARI

**23-mashq.** Quyida ravish ma'no turlarining har biriga aralash holda 5 tadan misol berilgan. Ularni ma'no turi bo'yicha jadvalga joylashtiring:

zo'rg'a, kecha, uzoqda, sal, mardlarcha, boya, unda-bunda, g'oyat, olg'a, endi, tez, ozgina, yuqoridan, ertalab, ko'p, to'satdan, avval, to'g'riga, juda, do'stona.

**24-mashq.** Nuqtalar o‘rniga tegishli ravishlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Ularning qaysi ma’no turiga oidligi va qanday vazifada kelganini ayting.

1. Xadicha xola ... o‘ylanib turdi. (A.Q.) 2. Men darvozaning oldida ... turib qoldim. (O.Y.) 3. Sidiqjon ... o‘tirdi-yu, endi qaytib ketmoqchi bo‘lib turganida O‘rmonjon kelib qoldi. (A.Q.) 4. ... eshik «g‘iyq» etib ochildi-yu, Hamro bosh suqib mo‘raladi. (G‘.Rasulov) 5. Poyezd meni sershovqin stansiyaga tashlab, ... qichqirganicha, oldinga intildi. (S.A.) 6. ... Sidiqjonni ko‘rgani bolaligidagi o‘rtoqlaridan biri keldi. (A.Q.) 7. U O‘rmonjonga, Bo‘taboyga, Kanizakka ... salom aytdi. (A.Q.)

**Tavsiya etiladigan so‘zlar:** *jindak, ozgina, burun, xiyla, ancha, picha, yana, kechqurun, ko‘pdan ko‘p, ko‘p.*

**9-topshiriq.** Matnni o‘qib, unda qanday g‘oya ilgari surilayotganini ayting. Hikoyadagi tasvirdan qanday hikmat hosil bo‘ladi?

## FIL HIKOYATI

Filni bir xonaga qamab, umrida ko‘rmagan kishilarga ko‘rsatishdi. Xona qop-qorong‘i bo‘lib, nafas olishidan u yerda bir maxluq borligi zo‘rg‘a bilinar edi. Kishilar avval filni paypaslab ko‘rishdi va so‘ngra o‘z tasavvurlarini bayon qilishdi.

Xartumini ushlagani filni yo‘g‘on arqonga, qulog‘ini ushlagani yelpig‘ichga, oyoqlarini ushlagani ustunga, qornini ushlagani qoyaga o‘xshatdi.

Shunday qilib, har bir kishi filni o‘zi paypaslagan narasidek tasavvur qildi.

*Sharq hikoyasi*

**10-topshiriq.** Matndagi ravishlarni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birgalikda ko‘chirib yozing.

**11-topshiriq.** Berilgan so‘zlardan ravishlarni ajratib yozing: *ado bo‘lmoq, mo‘l-ko‘l, xalal bermoq, apil-tapil, tartibga keltirmoq, biroz, birmuncha, ora-chora, oh urmoq, bir tekis, tush ko‘rmog‘, eskicha, sira-sira, bir zamon, bir talay, bir nav, mingoyoq, qo‘ziqorin, sochpopuk, piyozdog‘, yigitchasiga, tikkasiga, savacho‘p, kamtarona, gavdali, yeyishli, yeyarmon, izchil, xudo-bezor, baravariga.*



### Uyga vazifa

**12-topshiriq.** *Sal, kecha, hamisha, ilgari* ravishlari qatnashgan gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizda ravishlar qaysi gap bo'lagi vazifasida kelayotganini belgilang.

## 8—9-darslar. NAZORAT ISHI VA TAHLILI

### 2-BO'LIM

## IJODIY MATN. INSHO VA UNING TURLARI

### 10-dars

### MA'LUMOTNOMA MATNI VA IJODIY-TAVSIFIY MATN

**25-mashq.** Ikkala matnni qiyoslab, shakl va mazmundagi o'xshashlik hamda farqlarni ayting.

#### Birinchi matn

#### ALISHER NAVOIY

*Besh asrkim nazmiy saroyni  
Titratadi zanjirband bir sher.  
Temur tig'i yetmagan joyni  
Qalam bilan oldi Alisher.*

A. Oripov

Ha. Bu «zanjirband sher»ning necha asrlardan beri jahonni maftun etib kelayotgan g'azallari porloq quyosh kabidir.

Uning betakror nazmi oldida, hatto Sa'diy va Hofizning she'riyat osmonidagi yulduzlari ham xira tortdi. «Nizomiy panjasiga panja urib» bunyod qilgan «Xamsa»si «Panj ganj» shuhratiga soya soldi. Forsigo'ylar uning turkiy tilda yozganligidan shukronalar aytdilar.

#### Ikkinchi matn

#### ALISHER NAVOIY

Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida tug'ildi. Shoirning she'rlari XV asrning 60-yillaridayoq mashhur bo'la boshladi. Shoirning ilk devonlari bundan darak beradi.

Yillar o'tishi bilan Alisher Navoiy asarlarining shuhrati ortib bordi va butun jahonga tarqaldi. Yevropa va Osiyodagi barcha davlatlarda Alisher Navoiy kitoblarining yoyilishi, ularning o'nlab tillarga tarjima qilinganligi buning yorqin dalilidir.

Alisher Navoiy asarlari o'zining badiiyligi, mazmundorligi va go'zalligi bilan Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy asarlaridan ustun turar edi. Shuning uchun uning ustozlari, fors-tojik adabiyotining ulkan namoyandasi Abdurahmon Jomiy Alisher Navoiy ijodi xususida shunday deb yozgan: «Shukrlar bo'lsinki, u she'rlarini turkiy (ya'ni o'zbek) tilida ijod qilgan. Agar u forsiy tilda ijod qilganda, bizning asarlarimizni hech kim o'qimas edi».

### Savol va topshiriqlar

1. Matnlardagi umumiy jihatlarni aniqlang.
2. Matnlardagi farqli jihatlarni bayon qiling.
3. Qaysi matnda fikrlar aniq dalil va isbotlar bilan berilgan va undan ko'zlangan maqsad nima?
4. Qaysi matnda fikrlar obrazli va ta'sirchan berilgan va undan ko'zlangan maqsad nima?
5. Matnning qaysi biri hissiyotga va qaysisi aqlga yo'naltirilgan?

### Bilib oling

**Ma'lumotnoma matnida** voqea-hodisa yoki holat haqida oddiy axborot beriladi. Bunday matn obrazlilik va bo'yoqdorlikdan, badiiy-tasviriy vositalardan xoli bo'ladi. Ma'lumotnoma matnida so'zlovchi axborotni o'z nuqtayi nazarisiz, xolis bayon qiladi.

Rasmiy matnlar ma'lumotnoma matniga misol bo'ladi.

**Ijodiy-tavsifiy matn**da dalillar so'zlovchi yoki yozuvchining shaxsiy munosabati, nuqtayi nazari asosida ifodalanadi; badiiy-tasviriy vositalar qo'llanishi mumkin.

Ilmiy, publitsistik va badiiy matnlar, shuningdek, insho ham ijodiy-tavsifiy matnning ko'rinishlari.

**26-mashq.** O'zingiz o'qiyotgan sinfxona haqida avval ma'lumotnoma matni, so'ng ijodiy-tavsifiy matn tuzing.

### Savol va topshiriqlar

1. Ma'lumotnoma matni va ijodiy tavsifiy matnlarning o'xshash jihatlari nimada?
2. Ma'lumotnoma matni va ijodiy tavsifiy matnlarning farqli jihatlari nimada?
3. Insho matnining asosiy xususiyatlarini bayon qiling.
4. Darsliklardagi yozuvchilarning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar qaysi matn turiga mansub?

### Uyga vazifa

**27-mashq.** Oilangiz a'zolari haqida avval ma'lumotnoma matni, so'ng ijodiy-tavsifiy matn tuzing. Matnni og'zaki bayon qilishga tayyorlaning.

**28-mashq.** Berilgan izohlardan *nazm, tig', shukrona, mutafakkir, devon* so'zlarining ma'nolarini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chirib va eslab qoling: 1) buyuk donishmand; 2) Yaratgan bergan ne'mat uchun savob ish qilmoq; 3) nayza, yoy kabi jang quroli; 4) nazmiy asarlar to'plami; 5) she'riy shakldagi ijod.

## 11-dars

### INSHO – IJODIY ISH

**29-mashq.** Matnni o'qing. Mazmunini og'zaki ifodali bayon qiling.

### INSHO – IJOD MAHSULI

**Insho** arabcha so'z bo'lib, «yaratish», «bino qilish», «qurish» ma'nosini beradi. Hozirgi tilimizda bu so'zning ma'nosi ancha torayib, asosan, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan «ijodiy yozma ish» ma'nosida qo'llanadi.

Insho – muallifning ma'lum bir mavzu asosida o'z fikrlarini yozma shaklda bayon qiluvchi kichik asar. Inshoda muallifning so'z qo'llash mahorati, fikrlash ko'nikmasi, bilim va dunyoqarashi, savodi namoyon bo'ladi.

Insho – o'quvchi yaratadigan matn turi. Unda ma'lum bir mavzu mustaqil ravishda ochib beriladi. Inshoda o'quvchining o'z fikrlarini yozma shaklda to'g'ri, ravon, savodli bayon qilish malakasi aks etadi.

Inshoda mavzu bo'yicha bilimlar yuzaga chiqadi. Yozuvchi va shoirlar, olim va muxbirlar o'zi yozadigan



asar, ilmiy ish, maqolaga katta mas'uliyat bilan qaragani kabi o'quvchi ham insho yozishdan oldin unga har tomonlama tayyorlanishi lozim.

Katta-katta olimlar ijodiy ishlarini o'quvchilik paytida insholardan boshlashgan.

Insho yozish uchun, avvalo, bilim egallash zarur. Takror va takror yozish natijasida esa insho yozish ko'nikma va malakasi shakllanadi. Yaxshi inshoning zamirida boy bilim va tinimsiz mashq yotadi.

Har qanday ish tartib bilan bajarilganligi kabi insho ham reja asosida yozilishi kerak. Puxta reja inshoning sifatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Inshoda o'quvchining o'z fikri va boshqa manbalardan olgan ma'lumotlari ajralib turishi kerak. Boshqalarning fikrini o'zinikiday qilib berish ko'chirmakashlik sifatida salbiy baholanadi.

Inshoning har bir turi o'ziga xos shakl va mazmun xususiyatiga ega.

### Savol va topshiriqlar

1. Insho nima? U boshqa ijodiy ishlardan qaysi jihati bilan farqlanadi?
2. Inshoda badiiy asar va boshqa manbalardan aynan olingan o'rinlar qanday berilishi kerak?
3. Inshoda nega ikki o'quvchining bir mavzuda yozgan fikri aynan bir xil bo'lmaydi?
4. Ikki o'quvchining ayni bir mavzuda yozgan inshosida qanday umumiyliklar, o'xshashliklar bo'lishi mumkin?
5. Inshoning oddiy yozma axborot bilan qanday o'xshash va farqli tomonlari bor?

### Bilib oling

Insho — o'quvchi ijodiy mehnatining oliy ko'rinishi, uning aqliy mehnati mahsuli. Insho puxta reja bo'yicha yozilishi, mantiqan izchil, imloviy, uslubiy va punktuatsion jihatdan to'g'ri, dalillarga tayangan bo'lishi zarur. Insho yozish uchun mavzu chuqur o'rganilishi, dalillash uchun ko'chirmalar yig'ilishi, ularning manbalari aniq bo'lishi kerak. So'ngra reja tuzilib, reja asosida yozishni boshlash lozim. Insholar hajmi o'quvchining yoshiga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, 8-sinf o'quvchisi 5–6 sahifadan iborat insho yozsa bo'ladi.

Bilimlarni boyitish yoki namoyish qilish maqsadiga ko'ra insho ikki xil bo'ladi:

- a) ta'limiy (joriy) insho;
- b) sinov inshosi.

Ta'limiy (joriy) insho sinfda yoki uyda yozilib, izlanishga, bilimlarni boyitish va qo'llashga, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni to'g'ri bayon qilishga qaratiladi. Ta'limiy inshoda o'quvchi tegishli mavzu bo'yicha bilimlarini mustahkamlaydi, boyitadi va namoyish qiladi.

Sinov insholari o'rganilgan mavzularga doir bilimlarni, insho yozish ko'nikma va malakalarni sinovdan o'tkazish uchun chorak yoki o'quv yili oxirida olinadi.

Ta'limiy (joriy) insho izlanish, bilim, tafakkur va bayon qilishga asoslansa, sinov inshosi bilim, tafakkur va bayon qilishni sinaydi. Sinov inshosida manbalardan izlanishga ruxsat berilmaydi. U sinfda, o'qituvchi nazorati ostida yoziladi.

**30-mashq.** Rassom N. Qo'ziyoyevning «Navoiy va Husayn Boyqaro» deb nomlangan asarini kuzating. Undan foydalanib, shu sarlavha ostida insho yozishga tayyorgarlik ko'ring va insho uchun reja tuzing.

### Savol va topshiriqlar

1. Inshoga nega «o'quvchi ijodiy mehnatining oliy ko'rinishi» deb baho beriladi?
2. Insho yozishdan oldin qanday tayyorgarlik ishlari qilinishi kerak?
3. Ta'limiy maqsadiga ko'ra insholar necha xil bo'ladi?

**31-mashq.** Berilgan izohlardan *insho, bilim, ko'nikma, malaka, tafakkur, izlanish, mas'uliyat* so'zlarning ma'nosini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring: 1) borliq haqidagi yoki ilmiy, madaniy, ma'rifiy, ma'naviy, harbiy va boshqa sohalarga oid nazariy, amaliy ma'lumotlar, tushunchalar majmuyi; 2) tashkil etish; yaratish, qurish, barpo qilish; 3) biror ishda orttirilgan malakadan kamroq tajriba; 4) o'ylash, fikr yuritish; 5) kasbni, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan ko'nikmadan balandroq mahorat; 6) yangilik topish, yaratish harakatida bo'lish, shunday maqsadli harakat, faoliyat; 7) biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo'lgan javobgarlik.



### Uyga vazifa

**32-mashq.** «Onajonim – mehribonim» mavzusida insho yozish uchun uyda tayyorgarlik ko'ring. Ishni quyidagi tartibda amalga oshiring:

- 1) onalar haqida donolar fikrlarini o'rganing; rivoyat, hikoyat va maqollar, onalarga bag'ishlangan zamonaviy she'riy va nasriy asarlar bilan chuqur tanishing;
- 2) o'zlashtirgan fikrlaringizni tasniflab, tartibga keltirib oling;
- 3) fikrlar tasnifi va tartibi asosida reja tuzing;
- 4) rejangizda katta masalalardan kichik masalalar (umumiydan xususiy)ga o'tib borishga harakat qiling.

## 12-dars

### INSHONING MAVZU VA MAZMUNIGA KO'RA TURLARI

Insho mazmun-mohiyatiga ko'ra 3 turli bo'ladi:

- 1) adabiy mavzudagi insho;
- 2) erkin mavzudagi insho;
- 3) ilmiy insho.

**Adabiy insho** adabiyot darslarida o'tilgan ma'lumotlarga o'quvchining ijodiy munosabati (nuqtayi nazari) qo'shib ifodalanadigan insholarni o'z ichiga oladi.

**Erkin mavzudagi insho** adabiyot fani dasturida mavjud bo'lmagan mavzuda yoziladi. Unda o'quvchining ma'lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy dunyo-qarashi, fikr va mulohazalari aks etadi.

**Ilmiy inshoda** biror fanga tegishli mavzu ilmiy dalillar asosida yoritiladi. Unda ilmiy va ilmiy-ommabop manbalardan olingan materiallardan keng foydalaniladi. Ilmiy inshoda tasviriy vositalar deyarli qo'llanmaydi.



### Savol va topshiriqlar

1. *Insho nima? Hozirgi tilimizda insho so'zi qanday ma'noda qo'llanadi?*
2. *Inshoda uni yozgan muallifning qanday xislatlari ko'rinadi?*
3. *Insho mavzu mazmuniga ko'ra necha turli bo'ladi?*
4. *Qanday inshoni adabiy mavzudagi insho deymiz?*
5. *Erkin mavzudagi insho qanday o'ziga xosliklarga ega?*

**33-mashq.** Adabiyot darsida yaqinda o'tilgan biror badiiy asar qahramoni haqida insho mavzusini tuzing.

**34-mashq.** «Inshoning turlari va ularning xususiyatlari» mavzusida og'zaki ma'ruza uchun matn tayyorlang va uni ifodali bayon qiling.



### Uyga vazifa

**13-topshiriq.** Oldingi mashqlarda tanlangan insho mavzulariga reja tuzib, ma'lumot to'plab keling.

## 13-dars

### INSHO REJASI

**35-mashq.** Matnni o'qing va mazmunini og'zaki bayon qiling.

Tartib – taraqqiyot va rivojlanish asosi. Kunning tunga, tunning kunga aylanishi, oy va fasllarning, yil va asrlarning almashinuvi tartibning yorqin namunasidir.

Tartib bor joyda muvaffaqiyat bo'ladi. Tartibli bajarilgan har qanday ish yaxshi natijalarni beradi. Insonning tartibli faoliyati – rejali ish yuritish. Tartibli inson har bir ishini – mehnatdan tortib sarf-xarajatgacha reja asosida amalga oshiradi.

Shuning uchun xalqimiz reja va rejalashtirishning hayotimizdagi ahamiyatini «Rejasiz ish – qolipsiz g'isht» degan maqol bilan bejiz ifodalagan. Qolipsiz yasalgan g'isht sifatsiz – qing'ir-qiyyshiq bo'ladi.

Insho yozish ham faoliyat, aniqrogʻi, nutqiy faoliyat. U ham reja asosida amalga oshiriladi. Inshoni yozishga tayyorgarlik jarayoni ham, inshoning oʻzi ham rejasiz amalga oshirilsa, u sifatsiz chiqishi muqarrar.

Demak, insho yozish uchun tayyorgarlik jarayoni qatʼiy reja asosida amalga oshiriladi. Inshoning oʻzi ham puxta reja asosida yozilishi lozim.

Har qanday ijodiy ish kabi insho rejasi ham uch qismdan iborat boʻladi:

1. Kirish.
2. Asosiy qism.
3. Xulosa.

Kirish inshoning boshlangʻich qismi, unda oʻquvchi mavzu haqidagi umumiy fikrlarini bayon qiladi. Asosiy qismda maqsadga oʻtiladi. Bu qism yana ichki kichik qismlardan tashkil topadi. Ularning miqdori birdan ortiq boʻladi.

Xulosa yakunlovchi qism boʻlib, unda oʻquvchi asosiy qismdan kelib chiqadigan oʻz fikri – xulosasini loʻnda bayon etadi.

**Namuna:**

### **Alisher Navoiy – gʻazal mulkinging sultoni**

I. Kirish. Alisher Navoiy – buyuk mutafakkir va atoqli shoir.

II. Asosiy qism:

1. Alisher Navoiyning oshiqona gʻazallari.
2. Alisher Navoiyning orifona gʻazallari.
3. Alisher Navoiyning rindona gʻazallari.

III. Xulosa. Alisher Navoiy gʻazallari – oʻzbek sheʼriyatining mezon.

**36-mashq.** Quyidagi gaplarni tartibga keltirib, insho mavzusi va rejasini hosil qiling. Rejada uning qismlari toʻliq aks etsin.

1. Uvaysiy chistonlari – aql charxi.
2. Uvaysiy chistonlarida oʻxshatish usulining qoʻllanishi.
3. Uvaysiy chistonlarining mavzuyiy koʻlami.
4. Uvaysiyning hayoti va ijodi.
5. Uvaysiy – chistonnavis.
6. Uvaysiy yashagan davrdagi ijodiy muhit.
7. Uvaysiy chistonlarining bola tafakkuriga taʼsiri.

### Savol va topshiriqlar

1. Tartib va reja o‘zaro qanday bog‘liq?
2. Inson faoliyatida tartibsizlik qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi?
3. Insho rejasi bilan insho yozish rejasi farqini tushuntiring.
4. Insho rejasida kirish va xulosa qanday farqlanadi?

**37-mashq.** Berilgan izohlardan *muqarrar, chiston, mantiq, fasl* so‘zlarining ma’nosini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va eslab qoling:

1) gap, fikr, harakat kabilarning aqlga monandligi, asosiligi; 2) vujudga kelishi aniq, shubhasiz, turgan gap; 3) narsa yoki hodisaning muhim belgilarini tavsiflab, nimaligini topishni o‘quvchiga havola etadigan she’riy shakl; 4) vaqt, muddat, davr; yilning to‘rtidan bir qismi; bo‘lak, qism.

### Uyga vazifa

**38-mashq.** «Yangi asr avlodlari», «Abdulla Oripov she’rlari shaydosiman» mavzulariga insho rejasi tuzing.

## 14-dars

### SODDA VA MURAKKAB REJALAR

**39-mashq.** Matni o‘qing va mazmunini og‘zaki bayon qiling.

Butun bo‘lak (qism)lardan tashkil topadi. Shuningdek, ushbu bo‘laklar yana qismlarga bo‘linishi mumkin. Biz inshoda ham yoritilayotgan mavzuni oddiy «bo‘laklashimiz» – bir necha qismlarga ajratishimiz, ba‘zan esa ularni batafsilroq yoritish uchun bu bo‘laklarning ham ichki qismlarini aniqlab olishimiz zarur bo‘ladi. Natijada, murakkab reja tuzishga to‘g‘ri keladi. Albatta, oddiy rejada yozilgan inshoda ham kirish, asosiy qism, xulosa bilinib turadi. Lekin murakkab rejada u yaqqol ko‘rinadi.

Murakkab rejani tuzish oddiy rejaga nisbatan qiyinroq, lekin bu qiyinlik insho yozishni yengillashtiradi.

### Bilib oling

Oddiy reja insho mavzusini bir bosqichda qismlarga ajratish bo‘lsa, murakkab reja ajratilgan qismlarni yana ichki qismlarga bo‘lish demakdir.

**40-mashq.** «Navoiy – mohir ruboiynavis» mavzusi uchun oddiy va murakkab reja tuzing.

**41-mashq.** «Xalqim – faxrim» mavzusidagi insho uchun tuzilgan ushbu oddiy rejani tartibga keltirib, murakkab rejaga aylantiring.

1. «Xalqim, ajdodning izi – moziyning qat-qatida».
2. Tenglar ichra teng.
3. Qo‘llari qadoq ona xalqimning.
4. Hurlik shamollari esdilar, mana.
5. «Qayga borsam, boshda do‘ppim, g‘oz yurarman gerdayib».
6. Yoshlar – xalqim qanoti va suyanchi.
7. Mangu yashaydi ozod o‘zbekim!

### Savol va topshiriqlar

1. Sodda va murakkab rejaning farqi nimada?
2. Sodda reja asosida insho yozishning qiyinligi va murakkab reja asosida insho yozishning qulayligi nimada?
3. Sodda rejada yozilgan inshoda kirish, asosiy qism va xulosa qanday anglashiladi?
4. Nega, ko‘pincha, erkin mavzudagi inshoga sodda, boshqa turdagi insholarga murakkab reja tuzishga harakat qilinadi?

**42-mashq.** Berilgan rejadagi qaysi qism ortiqcha? Sababini bayon qiling.

## HAMID OLIMJON – BAXT VA SHODLIK KUYCHISI

I. Kirish. Hamid Olimjon – o‘zbek adabiyotining atoqli namoyandasi.

II. Asosiy qism:

1. Shoir she‘riyatida baxtli muhabbat vasfi.
2. Hamid Olimjon she‘riyatida Vatan madhi.
3. Shoir ijodida shaxs fojiasi tasviri.

III. Xulosa. Hamid Olimjon she‘riyati mangu barhayot!

### Uyga vazifa

**43-mashq.** «Iqtidorli yoshlar – xalq iftixori» mavzusiga sodda reja tuzib, uni murakkab rejaga aylantiring.

## 15-dars

### ADABIY MAVZULARDAGI INSHOLAR



#### Eslatma

Siz 1-sinfдан yoza boshlagan oddiy yozma tasvir, rasm asosidagi hikoya, turli xil maktublar ham inshoga o‘xshaydi. Lekin ularni insho deb bo‘lmaydi.

Chunki bunday yozma ishlar aniq reja asosida yozilmagan, ularda o'quvchining maxsus tayyorgarligi, ijodiy izlanishi va mustaqil fikrlashi talab etilmagan.

**44-mashq.** Guruhlarga bo'linib, biror badiiy asar bo'yicha insho mavzulari tuzing. Shulardan bitta mavzuning mufassal rejasini shakllantiring.

### **Bilib oling**

Muayyan badiiy asar, undagi qahramonlar haqidagi insho adabiy inshodir. Bunday mavzudagi inshoda biror badiiy asar yoki undagi qahramonlar taqdiri adibning badiiy mahorati bilan bog'lab, manbalarga tayanib tahlil qilinadi.

**45-mashq.** O'zingiz yoqtirgan badiiy asar asosida adabiy-ijodiy insho uchun mavzular tanlang. Shu mavzular bo'yicha murakkab reja asosida insho yozing.

**46-mashq.** Quyida adabiy va ilmiy insholarning mavzulari aralash holda berilgan. Ularni ajratib yozing.

1. «Alpomish» dostonida qahramonlik tasviri. 2. Abdulla Qodiriyning badiiy mahorati. 3. Men sevgan adib. 4. Muhammad Yusuf she'riyatida Vatan tasviri. 5. «Sen yetim emassan» she'ridan olgan taassurotlarim. 6. Abdulla Qahhor — kichik hikoyalar ustasi. 7. «Mehrobdan chayon» romanida xonlik tuzumi illatlarining fosh etilishi. 8. Zulfiya she'riyatida tinchlik mavzusi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Xolis tahlil qaysi insho turiga xos?
2. Mustaqil fikrlash talab etiladigan insho qanday insho?
3. Adabiy-ijodiy va adabiy insho orasiga qat'iy chegara qo'yib bo'ladimi? Fikringizni asoslang.

### **Uyga vazifa**

**47-mashq.** O'tgan darsda reja tuzib, ma'lumot to'plagan mavzulardan biriga adabiy mavzudagi insho yozib keling.

## **16-dars**

### **ERKIN MAVZUDAGI INSHOLAR**

**48-mashq.** Berilgan mavzularda erkin mavzudagi insho yozish uchun qaysi sohalarga oid bilimlar zarurligini ayting va fikringizni sharhlang.



1. Kitob – bilim manbai. 2. Vatanni sevmoq imondandir. (*Hadisdan*) 3. Bobur asarlari ohanrabosi. 4. O‘zbekiston – Vatanim manim. (*A.O.*) 5. Tanti dehqon – o‘z-begim. (*E.V.*) 6. Hayotda bo‘lmasa muallim agar... (*A.Jomiy*) 7. Inson har narsadan ulug‘.



### **Bilib oling**

O‘quvchining adabiyot darsligidagi ma’lumotlarga bevosita daxldor bo‘lmay, umuman, ma’lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr-mulohazalarini aks ettiruvchi insho **erkin mavzudagi inshodir**. Erkin mavzudagi inshoda o‘quvchining biror mavzu bo‘yicha turli fanlar, boshqa manbalardan olgan bilimlari va uning shaxsiy taassurotlari birgalikda ifodalanadi.

Erkin mavzudagi insho ommabop uslubda yoziladi.

**49-mashq.** Adabiyot, ona tili, tarix, geografiya, biologiya fanlari bilan aloqador erkin insho mavzularini shakllantiring. Ulardan birining rejasini tuzing.

**Namuna:**

### **O‘ZBEKISTON – VATANIM MANIM**

#### **Reja:**

- I. K i r i s h. O‘zbekistonning tarixi va istiqboli haqida.
- II. Asosiy qism:
  1. «Men nechun sevaman O‘zbekistonni?»
  2. Vatanimning tabiiy boyliklari.
  3. Vatanim – rivojlangan sanoat maskani.
  4. O‘zbekiston shoirlar va adiblar madhida.
- III. Xulosa. O‘zbekiston jahonga yuz tutmoqda.

**50-mashq.** Berilgan mavzu va reja asosida erkin mavzuda insho yozing.

### **DAVLATIMIZ MADHIYASI**

#### **Reja:**

- I. Kirish. Madhiyamiz yangraganda.
- II. Asosiy qism:
  1. Madhiyamizda Vatan tavsifi.
  2. Vatanimning o‘tmishi va buguni.

3. Vatanimning kelajagi.  
 III. Xulosa. Men o‘z Vatanim bilan faxrlanaman.

**Savol va topshiriqlar**

1. Inshoning qanday turi erkin mavzudagi insho deyiladi?
2. Erkin mavzudagi inshoda o‘quvchining qaysi xislatlari aks etadi?
3. Erkin mavzudagi insho qaysi soha bilimlariga aloqador bo‘lishi mumkin?

**Uyga vazifa**

**51-mashq.** Rasmni kuzating. Undan va davlatlararo zamonaviy aloqalarga oid ma’lumotlardan foydalanib, «Buyuk ipak yo‘li va zamonamiz» mavzusida insho yozing.



**17-dars**

**INSHOGA EPIGRAF TANLASH**

**52-mashq.** Jadvalni kuzating. Uning 1-ustunida insho mavzulari, 2-ustunida muayyan mavzularning mazmunini ochib beruvchi fikr (maqol, mashhur bayt) keltirildi. Insho mavzulariga mos keluvchi fikrlarni tanlang va bir-biriga bog‘lang.

T/r	Insho mavzusi	T/r	Tanlash uchun fikr
1.	Muxtasar nutq – go‘zal nutq.	1.	Ona yurtning omon bo‘lsa, Rang-u ro‘ying somon bo‘lmas. <b>(Maqol)</b>
2.	Tuproqlaring ko‘zga aylan to‘tiyo.	2.	Qisqa yozishga vaqti yo‘q kishi uzun xat yozadi. <b>(Paskal)</b>

3.	Mehnat baxt keltirar.	3.	Suv – zar, suvchi – zargar. <b>(Maqol)</b>
4.	Obi hayot – tiriklik manbayi.	4.	Emgak ekinda qolmas. <b>(Mahmud Koshg'ariy)</b>



### Bilib oling

Inshoning mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli soʻz, maqol, ibora yoki badiiy parcha **epigraf** deyiladi.

Epigraf, odatda, rejadan keyin, insho matnidan oldin, sahifaning oʻng chekkasida yoziladi. Epigraf boʻlgan matndan soʻng (soʻroq yoki undov gap boʻlmasa) nuqta qoʻyiladi, muallif nomi qavs ichida beriladi.

Inshoda epigraf boʻlishini qatʼiy talab deb tushunmaslik kerak, u tamoman ixtiyoriy. Lekin mavzu va ichki mazmunga hamohang keluvchi epigraf tanlash inshoning badiiyligiga xizmat qiladi, insho muallifining mahoratini koʻrsatadi.

**14-topshiriq.** Quyidagi insho mavzulariga mos keluvchi epigraflar toping.

1. Alisher Navoiyning «Topmadim» gʻazali tahlili.
2. Muhammad Yusuf sheʼrlarida samimiylik va haqqoniylikning tarannum etilishi.
3. Abdulla Qodiriy – tarixiy romanlar ustasi.
4. «Oʻtkan kunlar» romanidagi Zaynab timsoliga tavsif.

**53-mashq.** «Oʻzbekistonimning ertasi», «Yangi asr orzulari», «Oʻtkir Hoshimov asarlarini sevib oʻqiyman», «Men sevgan adabiy qahramon» mavzularidan biriga epigraf tanlang.

**54-mashq.** Quyidagi soʻzlarning maʼnosini lugʻatdan topib, lugʻat daftaringizga koʻchiring va eslab qoling: epigraf, muxtasar, toʻtiyo, emgak, timsol, samimiy, haqqoniy.



### Savol va topshiriqlar

1. Epigraf nima? Inshoga epigraf qanday tanlanadi?
2. Barcha insholarda epigraf boʻlishi shartmi?
3. Epigraf inshoning qaysi qismida joylashadi, unda qanday tinish belgilari qoʻyiladi?



### Uyga vazifa

**15-topshiriq.** «Mehnat», «Vatan», «Ona» mavzularidagi insholar uchun epigraf bo'la oladigan xalq maqollari, hadislardan 5 tadan namuna topib keling.

## 18-dars

### ILMIY INSHO

**55-mashq.** Matnni o'qing va mazmunini og'zaki bayon qiling. Har bir xatboshidagi asosiy fikrni aniqlab, bir jumlada ifodalashga harakat qiling.

Bir masala turli mavzudagi inshoda har xil ifodalanishi mumkin. Ilmiy inshoda berilgan mavzu biror fan nuqtayi nazaridan ilmiy nutqda yoritiladi. Ilmiy inshoda terminlar, ilmiy dalil va tushunchalardan keng foydalaniladi. Unda axborot aniq va lo'nda ifodalanishi, tushunarli bo'lishi lozim.

Ilmiy inshoda nutqning tasviriy vositalaridan, ko'chma ma'noli so'zlardan, obrazli ibora, maqol va matallardan deyarli foydalanilmaydi. Ilmiy insho tili bo'yoqdorlik va ta'sirchanlikdan xoli bo'ladi.

Ilmiy insho mantiqiy fikrlash, dalillarning mohiyatini tushunish, narsalarning xususiyatlarini yaxshi bilish asosida yoziladi. Ilmiy inshoda muallifning nuqtayi nazari, tegishli xulosa chiqarishi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Ilmiy insho yozish o'quvchilarning kelajakda ilmiy maqola, ilmiy kitoblar yozish malakasi hosil bo'lishiga xizmat qiladi. Kelajakda biror fan sohasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsangiz, ilmiy insho yozish mahoratini tinimsiz egallab borishingiz kerak.

Barcha fanlar bo'yicha ilmiy insho yozish mumkin.



### Bilib oling

Ilmiy inshodan o'quvchilarning ilmiy fikrlash darajasini aniqlash uchun foydalaniladi.

Bunday inshoda ilmiy tushuncha va terminlar, dalillar ko'p ishlatiladi. Ilmiy insho tili bo'yoqdorlik va ta'sirchanlikdan xoli bo'ladi.

**56-mashq.** Quyidagi gaplarni to'g'ri tartiblab, «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» sarlavhali ilmiy insho uchun murakkab reja tuzing.

1. O‘zbek tili nutq tovushlarining talaffuzi va yozilishi.
2. Imlo qoidalarini bilishning ahamiyati.
3. So‘zlarning ajratib yoki qo‘shib yozilishi.
4. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari.
5. So‘zlarga qo‘shib yoki chiziqcha bilan ajratib yoziladigan qo‘shimchalar.

### Savol va topshiriqlar

1. Ilmiy insho qanday insho?
2. Ilmiy inshoda tilning qaysi vositalari ko‘proq, qaysilari kamroq qo‘llanadi?
3. Ilmiy insho yozish mahorati kelajakda nimalarga asos bo‘ladi?

### Uyga vazifa

**57-mashq.** «Daraxt» mavzusidagi ilmiy insho uchun reja tuzing.

## 19-dars

### Mustahkamlash darsi

## AYNI BIR AXBOROTNI BADIY VA ILMIY BAYON QILISH

**16-topshiriq.** Berilgan gaplardagi ko‘makchilarni mos qo‘shimchalar bilan almashtiring.

1. Vatanimiz mustaqillik sari qadam qo‘ydi. 2. Biror nima to‘g‘risida xulosa chiqarish uchun unga ega bo‘lish shart emas. 3. Uning nigohi daryo tomonga tushdi-yu, to‘xtab qoldi. 4. Bu gullarni onam uchun oldim. 5. Ota-jonim kabi oliyjanob, mehribon, saxiy inson bo‘lishni xohlayman.

**17-topshiriq.** O‘zbekiston haqida bittadan badiiy va ilmiy matn topib, o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlang.

### Uyga vazifa

**58-mashq.** «Quyosh» mavzusida badiiy va ilmiy matn yaratib, «Eng ravon nutq» mavzusidagi og‘zaki nutq sinoviga tayyorlaning.

### Mustahkamlash uchun savollar

1. Adabiy nutqning me‘yorlari haqida gapiring.
2. Lug‘aviy ma‘no ifodalovchi so‘zlar guruhi nima deyiladi?
3. Yordamchi so‘z turkumlari nega bunday nomlangan va uning qanday turlari bor?

4. *Ma'lumotnoma matni va ijodiy tavsifiy matnlarning o'xshash jihatlari nimada?*
5. *Insho nima va u boshqa ijodiy ishlardan qaysi jihati bilan farqlanadi?*
6. *Inshoning oddiy yozma axborot bilan qanday o'xshash va farqli tomonlarini bilasiz?*
7. *Insho mazmun-mohiyatiga ko'ra necha turli bo'ladi? Ularning xususiyatlarini sanang.*
8. *Mustaqil fikrlash talab etiladigan insho qanday insho?*
9. *Inshoning qanday turi erkin mavzudagi insho deyiladi?*
10. *Epigraf nima va u qanday tanlanadi?*
11. *Sodda va murakkab rejaning farqi nimada?*
12. *Ilmiy inshoni tavsiflang.*

### **Globallashuv va tillar taraqqiyoti** (*Tilshunoslik bo'yicha ilmiy insho namunasi*)

#### **Reja:**

1. Dunyoning lisoniy manzarasi.
2. Yo'qolib borayotgan tillar.
3. Tillarni saqlab qolish choralari.
4. «Internet tili» tushunchasi.
5. Xulosa.

Har xil asoslardagi hisob-kitoblarga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 3 mingdan 7 mingtagacha til borligi e'tirof etiladi. 2005-yilda tuzilgan UNESCO ro'yxati 6 912 ta tilni qamrab oladi. Bu tillardan 32,8 foizi (2 269 tasi) Osiyo va 30,3 foizi (2 092 tasi) Afrika qit'asiga to'g'ri keladi.

Til – moddiy, ma'naviy merosni saqlash va boyitishning eng kuchli vositasi. UNESCO hisob-kitobiga ko'ra, mavjud 7 mingga yaqin tilning yarmi XXI asrda o'zining oxirgi sohibidan ajralishi mumkin. Ba'zi farazlarga ko'ra, asr oxiriga kelib mavjud tillarning 95 foizi o'lik tilga aylanadi. Har oyda dunyo miqyosida ikkitadan til o'layotganligi esa dahshatli hodisa! UNESCOning 2017-yil 15-iyundagi xabariga ko'ra, o'lim yoqasida turgan 2,5 ming tildan 15 tasi Markaziy Osiyo xalqlariga to'g'ri keladi. Jumladan, O'zbekistondagi Markaziy Osiyo arablari tili, Buxoro – Samarqand yahudiylari tili, Markaziy Osiyo lo'lilari (paryo) tili. Qolgan tillarning 2 tasi Qozog'iston va Qirg'izistonda (dungan tili, oyrot tili), 1 tasi Turkmanistonda (truxman tili), 9 tasi Tojikistonda (voxon tili, ishkovich

tili, sanglich tili, roshorv tili, shug'on tili, bartang tili, rushon tili, yazg'ulob tili, yag'nob tili).

Globalashuv asrida tillarning yashab qolishi ko'proq axborot-kommunikatsiyalari sohasida, Internet tizimida qo'llanish darajasi bilan bog'liq.

Qaysi til Internet tili emas ekan, bu tillarning ro'parasida o'lim xavfi turaveradi.

Internet tili haqida so'z ketar ekan, o'zbek tili Internet tili emasmi degan savol tug'ilishi tabiiy. Chunki o'zbek tilida Internet sahifalarida ma'lumotlar berilmoqda, yozishmalar amalga oshirilmoqda, tilimizda ish olib boradigan sayt va portallar, ijtimoiy tarmoqlar kundan kunga ko'payib borayotir. Zohiran tilimiz Internet va axborot-kommunikatsiya sohalarida cheklanmagan darajada qo'llanayotgandek, tilimiz esa Internet tiliga aylangandek. Aslida ham shundaymi?

Internet kompyuter texnologiyalariga tayanadi. Kompyuter tilshunosligida «kompyuterning tilni tanishi» degan tushuncha bor. Agar kompyuter tilni «tanir» ekan, tilning kompyuter tili, Internet tili ekanligi haqida so'z yuritish to'g'ri bo'ladi.

Kompyuter tilni «tanishi» uchun u bu tilni «bilishi» zarur. Kompyuterning matndagi xatolarni tuzatishi, matnni qayta ishlashi, tarjima qilishi, tahrirlashi, til ifodalarini tasniflashi, tartiblashi, biror tilda gapirishi, yozishi uning tilni tanishi asosida amalga oshiriladi. Umuman olganda, sun'iy intellektning muayyan til asosida ish ko'rishi, tilning sun'iy intellektning to'la ma'nodagi muloqot vositasiga aylanishi uning tilni «bilishi» va «tanishi» asosida sodir bo'ladi. Xullas, XX asrning buyuk kashfiyoti bo'lgan kompyuter texnologiyalari sohasi uchun katta vazifalarni vujudga keltirdi va tillarning taraqqiyoti hamda yashab qolishi uchun hal qiluvchi omilga aylanib qoldi.

Tilning Internet, kompyuter texnologiyalari tiliga aylanishi matematik tilshunoslik, uning davomi bo'lgan kompyuter tilshunosligining shakllanganligi va rivojlanish darajasi bilan bog'liq.

Ayniqsa, sun'iy intellekt uchun tabiiy tillarni model-lashtirish kompyuter lingvistikasining asosiy, pirovard vazifasi hisoblanadi.

Dunyo miqyosida sun'iy intellektlar yaratish asosida tabiiy tillarni matematik modellashtirish yotadi. Matematik modellashtirish natijalari sun'iy intellektning faoliyat dasturini yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'zbek tili misolida hali ochilmagan qo'riq.

Tilning xavfsizligini ta'minlash uchun ularning yozuvlariga, ko'p sonli so'zlashuvchilariga (100 mingdan ortiq), davlat tili maqomiga va axborot-kommunikatsiya, Internet tizimida qo'llanish xususiyatiga hamda so'zlashuvchilarning muhabbatiga egaligidan tashqari, ziyolilarning tillarni saqlab qolish va rivojlantirish haqida qayg'urishlari va mutasaddilarning esa bir yoqadan bosh chiqarib tashkiliy yo'l bilan kurashishlari juda ham zarur.

## 20–21-darslar

### YOZMA NAZORAT ISHI VA UNING TAHLILI

#### 3-BO'LIM SINTAKSIS, OHANG VA TINISH BELGILARI

## 22-dars

### SINTAKSIS HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA. SO'Z BIRIKMASI

Nutqimizda gaplardan foydalanamiz. Gap tarkibidagi so'zlar o'zaro bog'langan bo'ladi. So'zlar bog'lanishi uchun:

1) ular mustaqil so'z turkumlariga mansub bo'ladi. Masalan, *kitob o'qimoq, maktabga bormoq*. Lekin *ukam uchun, telefon orqali* birikuvlari ikkinchi so'zlari mustaqil so'z bo'lmaganligi uchun so'zlarning bog'lanishiga misol bo'la olmaydi;

2) so'zlarning ma'nolari o'zaro mos bo'lishi lozim. Masalan, *oyna* so'zining ma'nosi *sinmoq* so'zining ma'nosiga mos. Ammo *randalamoq, uzilmoq* so'zlariga mos emas. Shuning uchun nutqda ma'nosi mos bo'lmagan so'zlarni bog'lash xato bo'ladi;

3) so'zlarni bog'lovchi qo'shimchalar ham o'z o'rnida bo'lishi kerak. Masalan, *Toshkentda yashayman, ukamning daftari* birikmasida qo'shimchalar to'g'ri qo'llangan. Lekin



*Toshkentga yashayman, ukamni* daftari birikmasida qo‘shimcha noto‘g‘ri qo‘llangan.

So‘zlarning gapdagi bog‘lanishi *sintaktik aloqa*, sintaktik aloqani o‘rganuvchi bo‘lim *sintaksis* deyiladi.

Tovushlardan so‘z va qo‘shimchalar, so‘z va qo‘shimchalardan gap hosil bo‘ladi.

Gap bitta so‘zdan iborat bo‘lishi ham mumkin.

**59-mashq.** Quyidagi so‘zlardan sintaktik aloqa hosil qiling.

qush, uya;  
yurt, ketmoq;  
ayrilmoq, el;  
vatan, qadr;  
inson, vatansiz;  
g‘am, el;  
yurt, yuksalmoq;  
tug‘ilmoq, yer.

**18-topshiriq.** Gaplarning kesimini toping va bunda nimaga asoslanganingizni izohlang.

1. Haqiqiy inson va yurt farzandi – bir kishi. (*Aleksandr Radishchev*) 2. O‘z yurtiga tegishli bo‘lmagan odam insoniyatga ham tegishli emas. (*Vissarion Belinskiy*) 3. Boy boyga boqar, suv soyga oqar. (*Maqol*)

**19-topshiriq.** Berilgan birikmalarda mustaqil so‘zlarni bog‘lovchi vositalarni ikki guruhga ajrating.

Vatan uchun o‘lmoq, yigit va vatan, kishi yerida sulton bo‘lmoq, ega va el, o‘z yurtning, vatan uchun jon bermoq, o‘zga yurtda shoh bo‘lmoq, yurtim shamoli.



### **Bilib oling**

Mustaqil so‘zlarning nutqda bog‘lanishidan so‘z birikmasi hosil bo‘ladi. So‘z birikmasi bo‘lish uchun:

- 1) kamida ikkita mustaqil so‘z bo‘lishi lozim;
- 2) bu so‘zlar ma‘no jihatdan mos bo‘lishi kerak;
- 3) so‘zlarning biri ikkinchisiga ergashishi, ya‘ni tobelanishi zarur;
- 4) qo‘shimcha va yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlarni bog‘lashi kerak.

### Eslatma

Soʻzlar bogʻlanishida oldin kelgan soʻz tobe soʻz, keyin kelgan soʻz **hokim soʻz** deyiladi.

Tobe soʻz hokim soʻz maʼnosini izohlaydi, toʻl-diradi.

Nutqda biri ikkinchisini izohlamaydigan bogʻlanishlar ham mavjud: *olma va anor; oʻqidi va yozdi; Salim, Halim* kabi.

### Savol va topshiriqlar

1. Gap nimadan tashkil topadi?
2. Soʻz birikmasi uchun qanday soʻzlar zarur?
3. Soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlar qanday bogʻlanadi?
4. Soʻz birikmasida oldin va keyin kelgan mustaqil soʻz nima deyiladi?

### Uyga vazifa

**60-mashq.** Har bir qatordagi soʻzlarni bir-biriga bogʻlab, soʻz birikmalari tuzishni mashq qiling.

- 1) bormoq, maktab, sari, shahar, oʻqimoq;
- 2) suv, buloq, tinchlik, maqtamoq;
- 3) oʻzga, yurt, choʻl, gul;
- 4) togʻ, chiqmoq, el, suyanch.

## 23-dars

### TENG VA TOBE BOGʻLANISH

**20-topshiriq.** Matnni oʻqing.

#### HUNAR XOSIYATI

Aytishlaricha, Gushtasp (Erondagi kayoniylar sulolasining beshinchi hukmdori) kunlardan birida oʻz Vatanidan ayrilib, begona bir shaharga kelib qoldi. Uning yonida biror chaqa ham yoʻq edi. Yeyishga narsa topolmay, och qoldi. Birovdan soʻray desa, izzat-nafsi yoʻl qoʻymas edi. Uning yodiga yoshligi tushdi. U bolalik paytida maktabga borar ekan, yoʻl chetida joylashgan temirchi doʻkoni oldida biroz toʻxtab, temirchilarning pichoq va bolta yasashlarini tomosha qilar edi va uning siridan birmuncha voqif

bo'lib qolgan edi. Gushtasp ko'p o'ylab o'tirmay, temirchilarning oldiga bordi va ularga dedi:

– Ey birodarlar, temirchilik siridan ancha xabardorman, meni ham o'zlaringga sherik qilib olsalaringiz.

Temirchilar rozi bo'lishdi. Gushtasp bir necha muddat ishlab, pul yig'di. So'ng Vataniga qaytib bordi. U martabaga erishgan paytida barcha yosh-u qarini kasb va hunar o'rganishga da'vat qildi.

Bolalarni kunning avvalida o'qitib, ikkinchi qismida hunar o'rgatishga farmon berdi.

**21-topshiriq.** Birinchi guruh bog'lanishdagi tobe va hokim so'zlarni aniqlang.

**22-topshiriq.** Tobe so'z hokim so'zga nima vositasida bog'lanishi asosida ularni uch guruhga ajrating:

- 1) qo'shimchalar yordamida bog'lanish;
- 2) ko'makchilar yordamida bog'lanish;
- 3) qo'shimcha va ko'makchilarsiz bog'lanish.



### **Bilib oling**

Bir mustaqil so'z boshqa mustaqil so'zni izohlaydigan bog'lanish tobe bog'lanish deyiladi.

Bir mustaqil so'z boshqasiga ergashmay, izohlamay bog'lansa, teng bog'lanish deyiladi.

So'zlarning teng bog'lanishi so'z qo'shilmalarini hosil qiladi: yoshlar va kelajak, otam bilan onam, oy hamda quyosh.

Teng bog'lanishda tobe va hokim so'z bo'lmaydi, ikkala so'z ham teng huquqli bo'ladi.

**23-topshiriq.** Ajratib ko'rsatilgan so'z birikmalaridagi hokim so'zlar qaysi so'z turkumiga mansubligini aniqlang.

1. Hech bir xalq **dalada ishlash** doston yozishdek shonli ish ekanligini anglab yetmaguncha yuksalmaydi. (*Buker Vashington*) 2. Hech narsa qilmaslik – bu juda **og'ir ish**. (*Oskar Uayld*) 3. Baxt **yalqovga begona**. (*Maqol*) 4. **Betashvish bosh** qayda, mehnatsiz osh qayda? (*Maqol*)

**24-topshiriq.** Berilgan gaplardagi teng bog'lanishli birikuvlarni aniqlang.

1. Dunyodagi eng og'ir yuk hasad yukidir. Chunki hasadchi butun dunyodagi shod va quvnoq odamlarning qayg'ularini o'z ustiga yuklab yuradi. (*Aristotel*) 2. Boy insonlar pulni ko'proq topish hamda jamlashni o'ylasa, kambag'al odamlar uni ko'proq sarflashni o'ylaydi. (*Harv Eker*) 3. Olimlar orasidagi hasad, ko'rolmaslik jamiyat uchun ofatdir. (*T. Malik*)

### **Bilib oling**

So'z birikmasi hokim so'zning qaysi turkumga oid so'z bilan ifodalanishiga qarab, ikki guruhga bo'linadi: *otli so'z birikmasi, fe'lli so'z birikmasi.*

Otli so'z birikmasida hokim so'z ot, sifat, son, ravish va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi: *shaharning ko'chalari, hammasidan katta, chumchuqning chug'urchug'uri, o'quvchilarning beshtasi, do'stlarning barchasi, o'qdan tez kabi.*

Fe'lli so'z birikmasida hokim so'z fe'l bilan ifodalanadi: *kitobni o'qidi, daftarga yozmoq, tez yugurgan, ohista gapirish, ta'sirli so'zlab, zavq bilan o'qimoq.*

### **Savol va topshiriqlar**

1. *Otli birikma va fe'lli birikmani tushuntiring.*
2. *So'z birikmasida hokim va tobe so'zning joylashuvi qanday?*
3. *Tobe va teng bog'lanishning farqi nimada?*
4. *So'z birikmasidagi tobe so'z qanday vazifa bajaradi?*

### **Uyga vazifa**

**61-mashq.** Quyidagi so'zlarning ma'nosini lug'atdan topib, lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling: sulola, izzat-nafs, voqif bo'lmoq...

## **24-dars**

### **SO'Z BIRIKMASI VA SO'ZLAR QO'SHILMASI, QO'SHMA SO'Z**

**25-topshiriq.** *Matnni diqqat bilan o'qib chiqing.*

## **AMIR TEMUR VA ME'MOR**

Bir kuni Amir Temur tez muddatda dunyo **qoyil qoladigan** madrasa qurib bitirishni **niyat qilibdi**. Mohir me'morni chaqirib, o'sha kuniyoq ish boshlatmoqchi bo'libdi.

Me'mor bunday binoni **shoshilinch qurib bo'lmashligini** qancha aytsa ham, Amir Temur ko'nmabdi. Noiloj qolgan me'mor madrasaning joyini tayyorlab, poydevorini qo'ydirib, bir kechada g'oyib bo'lib qolibdi. Yer-u ko'kni qidrib topisholmabdi. Oradan ikki yil o'tgach haligi usta yana paydo bo'libdi-da, darg'azab Amirga:

– Siz istagan muddatda bu **binoni qurib bitkazishim** mumkin edi, ammo ming go'zal bo'lgani bilan uning umri uzoqqa bormasdi. **O'ylanmay qilingan** ishning oxiri voy. Siz aytgan binoni qurish uchun o'ylashga fursat kerak edi. Men ikki yil ko'rinmay ketgan davrimda shu haqda o'yladim. Qancha-qancha yurtlardagi qasri oliylarni ko'rib keldim. **Ham boqiy, ham go'zal** bo'lishi rejalarini tuzdim. Men bir bino yaratmoqchimanki, uning tepasida faqat osmon bo'ladi. Osmon xalaqit bermasa, uni yana ham **balandroq ko'tarishim** mumkin bo'lardi, – deb javob qilgan ekan.

**26-topshiriq.** Matndagi ajratib ko'rsatilgan birikuvlar tarkibidagi so'zlar qanday vositalar yordamida bog'langanini aniqlang.



### **Bilib oling**

So'z birikmasi so'z qo'shilmasi (teng bog'lanish) va qo'shma so'zga o'xshaydi. So'z birikmasi va so'z qo'shilmasi nutqda hosil qilinadi. Qo'shma so'z nutq jarayonigacha mavjud bo'ladi. Shu boisdan u lug'atlarda aks etadi.

**62-mashq.** Imlo lug'atidan qo'shma so'zlarga misollar toping. Ularni ikki guruhga ajrating:

- 1) qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar;
- 2) ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar.

**63-mashq.** *Kitob, bahor, o'qimoq, tashakkur bildirmoq* kabi so'zlariga eng ko'p tobe so'z qo'yish bo'yicha «Kim topqir?» bahsida ishtirok eting.

**Namuna:** *qizil gul – chiroyli qizil gul – xushbo'y chiroyli qizil gul...*

**Eslatma:** *sariq, pushti, qizil gul tipidagi birikuvlar inobatga olinmaydi.*



### **Savol va topshiriqlar**

1. Amir Temur nega me'morni eshitishni istamadi?

2. Nega me'mor Amir Temurdan qochib ketdi?  
3. Me'morda qaytish uchun jur'at nima sababdan paydo bo'ldi?



### Uyga vazifa

**64-mashq.** Berilgan izohlardan *madrasa, mohir, me'mor, poydevor, fursat, boqiy, oliy* so'zlarining ma'nosini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling: 1) bino devorlarining asos qismi; 2) vaqtning zum, damdan keyingi kichik qismlaridan biri; 3) abadiylikka ega; 4) eng yuqori; 5) sharq o'tmishida oliy ma'lumot beruvchi ta'lim muassasi; 6) imorat qurilishini loyihalash bo'yicha mutaxassis.

## MUSTAHKAMLASH DARSLARI

### 25–26-darslar

#### MUMTOZ MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH

**65-mashq.** Matnni ifodali o'qing.

#### TALAB VODIYSI

Chun talab vo/diysig'a qo'y/sang qadam,  
Ollinga har/ dam kelur yuz / ming alam.

Har dam anda/ yuz **malolat**/ yuzlanur,  
Har nafas ming/ **sa'b** holat/ yuzlanur.

Istamak ran/ji ko'ngulni/ zor etar,  
Topmomog'liq/ ruhni **af/gor** etar.

Jonni kuydur/mak bo'lub mah/rumliq,  
Vaslining **mi'/odi** noma'/lumliq.

Ranj-u **ko'shish**/ sanchibon jis/mingg'a **nesh**,  
Dardi noyob/ aylabon jo'ningni **resh**.

Istabon top/may duri no/yobni,  
Mundadur tar/k aylamak as/bobni.

Mol-u mulk-u/ har nedur **so/likka** band,  
To'rt **takbi/ri fano** ur/moq baland.

*Alisher Navoiy, «Lison ut-tayr»*

**66-mashq.** Berilgan izohlardan matndagi ajratilgan soʻzlarning maʼnosini aniqlab, lugʻat daftaringizga koʻchiring va yodlang:

1) malol kelish; ogʻrinish; 2) xor boʻlish, ezgʻin holatga tushish; 3) muddat, ijro vaqti; 4) saʼy-harakat; 5) nish, tigʻ; 6) yara, jarohat; 7) oʻtkinchi dunyo uchun haqni ulugʻlash; 8) komillik sari harakat qilayotgan kishi; 9) qiyin, ogʻir.

**67-mashq.** Har bir bandni ifodali oʻqib, mazmunini nasriy bayon qilishga tayyorlaning.



**Uyga vazifa**

**68-mashq.** Matnni sheʼriy va nasriy shaklda yod oling.

**27-topshiriq.** Matnni ifodali oʻqing.

## TALAB VODIYSI

(davomi)

Har nekim gʻayri talabdur tashlamoq,  
Oʻzni maqsad manziligʻa boshlamoq.

Qolmasa olam matoʻidin jihat,  
Oʻzga navʻ oʻlgʻay sanga ul dam sifot.

Ganjdin yetkay asar vayroninga,  
Zoti nuridin yorugʻlugʻ joninga.

Ul yorugʻlugʻ shavq oʻtin tez aylagay,  
Kim talab raxshin sabukxez aylagay.

Joningʻa yetkay talabning rohati,  
Qolmagay ranj-u taabning shiddati.

Durgʻa topqon soyi koʻnglung xosliq,  
Boʻlgʻoy osonroq sanga gʻavvosliq.

*Alisher Navoiy, «Lison ut-tayr»*

**69-mashq.** Quyidagi izohlardan ajratilgan soʻzlarning maʼnosini aniqlab, lugʻat daftaringizga koʻchiring va yodlang:

1) suv tagida harakat qilish, suzish; 2) sayin, sari; 3) mashaqqat, mushkullik; 4) zavqli harakat; 5) ot, ulov; 6) davlat, boylik; 7) yengil, chaqqon.

**70-mashq.** Har bir band mazmunini avval she'riy ifodali o'qib, keyin nasriy bayon qilishga tayyorlaning.

**28-topshiriq.** Matnni she'riy va nasriy ko'rinishda navbatma-navbat o'qing.



**Uyga vazifa**

**71-mashq.** Matnni she'riy va nasriy shaklda yod oling hamda «Eng yaxshi nasriy matn» bahsiga tayyorlaning.

## 27-dars

### «ENG CHIROYLI VA TA'SIRCHAN NUTQ» TANLOVI

(Og'zaki nutq bo'yicha nazorat ishi)

**29-topshiriq.** Mavzulardan birini og'zaki nutq tanlovi uchun tanlang:

- 1) «Izzat qilsang, hurmat ko'rasan»;
- 2) «Mehr – gul, qahr – tikan»;
- 3) «Mehr xazinasi – til»;
- 4) «Meniki-seniki – ko'ngil torligi»;
- 5) «Ustoz mehri – ota mehri».

**72-mashq.** Mavzuga reja tuzib, matn tayyorlang. So'zlarni tanlashda ma'nodosh so'zlar lug'atidan foydalanishingiz mumkin.

**30-topshiriq.** Dars jarayonida tashkil etilgan «Eng chiroyli va ta'sirchan nutq» tanlovida qatnashing.

**31-topshiriq.** Ko'rsatilgan xatolaringizni yozib oling va ular ustida ishleng.



**Uyga vazifa**

**73-mashq.** Ma'nodosh so'zlar lug'atidan foydalanib, «Shaxsning fe'l-atvorini ifodalaydigan eng ta'sirchan so'zlar lug'ati»ni tuzing.

**Namuna:** mehribon – mushfiq; chiroyli – xushro'y; qadrli – aziz.

## 4-BO'LIM

### GAP



#### Eslatma

So'z yoki so'zlar vositasida anglashilgan fikr gap deyiladi.



## 28-dars

### GAPNING IFODA MAQSADI

**32-topshiriq.** Matnni o'qing.

#### KO'RNING JAVOBI

Sayyor ismli ko'r arablar orasida eng mashhur ekan. Bir kuni ko'chada unga tegishib:

– Hoy, Sayyor, Xudodan tila, ko'zing evaziga biror nima bersin, – debdi.

– So'radim – berdi, – debdi ko'r.

– Nima berdi?

– Senga o'xshagan ahmoqlarning basharasini ko'rmaslikni!

**33-topshiriq.** Matndagi gaplarni uch guruhga ajrating:

- 1) xabar anglatuvchi gaplar;
- 2) so'roq anglatuvchi gaplar;
- 3) buyurish, undashni anglatuvchi gaplar.

**34-topshiriq.** Berilgan jadval mazmunini matnda ifodalang va qoidani eslab qoling.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi			
Darak gap	So'roq gap	Buyruq gap	Istak gap
Xabar berish maqsadidagi gap	So'rash, aniqlash maqsadidagi gap	Buyurish, undash maqsadidagi gap	Istak, xohish maqsadidagi gap



#### Bilib oling

Nutqimizda gaplar quyidagi maqsadlardan biri uchun ishlatiladi:

- 1) xabar berish;
- 2) so'rash, aniqlash;
- 3) buyurish, undash;
- 4) istak, xohish bildirish.

Shu sababli gapning ifoda maqsadiga ko'ra *darak gap*, *so'roq gap*, *buyruq gap*, *istak gap* turlari ajratiladi.

**74-mashq.** Chiroyli nutq mashqi. Biror hayajonli voqea haqida o'rtog'ingizga chiroyli og'zaki xabar bering. Xabaringizda gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlaridan keng foydalaning.

### Savol va topshiriqlar

1. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra qanday turlari bor?
2. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari nimasiga ko'ra farqlanadi?
3. Bunday gaplar oxirida qanday tinish belgisi qo'yiladi?
4. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini hosil qiluvchi vositalarni ayting.

### Uyga vazifa

**35-topshiriq.** Berilgan izohlardan sayyor, tegishmoq, ahmoq, karomat, evaz, bashara so'zlarining ma'nosini topib, lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling: 1) sayr qiluvchi, sayohatchi; 2) tegajoqlik qilmoq; 3) bilib turib xato qiladigan kishi; 4) mo'jizasimon holat; 5) o'rniga, badaliga to'lanadigan yoki olinadigan haq, narsa; badal; 6) xunuk ko'rinishli, yoqimsiz qiyofa.

## 29-dars

### MUMTOZ MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH

#### TALAB VODIYSI

(davomi)

Ollingga kel/sa agar **pi/li damon**  
Ko'rgosen pash/sha hamon-u/ pil hamon.

Gar yo'lungni /tutsa yuz she/r-u **palang**,  
Bo'lg'ay olling/da nechukkim/ **mo'ri lang**.

Ajdahodin /yetmagay ko'ngulda ranj,  
O'yla bo'lmish/ bo'lg'ay ul **mash'/uf** ganj.

**Kufr** ila iy/mong'a urg'ay/sen ilik,  
Bu **tama'din**/kim ochilg'ay/ bir eshik.

Chun eshik o/childi ne kuf/r-u ne din,  
Ichkari kir/gach qutulding/ barchadin.

Kufr-u iymon/ **rohravg'a /kesh** emas,  
Asl yo'lda /**bandi rohe**, /**besh** emas.

*Alisher Navoiy, «Lison ut-tayr»*

**36-topshiriq.** Matnni aruz vazni qoidalariga mos holda ifodali o'qing.  
Bunda misralardagi yotiq chiziqlar qisqa pauza (to'xtam)ni bildiradi.

**75-mashq.** Berilgan izohlardan matndagi ajratilgan soʻzlarning maʼnosini aniqlab, lugʻat daftaringizga koʻchiring va yodlang: 1) mast, quturgan fil; 2) yoʻlbars; 3) choʻloq chumoli; 4) kofirlik, dindan qaytganlik; 5) istak, xohish; 6) yoʻlovchi, maqsadga intilgan kishi; 7) maqsad, moʻljal; 8) yoʻldagi band, toʻsiq; monelik; 9) afzal, tuzuk.

**76-mashq.** Har bir band mazmunini nasriy bayon qilishga tayyorlaning.

**37-topshiriq.** Sheʼriy parchani oldingi darslardagi qismi bilan taqqoslang hamda talab vodiysi haqida xulosa chiqaring. Xulosani sinfda muhokama qiling.

**77-mashq.** Uch guruhga boʻlining. «Talab vodiysi» parchasidan oʻrganilgan yangi soʻzlarni eslang va daftaringizga yozing. Sinfingizda mumtoz matndan eng koʻp soʻzni eslagan oʻquvchi va guruhni aniqlang.



**Uyga vazifa**

**38-topshiriq.** Matnni yod oling.

**78-mashq.** Quyidagi matnni oʻqing. Sinfda nasriy bayon qilishga tayyorlaning.

Imom Gʻazzoliydan soʻradilar:

– Ilmda bunday yuksak darajaga qanday yetishding?

– Bilmagan narsamni soʻrab oʻrganishdan uyalmadim, – deb javob berdi.

*Tabibga koʻrsatmay kasal tomirin,*

*Tuzalmoq xayoli xomdur, hushyor boʻl.*

*Bilmaganingni soʻra, soʻrash nomusi,*

*Bilki, bilimdonlik va hurmatga yoʻl.*

*Shayx Saʼdiy, «Guliston»*

## 30-dars

### GAPNING TUZILISHIGA KOʻRA TURLARI

**39-topshiriq.** Matnni diqqat bilan oʻqing.

#### BIR SAHIFA SHARHI

Oʻtmishda mashhur bir kishi yolgʻiz oʻgʻlini uylantirish taraddudiga tushibdi. Doshqozonlarda osh damlanib, uzoq-yaqindan mehmonlar kela boshlabdi. Yigit kuyovnavkarlar bilan kelinni olib kelish uchun karnay-surnay sadolari ostida yoʻlga tushibdi. U kelinning ostonasiga qa-

dam qo'yishi bilan nima bo'libdi-yu, holsizlanib yiqilibdi. Sanoqli daqiqalarda behush bo'lib, jon beribdi. Qiyomat qoyim bo'lib, qiy-chuv boshlanibdi...

...To'yga atalgan osh janozaga tarqatilibdi.

Yaratganning bu ishidan o'zini yo'qotib qo'ygan ota davrining mashhur donishmandi huzuriga borib, voqeani so'zlab beribdi va sababini so'rabdi.

Shunda donishmand:

– **Boravering, tushingizda ayon bo'ladi, ertaga tongda kelasiz,** – debdi.

Saharmardonda kelgan otaning ahvolini bayon qilishga til ojiz edi.

Donishmand so'rabdi:

– Xo'sh, ayon bo'ldimi?

– **Qayoqdan ayon bo'lsin, axir, men uxlamadim,** – deb javob beribdi ota.

Shunda donishmand debdi:

– Unday bo'lsa, quloq soling. Menga ayon bo'ldi. Tushimda bir kutubxonaga borgan emishman. Bir kitobni o'qimoqchi bo'libman. Kutubxonachi kitobni berar ekan, ming istihola bilan qo'shib qo'yibdi:

– Bu kitob dunyo bo'yicha yagona nusxada. Uzoq yurtlardan tolibi ilmlar biri uch oy, boshqasi olti oy yo'l bosib kelib, uni o'qiydilar. Ammo kitobning eng muhim fikr yozilgan asosiy bir sahifasi yo'q – qaysidir nobakor uni yirtib olgan. Musofir tolibi ilmlar ushbu sahifadagi bebaho fikrdan bahramand bo'lolmay, ming afsus-nadomatlar bilan qaytib ketadilar...

Sarosimaga tushgan ota boshiga osmon qulagandek behush yiqilibdi. Bir amallab hushiga keltirishgach, o'ziga kelib, siniq ovozda hikoyasini boshlabdi:

– Ha, o'sha nobakor menman. Yosh talaba edim. Kutubxonada bu noyob kitobni mutolaa qilayotgan edim. **O'qir ekanman, bir sahifadagi murakkab fikrga hech ham tishim o'tmadi.** Ikki-uch kun tongdan xuftongacha kutubxonada o'tirar va ko'p martalab shu sahifani qayta o'qir edim. Baribir, bo'lmadi. Bir kuni kutubxonachining ko'zini shamg'alat qilib kitobning shu varag'ini yirtib oldim va qo'yninga tiqdim... Bu keyinchalik mutlaqo yodimdan chiqib ketgan edi.

... Shundan so‘ng ota gunohiga iqrор bo‘lib, tavba-tazarru qildi. Yaratganning jazosiga rozi bo‘ldi. Yirtilgan sahifa sharhiga bag‘ishlab esa ulkan kitob yozdi. Unga «Bir sahifa sharhi» deb nom qo‘ydi va kutubxonaga topshirdi.

Umrining oxirigacha bor davlatini sarflab, kutubxona homiyiligini zimmasiga oldi.

«Sharq hikoyat va rivoyatlari»

**40-topshiriq.** Matnda ajratilgan gaplardan nechta voqea yoki hodisa angla-shilayotganini aniqlang.

**79-mashq.** Quyidagi gap juftliklarini bitta gap holiga keltiring, bunda teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilardan foydalaning.

1. Unutilish bilan nodir asarlar o‘lmaydi. Yozuvchining yolg‘oni va laganbardorligi tuturuqsiz kitobning umrini uzaytira olmaydi. (*Onore de Balzak*) 2. Kitob o‘z yaralishida hech qachon san‘at asari bo‘lmaydi: u san‘at asariga aylanadi. (*Gonkur*) 3. Savol – kumush, javob – oltin. (*Maqol*) 4. Ko‘p bilgan oz so‘zlar, oz bo‘lsa ham, soz so‘zlar. (*Maqol*)



### Bilib oling

Bir xabarni ifodalovchi gap sodda gap hisoblanadi.

Birdan ortiq xabarni yaxlitlashtirib ifodalaydigan gap qo‘shma gapdir.

Sodda gapda shakllangan (zamon, shaxs-son, mayl, tasdiq-inkor belgisiga ega bo‘lgan) kesim bitta, qo‘shma gapda birdan ortiq bo‘ladi.



### Savol va topshiriqlar

1. Sodda gap deb qanday gapga aytiladi?
2. Qo‘shma gap nechta kesimdan iborat bo‘ladi?
3. Sodda va qo‘shma gapning farqini ayting.
4. Qo‘shma gapni qanday qilib sodda gapga aylantirish mumkin?



### Uyga vazifa

**80-mashq.** Berilgan sodda gaplarni qo‘shma gapga aylantirib, qo‘shma gaplarni esa sodda gaplarga ajratib ko‘ring.

1. Nasrda tarjimon – qul, nazmda tarjimon – raqib. (*Vasiliy Jukovskiy*) 2. Vaqtni o‘ldirish uchun o‘qiydiganlarga hech qaysi asar uzun tuyulmaydi. (*Djovanni Bokkachcho*)

3. Kitob – aql qayrog‘i. (*Maqol*) 4. Kitob ko‘rmagan kalla – giyoh unmagani dala. (*Maqol*)

**81-mashq.** Berilgan so‘zlarning yozilishini imlo lug‘atidan aniqlang, xatolarini tuzatib, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va yozilishini eslab qoling: *juziy, jurat, kekaymoq, komedia, ko‘k sulton, lahcha (...cho‘g‘), lovillamoq, lakamativ, mutoala, mubohasa.*

## 31-dars

### MATN VA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH

**41-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o‘qing.

#### TILSHUNOS VA QAYIQCHI

Bir kun mag‘rur tilshunos sohilda turgan qayiqqa minib narigi qirg‘oqqa o‘tmoqchi bo‘ldi. Sohilda yo‘lovchi kutib turgan qayiqchilardan biriga yuzlandi. Qayiq yaqinlashdi. Olim qayiqqa o‘tirdi. Dengizni tomosha qilib ketayotgan olim qayiqchidan so‘radi:

- Sen hech nahv o‘qiganmisan?
- Yo‘q, men johil bir qayiqchiman.

Olim:

– E voh, juda xafa bo‘ldim. Demak, yarim umring behuda o‘tibdi, – deya achinib qayiqchiga qaradi.

Shu vaqt dovul turdi. Keyin dengizning o‘rtasida chayqala boshladi, qayiqchi butun kuchi bilan xavfdan qutulish uchun harakat qildi. Bo‘ron borgan sayin kuchayar, qayiq esa cho‘kish arafasida edi. Shu vaqt qo‘rquvdan dir-dir titrayotgan olimdan qayiqchi so‘radi:

– Ey, har narsani bilgan olim do‘stim. Suzishni bilasanmi?

Yo‘q javobini olgan qayiqchi:

– Voh, voh, sen umringni behuda sarflabsan. Hozir butun umring ketdi. Chunki birozdan keyin qayig‘im cho‘kadi. Yaxshi bilginki, bu yerda hozir nahv (grammatika) emas, mahv ilmi lozim. Agar mahv ilmuni bilsang, qo‘rqmasdan dengizga sakra, – dedi.

*Jaloliddin Rumi, «Masnaviy»*

**82-mashq.** Matnga mos reja tuzing. Soʻzlarni maʼnodoshi bilan almashtiring. Bunda maʼnodosh soʻzlar lugʻatidan foydalaning. Reja asosida matnni ravon nutq bilan ogʻzaki hikoya qiling.

**42-topshiriq.** Berilgan izohlardan matndagi ajratilgan soʻzlarning maʼnosini aniqlab, lugʻat daftaringizga koʻchiring va yodlang: 1) tilning sintaktik qurilishi haqidagi soha; 2) oʻqimagan, savodsiz kishi; 3) kuchli shamol; 4) yomgʻir aralash kuchli shamol; 5) daf qilish, yengish.



**Uyga vazifa**

**43-topshiriq.** Izohli lugʻatdan *zehn* hamda *amal qilmoq* soʻzlarining maʼnosini topib, lugʻat daftaringizga koʻchiring va yodlab oling.

## 32-dars

### Mustahkamlash darsi

## GAPNING IFODA MAQSADI VA TUZILISHIGA KOʻRA TURLARI YUZASIDAN TAHLIL

### HILM NIMA?

Anushervon Buzurgmehrdan:

– Hilm nima? – deb soʻrabdi.

– Hilm – axloq dasturxonining tuzi. Hilm soʻzini teskari oʻqisang, arabchada milh, yaʼni «tuz» soʻzi hosil boʻladi. Hech bir ovqat tuzsiz taʼmga ega boʻlmaydi. Hech bir xulq ham hilm, yaʼni muloyimliksiz kamol topolmaydi, – deb javob berdi.

Anushervon yana undan:

– Hilmning belgilari qanday boʻladi? – deb soʻradi.

– Uning uch alomati boʻladi, – deb javob berdi Buzurgmehr, – birinchisi – birov senga qovogʻini solsa yoki achchiq soʻzlarni aytsa ham, unga nisbatan shirin soʻz aytsan, agar u oʻz feʼli bilan xafa qilsa, uni xursand qilishga urinasan. Ikkinchisi – gʻazab oʻt olib osmonga oʻrlagan paytda ham sukut qilib, xomush boʻlib turasan. Uchinchisi – biror kimsa kirdikori bilan gʻazabga loyiq boʻlsa ham, gʻazabni ichga yutib, oʻzingni bosasan!

*«Sharq hikoyati va rivoyatlari»*

**44-topshiriq.** Berilgan matndagi gaplarni sodda va qoʻshma gaplarga ajrating.

**45-topshiriq.** Uch guruhga boʻlining. Guruhlar orasida «Bu – bizniki» oʻyini oʻtkazing: matndan darak, soʻroq, buyruq gaplarni alohida ajratib oling.

**83-mashq.** Matnni qayta aytib berishga tayyorlaning. Undagi so‘roq va buyruq gaplarni ham darak gap shaklida ifodalang.

**84-mashq.** Berilgan sodda gaplarni qo‘shma gapga aylantiring.

Hilm – axloqli odamning qimmatbaho libosi. U kiyim turlarining eng chidamli matosidir. Hilm yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchidir. Yumshoq ko‘ngillilikni hodisalar to‘la dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo‘ladi. Hilmni insoniyat qadrini o‘lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo‘ladi.

*Alisher Navoiy, «Mahbub ul-qulub»*



**Uyga vazifa**

**46-topshiriq.** «Kim topqir?» musobaqasiga tayyorlaning. Hilm, muloyimlik, yumshoq ko‘ngillilik haqida hikmatli so‘z va maqollar toping, daftaringizga ko‘chiring.

**47-topshiriq.** Berilgan izohlardan *hilm, axloq, milh, xulq, qovog‘ini solmoq, o‘rlamoq, xomush bo‘lmoq, kirdikor, o‘zini bosmoq, langar, munofiq* so‘zlarning ma‘nosini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va eslab qoling: 1) so‘zi va amali bir bo‘lmagan kishi; 2) qirg‘oqqa tashlanib, kemani ushlab turadigan moslama; 3) hayajon holatida o‘zini tutmoq; 4) yashirib qilingan noto‘g‘ri ishlar; 5) g‘amgin holatga tushmoq; 6) balandga ko‘tarilmoq; 7) achchiqlanib qoshini chimirib olmoq; 8) xulqning arab tilidagi ko‘plik shakli; 9) tuz; 10) kishining o‘zini tutishi, ma‘naviy qiyofasi; 11) muloyimlik, halimlik.

## 33-dars

### NAZORAT ISHI

**48-topshiriq.** Mavzulardan birini insho yozish uchun tanlang:

1. «Vaqt – omad».
2. «Inson umri – daryo suvi».
3. «Qolgan ishga qor yog‘ar».
4. «Ertalabgi vaqt – naqdgina baxt».

**49-topshiriq.** Mavzuga reja tuzib, matn tayyorlang. So‘zlarni tanlashda ma‘nodosh so‘zlar lug‘atidan foydalanishingiz mumkin.

**50-topshiriq.** Maqol va hikmatlarni o‘qing. Ulardan epigraf sifatida yoki fikringizni dalillash uchun foydalaning.



1. Barvaqt qilingan harakat hosilga berar barakat.  
(Maqol)

2. Kech boshlagan kechikar. (Maqol)

3. Kechki ekinning xatari ko‘p. (Maqol)

4. Vaqting ketdi – naqding ketdi. (Maqol)

5. Vaqt g‘animat, o‘tsa nadomat. (Maqol)

6. Vaqt tog‘ni, suv toshni yemirar. (Maqol)

7. Vaqting kam bo‘lishini istasang, hech narsa qilma.  
(Anton Chexov)

8. «Shoshma-shosharlik yaxshi emas» degan naql burga tutishda qo‘l keladi, hatto burgani tutishga erinadiganlar buni qo‘llab-quvvatlaydilar va rivojlantiradilar. (Vitaliy Korotich)



### Uyga vazifa

**51-topshiriq.** Insho matnidan yozilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarni ajrating, imlo lug‘atidan shu so‘zlarni toping, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va eslab qoling.

## 34-dars

### NAZORAT ISHI TAHLILI

**52-topshiriq.** Tekshirilgan insho matnini diqqat bilan ko‘zdan kechiring. Xatolarga e‘tibor bering.

**53-topshiriq.** Xatolaringizni quyidagi turlarga ajrating:

- 1) imloviy xato;
- 2) ishoraviy (tinish belgi bilan bog‘liq) xato;
- 3) uslubiy (so‘z qo‘llash bilan bog‘liq) xato.

**54-topshiriq.** Xatolaringiz haqida o‘qituvchidan so‘rang. Xato yozgan so‘zingizni imlo lug‘atidan yana bir marta tekshiring, lug‘at daftariga ko‘chiring va eslab qoling.

**85-mashq.** Insho matnida uchragan uslubiy g‘aliz fikrlarni qayta o‘ylab ko‘ring. Fikringizni boshqacha ifoda bilan mashq daftariga yozing va o‘qib bering.

**55-topshiriq.** Uch guruhga bo‘lining. Bir guruhda imloviy xato, ikkinchi guruhda ishoraviy xato, uchinchi guruhda uslubiy xatolar ro‘yxatini tuzing. Xatoning yechimini toping va prezentatsiya (taqdimot) qiling.

## 5-BO'LIM

### SODDA GAP SINTAKSISI

#### 35-dars

#### SODDA GAP. GAP BO'LAKLARI

**86-mashq.** Gaplarni ko'chiring. Gap bo'laklarini aniqlab, tagiga chizing. Ularning qaysi bo'lakka bog'lanayotganini ayting.

1. Odamlarga achchiq va dag'al so'zlamagin, dag'allik misli olov, kuydirguvchi yo'lqindir. 2. Sokin, og'ir, vazmin va muloyim bo'l, faqat yaxshilik qilgin. 3. Tilingdan yolg'on chiqarma, bu yolg'on qadringni tushiradi. 4. Qarindoshlarga, yaqinlarga yaqinlik bog'la, katta va kichikka ochiq chehra bilan kulib boq. 5. Non-tuzingni keng tut, odamlarga yedir. 6. Bilimlining so'zi yerga suv kabi zarurdir, suv oqib tursa, yerda turli ne'matlar unadi. 7. Donolar suvga serob yerga o'xshaydilar, qayeriga oyoq bo-silsa, suv chiqadi.

*Yusuf Xos Hojib hikmatlaridan*



#### Bilib oling

Bitta shakllangan kesimga ega bo'lgan gap sodda gapdir. Sodda gapda to'liq shakllangan kesim bitta bo'ladi. Ega va hol to'g'ridan to'g'ri kesimga bog'lanadi. Aniqlovchi ot bilan ifodalangan har qanday bo'lakka bog'lanaveradi. To'ldiruvchi esa fe'l bilan ifodalangan bo'laklarga bog'lanadi.

**87-mashq.** «Fazilatlar gultoji» mavzusida 5 gapdan iborat ikkita matn yarating. Birinchi matn faqat ega, kesim va holli gaplardan tashkil topsin. Keyingi matnda bu bo'laklarni to'ldiruvchi va aniqlovchilar bilan kengaytiring.



#### Savol va topshiriqlar

1. Sodda gap deb nimaga aytiladi?
2. Gap bo'laklarini sanang.
3. Qaysi bo'lak to'g'ridan to'g'ri kesimga bog'lanadi?
4. Aniqlovchi va to'ldiruvchi qaysi bo'laklarga bog'lanadi?



#### Uyga vazifa

**56-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qing. Gap bo'laklarini aniqlab, tagiga chizing.

## OVCHI VA KAKLIK

Bir ovchi kaklik tutib olibdi. Uni o'ldirmoqchi bo'lgan ekan, kaklik: «Meni ozodlikka qo'yib yubor, – deb yalinibdi. – Agar meni tirik qoldirsang, evaziga to'ringga juda ko'p kakliklarni ilintirib beraman», – debdi. Ovchi kaklikni qo'yib yuborishga moyil bo'lib turgan ekan, ammo uning gapini eshitgach g'azablanib shartta o'ldiribdi.

**57-topshiriq.** Ovchining kaklikni o'ldirganligi sababini toping.

**58-topshiriq.** Quyida berilgan izohlardan ushbu so'zlarning ma'nosini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling: *evaz, kaklik, moyil bo'lmoq, xushomadgo'ylik, xiyonat qilmoq, o'zini chetga olmoq*: 1) o'zidan zo'rga soxta mulozamat ko'rsatmoq; 2) va'dasida turmaslik; 3) aralashishni istamaslik; 4) o'rniga, badaliga; 5) «kak-kak» ovoz chiqarib sayraydigan tog' sayroqi qushi; 6) yon bosmoq, rozi bo'lmoq.

### 36-dars

## MUMTOZ MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH

**88-mashq.** Matnni diqqat bilan o'qing. Unga mos mavzu tanlang.

**Afv** deb kechurmakni aytilur. Bir kishi qilgan kamchiliklarini bo'yniga olub, o'kunub, kechurmakni so'rasa, afv qilmak lozimdur. Chunki afv yaxshi **xulqlarning afzali**, insoniyatning **fazilatidir**. Janobi Haq «Qur'oni Karim»da afvni maqtab **madh qilmishdur**. Oliyjanob kishilar uzrni qabul qilur. Bir kishi qusur va **qabohatini** bo'yniga olub uzr aytsa, afv qilur, kechirur. Kattalik va ulug'likning lazzati birovdan o'ch olmakda emas, balki afv qilmakdadur.

Masalan, Ahmad Mahmudga bir yomon ish qilub dilini og'ritdi. Mahmud Ahmaddan o'chini oldi. Bas, Ahmad ila Mahmudning orasidagi yomonlikdagi farq na o'ldi? Holbuki, har ikkisi ham bir-biriga yomonlik qildi. Har ikkisi ham g'amlik va **parishon bo'ldi**. Bir yomonlik ikki bo'ldi. Agarda Ahmadning qabohatiga Mahmud afv mukofotini bersa, ikkisi ham shod-u **masrur** o'lur hamda Janobi Haq afv qiluvchilarni suyar. O'zi ham afv, **mag'firat** qiluvchidir. No'shiravon: «Bir gunohkorni afv qilmakdan qanday lazzat olganimni hech kimga aytmayman», – demish.

*Abdulla Avloniy, «Turkiy guliston yoxud axloq»*

**89-mashq.** Matndan olgan xulosangizni 2–3 jumlada ifodalang.

**59-topshiriq.** Quyidagi soʻzlardan matndagi ajratilgan soʻzlarning maʼnodoshlarini aniqlang: *yaxshi, maqtamoq, xafa, xushnud, kechirmoq, yomonlik, magʻrur.*



### Savol va topshiriqlar

1. *Afv nima?*
2. *Inson koʻngil xotirjamligi uchun afv afzalmi yoki oʻch olmoqmi?*
3. *Gunohkor va kechiruvchining ikkalasi ham qaysi holatda xursand boʻlishi mumkin?*
4. *Noʻshiravon afv qilmaq haqida nima degan?*
5. *Yana qanday goʻzal fazilatlarini bilasiz?*

**60-topshiriq.** *Afv, xulq, afzal, madh qilmoq, uzr, qusur, masrur* soʻzlaridan tavsiya etiladigan soʻzlar asosida maʼnodoshlik qatori hosil qiling: *axloq, tarbiya, odob, adab, xulq, xulq-atvor, yurish-turish, yaxshi, durust, tuzuk, maqtamoq, olqishlamoq, koʻkka koʻtarmoq, taʼrif-tavsif qilmoq, kechirim, maʼzur, nuqson, kamchilik, xato, yetishmovchilik, mast, shodon, xursand.*

## 37-dars

### KESIM. FEʼL KESIM VA OT KESIM



#### Bilib oling

Kesim ifodalanishiga koʻra feʼl kesim va ot kesimga ajraladi. Feʼl kesim sof feʼl va baʼzan ravishdosh bilan ifodalanadi: 1. *Hasad bilan gʻazab ikki qanot boʻlib harakatga kelsa, toza va chiroyli hayotlarni xira va kuduratli qilib yuboradi.* (Abu Rayhon Beruniy) 2. *Ishning boshi — boshlanguncha.*



**Eslatma:** *-guncha* qoʻshimchasini olgan ravishdosh-gina kesim boʻlib kelishi mumkin.

Feʼldan boshqa soʻz turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlid soʻz) bilan, shuningdek, feʼlning harakat nomi shakli bilan ifodalangan kesim ot kesim deyiladi:

- 1) ot bilan: *Axloqi zamimalarning eng zararlighi hasaddur.* (A. Avloniy);
- 2) sifat bilan: *Usti yaltiroq, ichi qaltiroq.* (Maqol);
- 3) son bilan: *Ikki oʻn besh — bir oʻttiz.* (Maqol);
- 4) olmosh bilan: *Oʻzim har joydaman, koʻnglim sandadur.* (Qoʻshiq);

- 5) ravish bilan: Savobning eshigi **ko‘p**. (*Maqol*);  
 6) modal so‘z bilan: So‘zdan so‘zning farqi **bor**, o‘ttiz ikki narxi bor. (*Maqol*);  
 7) harakat nomi bilan: *Burchimiz – a’lo o‘qish*;  
 8) sifatdosh bilan: *Yigit kishining uyalgani – o‘lgani; eman daraxtining egilgani – singani*. (*Maqol*);  
 9) taqlid so‘z bilan: *Ko‘chada odam g‘ij-g‘ij*;  
 10) undov so‘z bilan: *Endi uning holiga voy*.  
 Fe’l kesim ish-harakatni, ot kesim predmetning turi yoki belgisini ifodalaydi.

**90-mashq.** Gaplarning kesim bilan bog‘liq umumiy belgisini topib, shu belgi asosida yangi gaplar tuzing:

1. Olov o‘tinni kuydirib kul qilgani kabi, hasad savob amallarni yeb tugatadi. (*Hadis*)
2. Hasad etgan kishi dun-u dag‘aldur, bu so‘z xalq aro eski masaldur. (*So‘fi Olloyor*)
3. Aql ojizlansa, hasad kuchga kiradi. (*T.Malik*)
4. Odam hamisha yashiradigan, yashirishga urinadigan illat hasaddir. (*T.Malik*)

**91-mashq.** «Niyating – yo‘ldoshing» mavzusida matn yarating. Matnda fe’l kesimli va ot kesimli gaplar navbat bilan almashib kelishiga erishing.



**Uyga vazifa**

**61-topshiriq.** Berilgan so‘zlardan *barno, davlatmand, erinchak, mag‘lub, surbet, hayoli, himoya, mudofaa, huzur-halovat* so‘zlarining antonimlarini aniqlang: *mehnatkash, g‘olib, andishali, uyatsiz, chorasizlik, hujum, azob-uqubut, xunuk, kambag‘al*.

## 38-dars

### MATN VA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH

**62-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o‘qib chiqing. Undagi asosiy fikr ifodalangan uchta gapni aniqlang.

*Nazmda ham asl anga ma’ni durur,  
 Bo‘lsun aning surati har ne durur.  
 Nazmki ma’ni anga **marg‘ub** emas,  
 Ahli **maoniy** qoshida xo‘b emas.  
 Nazmki ham surat erur xush anga,  
**Zimnida** ma’ni dog‘i dilkash anga.*

*Yo Rab, ani xalq dilafro'zi et,  
Xasta Navoiyg'a dog'i ro'zi et.*

**63-topshiriq.** Berilgan mavzulardan matn uchun mosini tanlang: «Surat va ma'ni», «Zohir va botin», «So'zchi holin boqma...».

**64-topshiriq.** Matndagi ajratilgan so'zlarning ma'nodoshlari qatorini davom ettiring.



**Uyga vazifa**

**92-mashq.** «Suratga emas, siyratga boq» mavzusidagi «Eng ravon nutq» bahsiga tayyorlaning va unda ishtirok eting.

**65-topshiriq.** *jo'yali, kerik, siyrat, javraqi, mag'rib, notob* so'zlarining ma'nolarini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling: 1) orasi ochilgan; teshiklari katta; 2) yoqimsiz gaplarni ko'p gapiradigan; 3) tobi qochgan, kasallangan; 4) kunbotish tomon, g'arb; 5) o'rinli, muvofiq; 6) odamning ichki olami, ruhiy dunyosi.

## 39-dars

### SODDA KESIM VA MURAKKAB KESIM

**66-topshiriq.** Gaplarni ko'chiring. Kesimlarini aniqlab, ikki guruhga ajrating:

- 1) bir so'z bilan ifodalangan kesimlar;
- 2) birdan ortiq so'zdan iborat kesimlar.

1. Haqiqat shunchalar achchiqki, odatda, ziravor sifatida xizmat qiladi. (*Vladislav Gjechik*) 2. Yolg'on yondirar, haqiqat qondirar. (*Maqol*) 3. Rostlik — do'stlik, yolg'onchilik — ko'rgulik. (*Maqol*) 4. Yolg'on, ko'pincha, ikkiyuzlamachilikdan emas, befarqlikdan kelib chiqadi. (*Andre Morua*) 5. Ishda to'g'rilik birovning nafsiga, moliga xiyonat qilmaslik, so'zda to'g'rilik har vaqt rost so'zlamaklikdur. (*A.Avloniy*) 6. Haqiqatdan qo'rqqan odam yolg'onning panasiga berkinadi. (*O'.Hoshimov*)



#### Bilib oling


Kesimlar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: sodda kesim va murakkab kesim. Bir so'z bilan ifodalangan kesim **sodda kesimdir**: *Paxta va tilladan yurt bezanadi. Rost gapir.* (*O'.Hoshimov*). **Haqiqat achchiq.**

Birdan ortiq so'zdan iborat kesim murakkab kesim deyiladi: 1. *O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat.* 2. *Sadafdan inju, ilondan zahar hosil bo'ldug'i kabi rostlikdan*

foйда, xiyonatdan zarar **hosil bo'lar**. (A.Avloniy) 3. To'y – bahor kelganda. 4. Hamma gap – **mening yo'qligimda**.

Yordamchi so'zlar (ko'makchi fe'l, bog'lama, nisbiy so'z va b.) ham murakkab kesimni shakllantiradi.

**67-topshiriq.** Ilmiy ma'lumotni quyidagi sxemaga joylashtiring.



**93-mashq.** Berilgan sodda kesimli gaplarni murakkab kesimli, murakkab kesimli gaplarni sodda kesimli gaplarga aylantiring.

1. Rostlik ila xiyonat ikkisi jam kelmas. (A.Avloniy)
2. Rostgo'ylikda xavf-u xatar ko'rsanglar ham, rost so'zlanglar. (Hadisi sharif)
3. Yolg'on uzoqqa ketsa ham, haqiqat quvib yetar. (Maqol)
4. O'zida biroz haqiqati bo'lgan chalkashliklar – eng xavflilari. (Adam Smit)
5. Oxir-oqibat yolg'on nima o'zi? – Niqoblangan haqiqat. (Gordon Bayron)



#### Savol va topshiriqlar

1. Kesim tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
2. Sodda kesim nima?
3. Murakkab kesim deb nimaga aytiladi?
4. Sodda va murakkab kesimni shakllantiruvchi vositalarni sanang.



#### Uyga vazifa

**94-mashq.** «Haqiqatning chirog'i» sarlavhasiga mos maqol va matallardan topib, ularning qo'llanish o'rinlari haqida matn yarating.

**68-topshiriq.** «Qush nomlari» mavzusidagi «Kim topqir?» bahsig a tayyorlaning.

## 40-dars

### BOG'LAMALAR

**95-mashq.** 1. Berilgan gaplarni ikki guruhga ajrating:

- 1) murakkab kesimli gaplar;
- 2) sodda kesimli gaplar.

1. Yuzni yerga qaratish bundan ortiq bo'ladimi? (*O'.Hoshimov*) 2. Uning esiga haligi mish-mishlar tushib, yuragi bigiz sanchganday og'ridi. 3. Yurtimizda alanga porlar, sevmoq uchun, sevilmoq uchun. (*Qo'shiqdan*) 4. Kumush Otabek nomini eshitgach, sekingina ko'tarilib qo'ydi. (*A.Qodiriy*) 5. Erkalatgach onasi, taltayadi bolasi. (*Maqol*) 6. Biroq, arava yaqinroq kelganda poxol shlyapasini bostirib olgan semiz odamni ilg'adim-u, hammasini angladim. (*O'.Hoshimov*) 7. Otasi kelavermagach, bolalarning dod-voyi eshitila boshladi. 8. Sevmoq uyat emasdir, har kimda bor bu savdo... (*Maqol*) 9. Chekishning zarari haqida qancha gapirilmasin, bu dahshatli og'uga qarshi kurash sust ketmoqda. (*Gazetadan*) 10. Ming yillarkim bulbul kalomi o'zgarmaydi – yaxlit hamisha. (*A. Oripov*)

### **Bilib oling**

Ot kesim tarkibida kelib, uni ega bilan bog'lovchi so'z **bog'lama** deyiladi; *edi, ekan, emish, bo'lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq, kerak, zarur, darkor, lozim* kabi so'zlar bog'lama vazifasida qo'llanadi.

**96-mashq.** Qatorning bog'lama bilan bog'liq umumiy xususiyatini aniqlab, «ortiqcha» uchinchi gaplarni toping:

**I.** 1. Istamay mutolaa qilayotgan talaba – qanotsiz qush. (*Sa'diy Sheroziy*) 2. Bilimsiz kishilarning ko'ngli **xurofotga** moyil bo'ladi. (*Abu Rayhon Beruniy*) 3. Bilim daraxtdir, amal esa uning mevasi... (*Husayn Voiz Koshifiy*)

**II.** 1. Tiriklik – ilm bilan, rohat ma'rifatda bo'lur. 2. Lazzat – Xudoning zikrida. (*Abu Yazid Bastomiy*) 3. Podshohlar odamlarga hokim bo'lsalar, olimlar podshohlar ustidan hokimdir. (*Abul Asvad*)

**III.** 1. Ilm insoniyat **gavharidir**. (*Mirzo Bedil*) 2. Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur. (*A.Navoiy*) 3. Ilm **sarvat** (boylik)dan ustundir. (*Ali ibn Abu Tolib*)

### **Savol va topshiriqlar**

1. Bog'lama deb nimaga aytiladi?
2. Murakkab kesimni shakllantiruvchi vositalarni sanang.
3. Qaysi bog'lamalar o'zi shakllantirayotgan kesimga qo'shib yoziladi?





### Uyga vazifa

**69-topshiriq.** Gaplardagi mantiqiy (noto‘g‘ri qo‘llangan) va uslubiy (noo‘rin qo‘llangan) xatoliklarni toping hamda tuzatib ko‘chiring.

**Namuna:** *Bejizga bu yerga kelmagan – Bejiz bu yerga kelmagan.*

1. Olib kelingan kitoblarni o‘n beshtadan ko‘proq edi.
2. Bir masalada ikkalasi talashib qolishdi.
3. Bog‘imizdagi keksa nokni kesishga majbur bo‘ldik.
4. Qoidani buzish ta‘qib qilinadi.

**70-topshiriq.** Imlo lug‘atidan holvafurush, huvullamoq, irigatsiya, ta‘magir, memor so‘zlarini tekshiring va xatolari bo‘lsa, tuzatib, lug‘at daftaringizga ko‘chiring.

**Namuna:** *poyafzal – poyabzal.*

## 41-dars

### MATN VA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH

**71-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o‘qing. Talaffuzi va yozilishi bugungi me‘yordan farqlanuvchi so‘z va qo‘shimchalarni belgilang.

### SO‘Z CHAMANIDA ZAMONA VA TAVORIX

Darbozasi sharqi janubiyga qaratib qurilgan bu dongdor **saroy**ni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to‘la. **Saroy** ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo‘shab hujralariga qaytqanlar, ko‘b **hujralar** kechlik osh pishirish ila mashg‘ul, shuning uchun kunduzgiga qarag‘anda **saroy jonliq**: kishilarning shaqillashib so‘zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyni ko‘kka ko‘targudek. Saroyning to‘rida boshqalarga qarag‘anda ko‘rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to‘shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo‘z ko‘rpalar ko‘rilgan bo‘lsa, munda ipak va adras ko‘rpalar, narigilarda qora **charog‘** sasig‘anda, bu hujrada sham yonadir, o‘zga hujralarda yengil tabiatlik, serchaqchaq kishilar bo‘lg‘anida, bu hujraning egasi – boshqacha yaratilishda.

... Otasining **valine‘mati** bo‘lg‘an bir **bekning** zulmini iqror etish haqiqatan ham taajjubka loyiq edi. Azizbekning Turkiston xonlig‘ining eng zolim va mustabid sanalg‘an **beklarining** biri va uning o‘z qaramog‘ida bo‘lg‘an Toshkand aholisiga qilg‘an zulmlari Farg‘onaga doston, ammo Akram hojining bu savoli Azizbekning eng yaqini bo‘lg‘an

bir kishining o'g'lini sinab ko'rishlik uchun edi. Bu sinash natijasi Akram hojining taajjubini orttirdi va buning sirrini bilishka qiziqsindi...

Hasanalining sinashi nihoyatiga yetkandek bo'ldi, hatto yuqoridag'i javobni eshitkan vaqtida nima uchundir o'zini bir turlik kulgidan arang to'xtatib qolg'an edi. Yana o'rtada xomushlik hukm surib, Hasanali ishni tuzikroq ochish va yo shu ko'yi qoldirib ketaberish talashida edi. Hasanali bekning har bir siriga o'zini mahkam deb hisoblag'anliqdan darhaqiqat, Otabekka **mahram** bo'lishg'a loyiq bir mehribonchiliqqa ega bo'lg'anliqdan xo'jazodasi bilan ochiq so'zlashish fikriga keldi. Bir necha daqiqa muqaddima uchun reja qurib o'lturgandan so'ng tilga keldi.

... Bu kunlarda Marg'ilonda shunday xabar chiqib qoldi. «Toshkand hokimi bo'lg'an Azizbek Qo'qong'a qarshi bosh ko'targan. Xon tomonidan xiroj (zakot, soliq) uchun yuborilg'an devon beklarini o'ldirgan!» Ikkinchi kun bu xabar tag'i ham boshqacha to'n kiydi: «Musulmonqul Normuhammad qushbegiga besh ming sipoh qo'shib, Toshkand ustiga jo'natqan!»

... Xalq: «Kerak, albatta, kerak, taqsir! Agar ruxsat bersangiz, bu kundan boshlab **qo'rg'on**larni tuzata beramiz!»

**97-mashq.** Matndagi ajratilgan so'zlarni uch guruhga ajrating va izohlang. Ma'no torayishi va kengayishi hodisasini guruhdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

- 1) ma'nosi kengaygan so'zlar;
- 2) ma'nosi toraygan so'zlar;
- 3) yangi ma'no kasb etgan so'zlar.



#### Uyga vazifa

**72-topshiriq.** Berilgan izohlardan *dongdor, hujra, kigiz, valine'mat, mustabid, mahram, xo'jazoda, muqaddima, xiroj, devon, zakot, qushbegi so'zlarining ma'nolarini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling:* 1) shuhrat qozongan, dovrug'i ketgan; 2) madrasa, qorixona va masjidida shogirdlar, domlalar yashashi uchun ajratilgan kichik xona(lar); odam yashaydigan kichik xona; 3) jundan bosib (presslab) tayyorlanadigan qalin, pishiq palos, namat; 4) o'ziga qaram kishilarni moddiy jihatdan ta'minlab turuvchi, ularga ne'mat beruvchi shaxs; 5) mutlaq hukmronlikka ega bo'lgan hokim, istibdod egasi; 6) ishonchli xizmatkor, do'st; 7) xo'jayinning o'g'li; asilzoda kishining farzandi; 8) bir ish, narsa, matnning boshi; 9) tashkilotning yozishmalar amalga oshiriladigan bo'limi; 10) diniy soliq; 11) o'tmishda hukumat boshlig'i.

## 42-dars

### KESIMNING BIRIKMA VA IBORA BILAN IFODALANISHI

**98-mashq.** Gaplardagi ajratilgan kesimlarni ikki guruhga ajratib ko'chiring:

- 1) so'z birikmasi bilan ifodalangan kesimlar: ...
- 2) ibora bilan ifodalangan kesimlar: ...

1. Botirjon, sal **mazam qochdi**. **Boshim aylanib, ko'zim tinyapti**. (*S.Ahmad*) 2. Og'irchilikda sabr qilish – **eng ulug'ne'mat**. (*Muhammad Zehniy*) 3. Rangi quv **o'chib**, yupqa lablari **titrab, ko'zlarining paxtasi chiqib ketdi**. (*H.Nazir*) 4. Sabr shunday kuchli bir **narsadirki**, g'azabni shijoatga, shiddatni halimlikka, kattalikni tavoze'ga, yomonlikni yaxshilikka aylantirmaklikka quvvati **yetar**. (*Abdulla Avloniy*)



#### Bilib oling

Kengaygan birikma va ibora yaxlit holda bitta gap bo'lagi bo'lib keladi va o'z ichida boshqa bo'laklarga ajratilmaydi. Shuning uchun ular murakkab kesim hisoblanadi: 1. *Dadam qo'li ochiq edilar.* 2. *Ular besh kishidan iborat edi.*

**99-mashq.** Quyida matndagi gaplarning faqat kesimlari berilgan. Nuqtalar o'rniga tegishli gap bo'laklarini qo'yib, yaxlit mazmunli matn yarating.

...lozim. ...o'xshaydi. ...sodir bo'ladi. ...qiyinlik qiladi.

**73-topshiriq.** Lug'atdan «bosh» so'zi ishtirok etgan iboralarga 10 ta misol topib, lug'at daftaringizga ko'chirib yozing.

## 43-dars

### OG'ZAKI NUTQ MAHORATI BO'YICHA NAZORAT ISHI

**74-topshiriq.** Mavzulardan birini og'zaki nutq tanlovi uchun tanlang:

1. «Qanoat halovati».
2. «Nafsning asorati».
3. «Borma aytmaganning dasturxoniga...».
4. «Har sabrning oxiri zafar...».

**100-mashq.** Mavzuga reja tuzib, matn tayyorlang. So'zlarni tanlashda ma'nodosh va uyadosh so'zlar lug'atidan foydalanishingiz mumkin.

**101-mashq.** Tayyorlagan matningiz bilan dars jarayonida tashkil etilgan «Eng chiroyli va ta'sirchan nutq» tanlovida qatnashing.

**75-topshiriq.** Guruhdoshingiz o'qiyotgan matnni diqqat bilan tinglang. Talaffuzga oid hamda uslubiy xatosi bo'lsa, daftaringizga qayd qiling. Matn o'qib eshittirilgach o'z fikringizni bayon qiling.

**76-topshiriq.** Ko'rsatilgan xatolaringizni yozib oling va ular ustida ishleng.



**Uyga vazifa**

**102-mashq.** Tayyorlagan matningizda uchragan uslubiy g'aliz fikrlarni qayta o'ylab ko'ring. Fikringizni boshqacha ifoda bilan mashq daftaringizga yozing.

## 44–45-darslar

### NAZORAT ISHI VA TAHLILI

**103-mashq.** Og'zaki nutq xatoliklari ustida ishlash. Oldingi darsda aniqlangan xatolarni tuzatish yo'llari haqida axborot bering.

**77-topshiriq.** Xatolaringizni quyidagi turlarga ajrating hamda to'g'ri variantini eslab qoling:

- 1) talaffuzga doir xato;
- 2) shevaga xos xato;
- 3) uslubiy (so'z qo'llash bilan bog'liq) xato.

**78-topshiriq.** Uch guruhga bo'ling. Bir guruhda orfoepik xato, ikkinchi guruhda dialektal xato, uchinchi guruhda uslubiy xatolar ro'yxatini tuzing. Xatoning yechimini toping va taqdimot o'tkazishga tayyorlaning.



**Savol va topshiriqlar**

1. Tejamkorlik deganda nimani tushunasiz?
2. Nega xalqimiz isrofgarchilikni qoralaydi?
3. Ishbilarmon kishi shulardan qay biriga amal qilgani uchun shu darajaga yetgan?
4. Ehtiyoj va isrof chegarasini ko'rsating. Fikringizni misol bilan dalillang.



**Uyga vazifa**

**79-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qing. Undagi asosiy fikrni yozma bayon qiling.

## MIQYOSI NAFS

**Miqyosi nafs** deb qiladurgan amallarimizni, ishlarimizni shariat, insoniyat qonuniga muvofiq o'lub, o'lmaydig'ini vijdonimiz ila o'lchab ko'rmakni aytilur.

Nafs o'lhovi haqiqiy bir o'lchovdurki, insonning o'z nafsig'a loyiq ko'rmagan muomalani boshqalar haqida ijro etmoqg'a qo'ymas, fikr egalari, insof sohiblari har vaqt nafs o'lchovidan tashqari harakat qilmas.

Agarda bir sabab ila shariat hukmidan, insoniyat qonunidan chet ketsa, bu **qabohatini** nafs o'lhovi ila bilub, ikkinchi martaba qilmasga **qasd** va niyat qilub, shariat nizomidan, insoniyat chizig'idan chiqmaslikg'a **sa'y** va g'ayrat qilur.

Alhosil, nafs o'lhovi ta'rifdan tashqari insonlar uchun eng foydali, har kimcha **maqbul** buyuk bir fazilatdur.

Buyuk Iskandar: «Dunyoda eng haqiqiy, to'g'ri o'lchov nafs o'lchovidurki, bu mezonda zarra **nuqson** yo'qdur», – demish.

Ibn Sino hakim: «Insonning **fazl-u kamolining** o'lhovi nafsning o'lhovi ila o'lchanur», – demish.

*Dunyoda har narsaning maxsus o'lhovi bo'lar,*

*Banda **af'olini** vijdoni ila tortib ko'rar.*

*Bir ishiga vaznda kelsa og'ir o'z nafsig'a,*

*Ul ishing qandog' bo'laklarga ravo, loyiq ko'rar.*

*Abdulla Avloniy, «Turkiy guliston yoxud axloq»*

**80-topshiriq.** Berilgan izohlardan matndagi ajratilgan so'zlarning ma'nosini aniqlang. Lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling: 1) ahd, kirishmoq; 2) astoydil urinish; 3) me'yor darajasidan pastlik; yetishmovchilik; 4) qabul qilingan, e'tirof etilgan; 5) fazilatlar buyukligi; 6) fe'l-atvor, xarakter; 7) chegara, me'yor.

## 46-dars

### OT KESIM VA EGA ORASIDA TIRENING ISHLATILISHI

**104-mashq.** Gaplarning kesimi qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini aniqlang.


1. Inson chehrasi hamisha uning ichki olamini aks ettiradi, shu sababli fikr yuzda aks etmaydi, deb o'ylash xatodir. (*V.Gyugo*) 2. Inson chehrasi uning tiliga nisbatan ko'p va qiziqroq narsalarni aytib berishi mumkin: til faqat inson fikrlarini bayon etsa, chehra fikr mohiyatini ko'r-

satadi. (*A. Shopengauer*) 3. Go‘zallik – haqiqiy baxt-saodat va rosmana qahramonlik, u balandparvoz so‘zlarga muhtoj emas. (*V.Raabe*) 4. Go‘zal chehra o‘z nomi bilan go‘zal. (*F.Bekon*) 5. Chehrasi ochiq kishining qalbi ham ochiq. (*F.Shiller*)


### **Bilib oling**

Quyidagi hollarda ot kesim va ega orasida tire qo‘yiladi:

1. Ot kesim kesimlik qo‘shimchasisiz yoki bog‘lamasiz qo‘llanganda: *Tinchlik – farovon hayot manbayi. Mening aytadigan gapim – shu. Uch karra uch – to‘qqiz. Maqsadimiz – o‘qish.*

 **Eslatma.** 1. Ot kesim sifat, ravish va tartib son bilan ifodalanganda tire qo‘llanmaydi: 1. *Vatanimiz go‘zal.* 2. *Ko‘rmagan yerning chuquri ko‘p.* 3. *Bizning sinfimiz sakkizinchi.*

2. Ega ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalanganda: *Bu – siz uchun katta sinov.*

 **Eslatma.** Agar ega bilan ot kesim orasida **ham** yordamchisi bo‘lsa, tire qo‘llanmaydi: *Bular ham a‘lochi. Mening opam ham talaba. Sharifa ham to‘quvchi.*

**105-mashq.** Tushirib qoldirilgan tirelarni qo‘ying. Tire qo‘llanmaydigan qaysi gap «ortiqcha»?

**I.** 1. Kiyinishda oliftalikdan qochib, yoqimtoy bo‘lishga harakat qiling: odob ko‘rkamlik, isrofgarchilik esa oliftalik belgisi. (*Suqrot*) 2. Madaniyat bilan tashqi jilo butunlay boshqa-boshqa narsa. (*R.Emerson*) 3. Saxovat go‘zallikdan ko‘ra afzalroq. (*G.Geyne*)

**II.** 1. Maftunkorlik yashnab turgan go‘zallik. (*G.Lessing*) 2. Go‘zallik bu erkin qalb va mustahkam sog‘liq samarasi. (*L.Shefer*) 3. Ma‘no yo‘q joyda go‘zallik bo‘lishi mumkin emas. (*E.Bule*)

**III.** 1. Samimiylik ham xuddi husn va aql kabi ehson. (*V.I. Kachalov*) 2. Ko‘p so‘zlash donolik belgisi emas. («*Qutadg‘u bilig*»dan) 3. Go‘zallik butun olamni qalbgga olib kiradigan kuch va iste‘dodga ega. (*M.Servantes*)

### **Savol va topshiriqlar**

1. Sodda gaplarda ega va ot kesim orasida nega tire qo‘yiladi?

2. *Ot kesim kesimlik ko'rsatkichisiz yoki bog'lamasiz, qo'llanganda yozuvda tire qo'yilishiga misollar ayting. Qaysi holda tire qo'yilmaydi?*
3. *Ega yoki kesim harakat nomi bilan ifodalanganda yozuvda tire qo'yilishiga misollar keltiring.*
4. *Ot kesim va ega orasida ham yordamchisi bo'lsa, tire qo'yish kerakmi?*



### Uyga vazifa

**106-mashq.** «Jismoniy va ma'naviy go'zallik» mavzusida 10–12 ta gapdan iborat matn yarating. Ular sirasida tire qo'llanadigan va qo'llanmaydigan ot kesimli 4 ta gap ishtirok etsin.

**107-mashq.** Berilgan variantlardan tire so'zining qanday talaffuz qilinishini aniqlang va talaffuzini mashq qiling: *tere, tire, teri, tiri.*

## 47-dars

### EGA

**81-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qing.

Dunyo ne'matlariga ahamiyat bermaydigan, o'zini juda kamtar tutadigan buyuk islom olimlaridan biri faqat bir kishi o'tishi mumkin bo'lgan tor yo'lakda shaharning o'ziga bino qo'ygan katta boylaridan biri bilan to'qnash ke-libdi.

Qorni kajavaday keladigan boy:

– Men bir devonaga yo'l berib chetga chiqmayman! – deb pishqiribdi. Haligi olim kishi yo'l berar ekan, g'oyat sokin ohangda debdi:

– Men esa yo'l beraman!

**82-topshiriq.** Matnning umumiy mazmunini ifodalovchi mavzuni tanlang:

1. «Uddaburonning oshig'i olchi».
2. «Murosa ham kerak».
3. «Aqlli odam olishuvga shoshilmaydi».
4. «Ko'ngli ochiqning yo'li ochiq».

**108-mashq.** Gaplarni ko'chiring. Kesimlarni aniqlab, ular oldiga *kim, nima, qayer* so'roqlarini qo'yib o'qing. Bu so'roqqa javob bo'lgan so'zlarning tagiga bir chiziq chizing.

1. To'rt narsa: badfe'llik, badqovoqlik, takabburlik va dilozorlik kishiga xor-u zorlik keltiradi. (*Ja'fari Sodiq*)
2. Takabburlik kaltabinlar va insoniylik tariqidan chiqqan-larning xislatidir. (*Husayn Voiz Koshifiy*)
3. Kibrsizlik lofin

urma, uni ko'rmogdan ko'ra qorong'u tunda chumolining izini ko'rmog osonroqdir. (*Abdurahmon Jomiy*) 4. Ojizlikdan kelib chiqadigan kamtarlik fazilat emas. (*Abay*) 5. Kamtarlikni tahqirlatish darajasiga tushirib yuborishdan asranmog kerak. (*A.Boqixonov*) 6. Osmonga tupurgan kishining tupugi yuziga tushadi. (*Mahmud Koshg'ariy*)

### **Bilib oling**

Gap kesimidan anglashilib turgan harakatning bajaruvchisini, belgining sohibini bildirgan bo'lak **egadir**. Ega, asosan, *kim, nima, qayer* so'roqlariga javob bo'ladi.

Ega doimo bosh kelishik shaklida bo'ladi.

Ega quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Ot bilan: *Milt-milt yonib turgan **chiroq** birozdan so'ng o'chdi.*

2. Olmosh bilan: ***Sen** o'zingni maqtama, seni birov maqtasin.* (*Maqol*)

3. Son bilan: ***Ikkalasi** ham chiqib ketishdi.*

4. Sifatdosh bilan: ***O'qigan** o'qdan o'zar, **o'qimagan** turkidan shoshar.* (*Maqol*)

5. Sifat bilan: ***Yaxshilar** ko'paysin, **yomon** qolmasin.* (*Qo'shiqdan*)

6. Harakat nomi bilan: ***O'qish** jafoli, oqibati vafoli.* (*Maqol*)

7. Taqlid so'z bilan: ***Qars** ikki qo'ldan chiqadi.* (*Maqol*)

**83-topshiriq.** Kesimdan savol berish orqali gaplarning egasini aniqlang.

1. Ilm hayo bilan kibr orasida yo'q bo'lib ketadi. (*Abu Homid G'azzoliy*) 2. Kamtar kerilmaydi, mol-dunyoga berilmaydi. (*Maqol*) 3. Maqtanchoq – quruq po'choq. (*Maqol*) 4. Yolg'onchilik, ezmalik, takabburlik, chaqimchilik izzat-obro'ni barbod qiladi. (*Junayd Bag'dodiy*) 5. Buzuq devorlardan tashvish bor, lekin siniq ko'ngillardan ko'proqdir tashvish. (*Pahlavon Mahmud*) 6. Kishilarga ulardan avvalroq salom berishga shoshil, bu ulug' kishilarning fazilatlaridan, kamtarlik nishonalaridan biridir. (*Muhammad Husayn*)

### **Savol va topshiriqlar**

1. Egaga ta'rif bering.

2. Ega qaysi kelishik shaklida bo'ladi?

3. Gap egasi qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanadi? Misollar keltiring.





### Uyga vazifa

**84-topshiriq.** «Kamtarinlik» sarlavhasiga mos maqol va matallardan topib, ularning qoʻllanish oʻrinlari haqida matn yarating. Maqollarda eganing qoʻllanishini kuzating.

**85-topshiriq.** Xalq maqollari boʻyicha «Nutqimiz koʻrki» mavzusidagi «Kim topqir?» bahsiga tayyorlaning.

## 48-dars

### EGALI VA EGASIZ GAP

**86-topshiriq.** Matnni diqqat bilan oʻqing.

#### Uch buyuk tabib

Bir tabib qattiq kasal boʻlib yotib qoldi. Uning shogirdlari yigʻilib ustodlarini davolashga kirishdilar. Kasal ustod ularga:

– Sevimli shogirdlarim, meni davolash uchun behuda zahmat chekmang, tuzalishdan umid uzganman, oʻlimim yaqin qolganga oʻxshaydi. Vafot topganimdan keyin juda qaygʻurib oh-voh qilmang, chunki oʻrninga uchta buyuk tabib qoldirib ketaman. Shu zoʻr uch tabibning maslahatlariga hammangiz eʼtibor bering va boshqalarni ham shunga daʼvat qiling, – dedi. Shogirdlardan biri:

– Bizlarning aziz ustodimiz, sizdan keyin oʻrningizda qoladigan uchta tabib kimlar? – deb soʻradi. Ustod koʻzlarini ochdi, yonidagi shogirdlariga shunday javob berdi:

– Sizlarga soʻzlaganim uchta zoʻr tabibning birinchisi – poklik, ikkinchisi parhez, uchinchisi badantarbiyadir. Doimo pok, ozoda boʻlishlik, tiqishtirib, apil-tapil yemadan oʻz miqdorida ovqatlanish, ichkilikdan tiyilish, badan aʼzolarini harakatsiz qoldirmasdan badantarbiya bilan shugʻullanish – mana bularning hammasi salomatlikni saqlovchi eng yaxshi choralardir.

*«Ibratli hikoyatlar»*

**87-topshiriq.** Matn mazmuniga muvofiq boʻlgan fikrlarni toping.

1. Doim foyda haqida oʻylash kerak emas.
2. Sogʻ boʻlay desang, parhez qil!
3. Oʻzingni oʻyla, oʻzing haqingda qaygʻur!
4. Salomatlik kalitini top!



## Bilib oling

Gaplar egali va egasiz bo'lishi mumkin. Egasi mavjud gaplar **egali gaplar** (masalan, **Biz** bugun Samarqandga jo'naymiz), egasi mavjud bo'lmagan gaplar esa **egasiz gaplardir** (masalan, Bugun Samarqandga jo'naymiz.)

### Egasiz gaplarning quyidagi turlari mavjud:

**Shaxsi (egasi) ma'lum gapda** ega kesimning shaxs-shakllaridan ma'lum bo'lib turadi. *Qachongacha qorning o'ylab o'tadirsan? Qachongacha ko'kdan chalpak kutadirsan? (I. Mirzo)*

**Shaxsi (egasi) umumlashgan gapda** gapning umumiy mazmuni barcha shaxslarga aloqador bo'ladi: *Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan. (Maqol) Boshingga qilich kelsa ham, to'g'ri gapir. (Maqol)* Maqol va matallar, hikmatli so'zlar, odat tusiga kirgan rasm-rusumlarni bayon etuvchi gaplarda ega, asosan, umumlashgan bo'ladi. *Bugungi ishni ertaga qo'yma.*

**Shaxsi (egasi) noma'lum gapda** kesim fe'l bilan ifodalangani va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi – uning tarkibida egalik qo'shimchasining yo'qligi. Bu gaplar shaxssiz emas, harakatni mantiqan kimdir bajaradi, lekin uni gapda ifodalab bo'lmaydi. *Yig'ilishda ta'lim samaradorligini oshirish haqida gapirildi. Do'stning aybini yuziga aytish kerak. Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi. Bu mavzuni o'qish shart emas. Endi qattiq o'qishga to'g'ri keladi.*

Atov gap va so'z gaplar ham shaxsi noma'lum gaplardir.

**88-topshiriq.** Yuqoridagi ilmiy matn mazmunini jadvalda ifodalang.

**109-mashq.** «O'z-o'zini anglash va burch tuyg'usi» mavzusida matn yarat-ing. Matnda egali va egasiz gaplar navbat bilan almashib kelishiga erishing.



### Savol va topshiriqlar

1. Egali gaplarga misollar keltiring.
2. Qanday gaplar ega ishtirok etmagan gaplar deyiladi?
3. Ega ishtirok etmagan gaplar qanday turlarga bo'linadi?
4. Gapning egasi mavjud yoki mavjud emasligini qanday aniqlash mumkin? Misollar keltiring.



### Uyga vazifa

**110-mashq.** Topishmoqlardan egali va egasiz gaplarga 2 tadan misol topib, daftaringizga ko'chiring.

**89-topshiriq.** Berilgan so'zlarni lug'aviy ma'nosiga ko'ra tasniflang va uyadosh so'zlar guruhining har biriga uya so'zlar toping: *mitti, lo'ppi, avom, issiq, iliq, osuda, farovon, moviy, nofarmon, zarg'aldoq, do'ndiq, qiyshiq, jingalak, yirik, og'ir, vazmin, tor, uzun, shirin, sho'r, nordon, chuchuk, xushbo'y, muattar, qo'lansa, badbo'y, tonggi, kuzgi, ertangi, o'rtancha, to'ng'ich, kenja, muhtoj, mushtoq, alvon...*

## 49-dars

### ATOV GAP

**111-mashq.** 1. Gaplarni o'qing. Ko'z o'ngingizda nimalar gavdalanganligini bayon qiling.

1. – Eh yoshlik, yoshlik! Suvday o'tib ketadi-ya! – Qarilik ham! («*Hikmatli latifalar va nishonga urilgan so'zlar*»)

2. Harakat qilmoq! Harakat qilmoq! Biz shuning uchun mavjudmiz. (*I.Fixte*)

3. Sayl. Hammayoq odamlarga to'lib, g'ala-g'ovur, o'yin-kulgi boshlanib ketdi. (*Mirmuhsin*)

4. Tun. Hammaga qo'rquv solib turuvchi Ixtiyoriddin qal'asi. Baland va xo'mraygan sovuq bu binoda chiroq yo'q, faqat darvozalari, qalin devorlari ustida mash'ala ko'tarib yurgan posbonlargina bor. (*Mirmuhsin*)

5. Cheksiz dasht, yassi tepaliklar... Me'morning mag'rib tomonda, tepaliklar ustida yarqirab turgan yarim oy o'rog'iga ko'zi tushdi. (*Mirmuhsin*)

6. Shavvol, ya'ni saraton avjga mingan, havoning nihoyatda qizigan bir kuni. Tallimarjondan chiqqan uch ara-va Dasht karvonsaroyida andak to'xtadi. (*Mirmuhsin*)



### Bilib oling

**Atov gap** – so'zlovchi ko'z o'ngida biror voqea-hodisani, narsa-buyum yoki davrni gavdalantirishga, xotira yoki xayolida ular bilan aloqador voqea-hodisani tiklashga xizmat qiluvchi vosita.

Atov gap bitta so'zdan iborat bo'lishi ham, aniqlovchi bilan kengayib kelishi ham mumkin: 1. *Bahor.*  
2. *Erta bahor.*

**112-mashq.** Qatorning kesimga bog‘liq umumiy xususiyatini aniqlab, «ortiqcha» uchinchi gaplarni toping.

I. 1. Xazonrezlik payti. Hirot bog‘lariga suv beradigan Hirirud daryosi va Injil anhorining qirg‘oqlariga za‘faron yaproqlar to‘kilgan. (*P. Qodirov*) 2. Ilk bahor kunlarida Humoyun Hindikush tog‘ining janubiy etaklariga yuzdan ortiq chodir tiktirdi. Ularning o‘rtasiga ko‘krakdor bir joyga ulkan saroparda o‘rnatildi. (*P. Qodirov*) 3. To‘qqizinchi asr. Muhammad al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi. (*O‘. Hoshimov*)

II. 1. Erta bahor edi. Dam olish kuni edi. Kech turdim. 2. Ilk muhabbat bahor osmonidagi bulutga o‘xshaydi. Oppoq. Pokiza. Shaffof. 3. Bola edim... Kuz edi... so‘rida dars qilib yotibman. (*O‘. Hoshimov*)



### Savol va topshiriqlar

1. Atov gap nega shunday nomlangan? Atov gap matnda qanday vazifani bajaradi?
2. Atov gap qaysi zamonda keladi?
3. Atov gap necha so‘zdan iborat bo‘ladi?
4. Atov gaplardan qachon foydalanamiz?



### Uyga vazifa

**90-topshiriq.** So‘z yoki qo‘shimcha qo‘llash bilan bog‘liq xatoliklarni toping va tuzatib ko‘chiring.

**Namuna:** *Sher bizdan dastlab hayqirib turdi – Sher bizdan dastlab hayiqib turdi.*

1. 1974-yilning 22-avgusti. Bu kun tramvay haydovchi qiz Munira Shayxuddinova xotirasida umr bo‘yi o‘chmaydi...

2. G‘ariblik, musofirlik yillari... Mashhaddagi yetti-sakkiz yillik hayot – xarob ba‘qalar, sovuq, tor madrasa hujralarida kunduzlari quyoshga chiqib havo olmay, tunlari mijja qoqmay, muttasil kitob ko‘rish...

3. Kechki kuz fasli. Hirotning erinchak qishi hali o‘zini sezdirgan emas.

4. Qiyom chog‘i edi. Yarqiroq, uzun, keng shohi to‘n kiygan va kattagina oppoq sallani bukun, nima uchundir, qunt bilan o‘ragan Sul-tonmurod «Ixlosiya» madrasasidan chiqdi...

5. Mana, to'rt ko'z bilan kutilgan kun... Xalq Astrobodning uzoq-yaqin, katta-kichik yo'llaridan, jin ko'chlaridan oqib, zo'r to'lqinga quyiladiki, bu to'lqinning bir uchi shahar darvozasidan oqib, dalaga yoyilgan.

**91-topshiriq.** Musofir, mijja qoqmay, jin (ko'cha) so'zlarining izohlarini aniqlang va lug'at daftaringizga ko'chiring: 1) safardagi kishi; 2) uyqusiz holda bo'lish; 3) faqat odam yura oladigan tor; 4) boshi berk.

## 50-dars

### SO'Z-GAP

**113-mashq.** Berilgan gaplardagi ajratilgan so'zlarning ma'nolarini aniqlang. Ularni kengaytirib ko'ring.

1. Boy Ibrohim Adhamga bir kosa oltin keltirdi.

- Buni bizdan qabul qilsangiz.
- Men faqirdan mol olmayman.
- Men faqir emishmanmi?!

Ibrohim Adham so'radilar:

– Hozirgi davlatingdan o'n baravar ko'proq davlatga ega bo'lging keladimi?

– Albatta! – dedi boy ko'zlari chaqnab.

– Bu holing faqirlik bo'lmay nima?! Berayotgan nar-sangga mendan ko'ra, o'zing muhtojroqsan!..

*«Hikmatli latifalar va nishonga urilgan so'zlar»*

2. Bir kishi qushga qarab o'q uzgan ekan. O'qi xato ketibdi. Yonida turgan o'rtog'i buni ko'rib:

- Ofarin! – deb yuboribdi.
- Nima, meni kalaka qilyapsanmi? – debdi mergan.
- Yo'q, men «ofarin»ni senga emas, qushga aytdim.

*«Dilkusho hikoyatlar»*

#### **Bilib oling**

Bir so'z «qotib qolgan» birikma shaklida bo'lib, boshqa so'z bilan kengayish imkoniyatiga ega bo'lmagan gap **so'z-gap** deyiladi. So'z-gap tasdiq, inkor, so'roq, taajjub, his-hayajon kabi ma'nolarni ifoda etib, ular matn bilan bog'liq bo'ladi. So'z-gap, asosan, modal va his-hayajon munosabatlarini ifoda etgani uchun ham ko'proq dialogik va ba'zan monologik nutqqa xosdir.

**Masalan:**

- *Endi so‘zingizdan aynamang, xo‘pmi?*
- **Mayli**, – *dedi Fazliddin. (O.)*
- **Yo‘q**, – *dedi Otabek, lekin uning taajjubi uy egasiga ochiq ko‘rinib turar edi. (A.Qod.)*

*Yo‘lchi eshikchani ochib kirdi:*

- **Assalomu alaykum**, *hormang, ota! (O.)*

Kishilar orasidagi oddiy muomalada tez-tez ishlatib turiladigan so‘z yoki ibora so‘z-gap vazifasida qo‘llanadigan bo‘lib qolgan: *assalomu alaykum*, *yoqimli ishtaha*, *marhamat*, *salomat bo‘ling*, *qulluq*, *osh bo‘lsin*, *yaxshi boring*, *xush ko‘rdik*, *labbay*, *jonim bilan*, *bajonidil* kabi.

**114-mashq.** O‘qing. So‘z-gaplarning ifodalayotgan ma‘nosini tushuntirib bering.

1. – **Barakalla**, o‘g‘lim, shunday bo‘lish kerak, orzuniyatingga, murod-maqsudingga yet, – deb olqishladi, uni yaxshi tarbiya qilishga ahamiyat berdi.

2. – Savob ishlarga rag‘bat qiling... – **Xo‘p... xo‘p...**  
(*T.Malik*)

3. – Labbay, hazrat, sadongizdan aylanay, hazrat!  
(*M.Shayxzoda*)

4. Mahmudxon (xatni qo‘yniga solub, yugurub turub):

– **Assalomu alaykum**, boy pochcha, kelsinlar, **qani**, **marhamat** (joy ko‘rsatub), qani, o‘tursinlar, manam hozir janobingizni kutib turuvdim (boy kursiga o‘tirur, fотиha o‘qur).

Abdiqodirboy: **Xayr**, ziyoda davlat, Oллоhu akbar.

Mahmudxon (turub): **Xush ko‘rduk**.

Abdiqodirboy: **Xush**, **salomat**. Yangi xabarlar yo‘qmi, afandim?

5. – Esonmisiz? Sarupolar muborak!

Kumushbibining qizlarga bergan javobi eshitilar-eshitilmaslik edi:

– **Qutlug‘ ...**

**92-topshiriq.** Matnni o‘qing.

## BEHUDA SO‘ZDAN SUKUT AFZAL

Behuda so‘zlashdan ko‘ra jim o‘tirish afzal ekanligi haqida Rum qaysari, Hind rojasi, Chin fag‘furi o‘rtasida muhozara bo‘lib o‘tgan edi.

Ular o‘zaro bir fikrga keldilar va bir ma‘nodagi so‘zlarni turli bayon ipiga tizdilar.

Rum qaysari shunday dedi:

– Aytgan barcha so‘zlarimdan qattiq nadomat chekdim, ammo aytmagan so‘zlarimdan hech pushaymon bo‘lmadim!

Hind rojasi aql daryosidan noyob dur hozirlab, bayon ipiga terdi-yu, dedi:

– So‘z o‘qi kamonidan hali otilmagan ekan, u mening qo‘l ostimdir, og‘iz kamonidan otilib chiqsa, unga endi egalik qilolmayman!

U davom etib dedi:

– Har so‘z o‘qi kamonidan uchsa va har kalima og‘iz zindonidan ko‘chsa, uni qaytarib olaman deyish xomxayollikdir!

Chin fag‘furi so‘z bo‘stonidan guldasta hozirlab, tuhfa qilgan holda dedi:

– So‘z qushi og‘iz qafasida ekan, uning ixtiyori mening izmimdir. Bordi-yu, u til oshyonasidan parvoz qilsa, hech qachon uni tutib bo‘lmaydi!

*«Sharq hikoyat va rivoyatlari»*

**Quyidagi izohlardan ajratilgan so‘zlarning ma‘nosini toping:** 1) «qushlarning boshpanasi»; 2) «bir kishi yoki narsaning boshqa bir kishi yoki narsaga bo‘ysunishi»; 3) «mamlakatning boshlig‘i»; 4) «qabila yoki urug‘ning hukmdori»; 5) «qavmlarning birlashmasi».

### Savol va topshiriqlar

1. Qanday gap so‘z-gap deyiladi?
2. Atama nega so‘z va gap ifodalaridan tashkil topgan?
3. So‘z-gap qanday ma‘no munosabatlarini ifoda etadi?
4. So‘z-gaplar dialogik nutqda qanday vazifa bajaradi? Misollar keltiring.

### Uyga vazifa

**93-topshiriq.** «Muomalam – husnim» mavzusida so‘z-gaplarni qo‘llash mahorati bo‘yicha bahsda ishtirok etish uchun kam qo‘llanadigan so‘z-gaplardan topib, tayyorgarlik ko‘ring.

## 51-dars

### YIG'IQ VA YOYIQ GAP

**115-mashq.** Berilgan gaplarda qanday bo'laklar qatnashganligini aniqlab, tegishli belgilarini qo'ying.

1. Gapirishni bilish talantdir. (*Stendal*) 2. Bahslashish ko'plarning qo'lidan keladi, oddiygina suhbatlashishni esa kamdan kam kishi uddalaydi. (*A.Olkott*) 3. Odamlar bilan ularning aqliga monand gaplash. (Sa'diy) 4. So'z xulq-atvor demakdir. (*L.Tolstoy*) 5. So'z gavhari garchi bordir aziz, fahmi yo'q oldidatur bir qadrsiz. (*Nishotiy*) 6. Amalsiz ilm – mevasiz yog'och. (*«Otalar so'zi»*)



#### Bilib oling

Ega va kesimdan yoki faqat kesimdan iborat gap yig'iq gap hisoblanadi. Misollar: Men – o'qituvchi. O'qituvchiman.

**116-mashq.** Berilgan gaplarda qanday bo'laklar qatnashganligini aniqlab, tegishli belgilarini qo'ying. Gaplarning kesimdan boshqa bo'laklarini tushirib qoldirib o'qib ko'ring. Qolgan qismni gap deyishimiz mumkinmi?

1. Dono suhbatidan sira qochmagil, ta'sirin o'tkazar senga ham u til. (*Nosir Xisrav*) 2. Biz ko'pincha javobga muhtojligimiz tufayli emas, balki o'zgalarning ovozini eshitish, ularni o'zimizga og'dirish, suhbatga tortish uchun savol beramiz. (*Plutarx*) 3. Mutolaa insonni bilimdonlik sari, suhbat topqirlik sari yetaklaydi. (*F.Bekon*) 4. Bilmagan o'z qadrini, ne bilsun so'z qadrini. (Ogahiy) 5. Kim oz dedi, so'z aysh-u kom o'ldi anga... (*A.Navoiy*)



#### Savol va topshiriqlar

1. Qanday gaplar yig'iq gaplar deyiladi?
2. Yig'iq gapning qanday turlari bor?
3. Yoyiq gapni ta'riflang.
4. Yig'iq va yoyiq gapning o'xshash jihatiga misol keltiring.



#### Uyga vazifa

**94-topshiriq.** Matnda berilgan shaxslarning fe'li tavsifi asosida uning tashqi ko'rinishini yozma tasvirlang.



## YUSUFBEK HOJI

Yusufbek hojining qiziq bir tabiati bor: xotin bilangina emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsa-bo'lsin, uzoq so'zlashib o'lturmaydir. Otabekmi, onasimi, Hasanalimi, ishqilib, uy ichidan birartasining so'zlari va yo kengashlari bo'lsa, kelib hojining yuziga qaramasdan so'zlab beradilar; maqsad aytib bitkandan so'ng sekingina ko'tarilib uning yuziga qaraydirlar. Hoji bir necha vaqt so'zlag'uchini o'z og'zig'a tikiltirib o'lturg'andan so'ng, agar ma'qul tushsa, «xo'b» deydir; gapka tushunmagan bo'lsa, «xo'sh» deydir; noma'qul bo'lsa, «durust emas» deydir va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsa, bir iljayib qo'yish bilan kifoyalaniib, mundan boshqa so'z aytmaydir va aytsa ham, uch-to'rt kalimadan nariga oshmaydir. Uy ichi uning bu fe'liga juda yaxshi tushunganliklaridan, ko'pincha, bir og'iz javob olish bilan kifoyalaniadirlar. Ammo Otabek bilan birar to'g'rida so'zlashmakchi bo'lsa, uni aksar mehmonxonaga chaqirib yoki chaqirtirib oladir.

## XUSHRO'YBIBI VA ZAYNAB

Xushro'ybibi Zaynabning egachisidir. Mohirabonudan ikki o'g'ul va ikki qiz dunyog'a kelib, to'ng'uchi Azimbek, undan keyingisi Xushro'y (yoshlig'ida Xushro'y o'rniga Xushra der edilar), uchunchisi Karimbek va to'rtinchisi bizning Zaynab edi. Zaynab egachisi Xushro'ydin yetti yosh chamasi kichik edi. Garchi bu ikki egachi-singil bir qorindan talashib tushkan bo'lsalar ham, sajiya (xarakter)da tanib bo'lmasliq darajada bir-birlaridan farqlik edilar. Sajiyaagina emas, surat va siymo vajida ham katta o'zgaliklar bor edi.

Xushro'y uzun bo'ylik, qotmaroq va zarcha tanlik edi. Zaynab qisqa bo'y, go'shtdor va oq tanlik edi. Xushro'yning harakati yengil va lafzi tez edi. Zaynab lappos va o'nta so'zga arang bitta javob qaytaradig'an edi. Xushro'yning ko'zi o'ynab, har sekunda o'n yoqqa alang'lar edi. Singlisi bo'lsa birav bilan betma-bet kelib so'zlashqanida ham ko'zini hamisha bir nuqtadan uzmas edi.

**95-topshiriq.** Berilgan soʻzlardan aysh-u kom, tojdor, bojdor, koʻlanka, anjuman, afʻol, nadim soʻzlarining maʼnosiga mos keluvchi soʻzlarni toping: hukmdor, soya, rohat-farogʻat, bojxona xodimi, soliq yigʻuvchi, yigʻin, majlis, yaqin, sirdosh doʻst, hamsuhbat, shoh saroyida eng yaqin xizmatkor, mahram va maslahatchi.

## 52–53-darslar

### MATN VA LUGʻATLAR BILAN ISHLASH

**96-topshiriq.** Matnni diqqat bilan oʻqing.

#### OHANGLARGA YOʻGʻRILGAN SOʻZLAR

Tashqari eshikdan taʼzim qilib kirgan **choshnagir** ayol ovozini qoʻrquv bilan pasaytirib xabar berdi:

– Osmonda yulduzlar siyrak qoldi. Hademay tong yorishur. Hazrati oliy saharliksiz qolurlarmu?

Tong otib, azon aytilgandan soʻng roʻza oʻz kuchiga kiradi, hech kim hech narsa yeb-ichishi mumkin boʻlmay qoladi. Uzun va issiq yoz kunida podshohni saharliksiz qoldirish begimlar uchun oʻzlari och-nahor qolishlaridan qoʻrqinchliroq edi.

... Osmon oqarib qoldi. Tong yorishgan sari **qandildagi** shamlarning nuri xira torta boshladi.

Azon aytadigan payt oʻtib boryapti. **Arkdan** tashqaridagi masjidning imomi **koshinlik** minoraga chiqib, **bakovulning** ishorasini sabrsizlik bilan kutyapti. Axir, Mirzo hazratlari saharlik qilib ulgurmasdan azon aytish xatardan xoli emas. Ovqat yeyilib, choyga oʻtilganda Umarshayx mirzo xotinlariga vaziyat qanchalik ogʻirlashayotganini aytib berdi.

Shu payt masjid tomondan azon tovushi eshitildi. Choy ichayotgan Xonzoda begim shoshilib piyolasini dasturxonga qoʻydi. Umarshayx mirzo xotinlariga bir-bir qarab, dedi:

– **Moʻysafidlar** «Toʻrt **muchang** butun boʻlsin», deb duo qilurlar. Fotima Sulton, Qutlugʻ Nigorxonim, Qorakoʻz begim, farzandlarimiz Xonzoda begim, Jahongir **mirzo** – har biringiz oilamizning aziz bir muchasidirsiz. Istaymenki, bu mushkul vaziyatda hamma muchalarimiz butun

bo'lsin, bir-birlariga **mehr-u shafqat** ko'rsatsin. **Ilik** o'z o'rnida aziz. Ko'z o'z o'rnida **mo'tabar**. Agar ko'z bilan ilik bir-biriga **nizo qilsa**, bundan har ikkisi jabr ko'rir.

*P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»*

**97-topshiriq.** Quyida berilganlardan ajratib ko'rsatilgan so'zlarga mos keluvchi izohni toping, lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling:

1) ziddiyatda bo'lmoq; 2) ulug', aziz; 3) qo'l; 4) oyoq, qo'l, tana va bosh a'zolari; 5) yoshi o'tib qolgan kishi; 6) o'zgalor orasida eng oldi, sarasi; 7) ayollarga hurmat yuzasidan murojaat qilganda qo'llanadigan so'z; 8) yoqish uchun shamlar solib ilib qo'yiladigan uy jihozi; 9) chinniga o'xshatib ishlangan, yaltiroq, naqshli g'isht plitkasi; 10) ish boshqaruvchilik lavozimi.

**117-mashq.** Matndagi ajratilgan so'zlarni uch guruhga ajrating:

- 1) ijobiy bo'yoqli so'zlar;
- 2) salbiy bo'yoqli so'zlar;
- 3) bo'yoqsiz so'zlar.

**98-topshiriq.** Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning antonimini quyidagilar orasidan aniqlang va eslab qoling: *beaql, mug'ombir, to'g'riso'z, omadsizlik, zarar, xafa bo'lmoq, diyonatli, uzun, hiyla, sadoqat, mukofotlamoq.*

**118-mashq.** Jamoatchilikda televizor tomosha qilish foydali yoki zararli degan qarama-qarshi fikr mavjud. Ikki fikrni ham muhokama qilgan holda mustaqil fikringiz aks etgan matn yarating.



### Savol va topshiriqlar

1. Birinchi matnda qaysi tarixiy shaxs haqida so'z boryapti?
2. Matndagi ijobiy va salbiy bo'yoqli so'zlarni sanang.



### Uyga vazifa

**99-topshiriq.** Quyidagi izohlardan bakovul, shig'ovul, salom og'asi, dodxo, ponsadboshi, hudaychi so'zlarining ma'nolarini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va qo'llash uchun eslab qoling: 1) podshoh, xon va lashkarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, bosh oshpaz; 2) Buxoro xonligida adolat, haq-huquq istovchilardan amir nomiga ariza qabul qiluvchi va uning javobini arzchilarga yetkazuvchi lavozimli kishi; 3) Buxoro va Xiva xonliklarida elchilarni kutib olish, xon huzuriga olib kirish, saroydagi qabul marosimlarini boshqarish va nazorat qilish bilan shug'ullangan shaxs; 4) xon va amirning huzuriga ish va arz bilan kelganlar haqida xon, amirga xabar beruvchi va xon, amirning javobini ularga yetkazuvchi amaldor; 5) Qo'qon xonligida qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor; 6) amir, xon saroyida rasmiy marosimlarga boshchilik qilib, uni nazorat qilib turgan lavozimli shaxs.

**100-topshiriq.** Rasmda berilgan narsalar orasidagi bog‘liqlikni yozma bayon qiling.



## 54–55-darslar

### SODDA GAP VA GAP BO‘LAKLARI YUZASIDAN TAHLIL

**119-mashq.** Matni o‘qing.

#### OQILONA JAVOB

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro saroyida bosh vazirlik qilgan kezarida podsho doim uning so‘zlariga quloq solib, shoir bilan maslahatda ish tutar ekan. Kunlardan bir kun erta tongda Husayn Boyqaro saroyga kirib ketayotib Navoiyga qarabdi-yu, ko‘rsatkich barmog‘i bilan boshini ko‘r-

satibdi. Ayni shu choqda Navoiy barmog'i bilan tilini ko'rsatibdi. Husayn bosh chayqabdi, saroyga kirmay, qaytib ketibdi. Bu manzarani kuzatib turgan Navoiyning shogirdlari imo-ishoralarning sababini so'rashibdi. Shunda Navoiy:

– Qani, o'zlaring o'ylab topinglar, – debdi-da, imo-ishoralar sirini aytmabdi. Shogirdlar o'ylab-o'ylab, hech topisholmabdi. Nihoyat, ulardan biri shoirni so'zlatish maqsadida siyohdonni ag'darib yuboribdi. Shunda Navoiy:

– Abdullatif, bunchalar parishonxotir bo'lmasangiz, axir siyohdonni ag'darib yubordingiz-ku! – debdi.

– Kechirasiz, ustoz, – unga yuzlanibdi shogirdi, – hali muammoning sababini o'ylab, xayolim qochibdi. Shunda Navoiy shogirdlariga bo'lgan voqeaning sir-asrorini aytib berishga majbur bo'libdi.

– Husayn Boyqaro mendan: «Boshga baloni nima keltiradi?» – deb so'radilar. Men esa: «Til», – deb javob berdim.

Shogirdlar Navoiyning ziyrak va donishmandligiga yana bir marta qoyil qolishibdi.

*M. Murodov, «Allomalar ibрати»*

**120-mashq.** Quyida berilganlar ichidan yuqoridagi matnning umumiy xulosasini toping.

1. Tilingni avayla, omondir boshing. (*Yusuf Xos Hojib*)

2. Aytilgan so'z – otilgan o'q. (*Maqol*)

3. Noo'rin so'z boshga balo keltirar.

4. So'zingni o'ylab so'zla, qayg'u-alam kelmaydi. (*Yusuf Xos Hojib*)

5. Podsho oldida uch toifadin guzir yo'qdir: birinchisi – olimi boamal, ikkinchisi – vaziri sohibra'y, uchinchisi – munshiyi rostnavis. (*Gulxaniy*)

**101-topshiriq.** Matnni o'qing. Gaplarning kesimini aniqlang hamda ot kesim va fe'l kesim kabi turlarga ajrating.

Farobiy shunday yozadi: «Agar saltanat har qanday talabga javob bersa-yu, ammo uni donishmandlik tark etsa, mamlakat hukumatsiz qoldi, deyavering. Bu mamlakatni boshqaruvchi hukmdor ham o'z mavqeyini butkul yo'qotadi. Mamlakat esa halokatga yuz tutadi».

Fuqarolar bilan muloqot usullari va ularga ta'sir o'tkazish yo'llari sodda va tushunarli bo'lmog'i lozim. Aks holda, odamlar hukmdorni tushunmaydilar yoki uning talabini bajarolmaydilar. Hukmdorlar dorini bemorning sevimli va ko'p tanovul qiladigan taomiga qo'shib ichiradigan mahoratli tabibga o'xshamoqlari lozim. Zero, mehr-u muhabbat va rag'batlantirishlar fuqarolar bilan muomalaning eng asosiy usulidir.

*Farobiy*

**102-topshiriq. Gaplarni o'qing. Egalarni aniqlang.**

Xushomadni yo'qotishga uringan hukmdor o'ziga nisbatan nafrat uyg'otib qo'yishi mumkin. Buning sababi shunday izohlanadi: tabiblar deydilarki, sil kasalligini boshlang'ich davrda aniqlash qiyin, ammo davolash oson. Agar xastalik o'tkazib yuborilgan bo'lsa, aksincha, uni aniqlash oson-u, davolash mushkul. Davlat ishlarida ham shunday: endigina paydo bo'layotgan illat o'z vaqtida aniqlansa, uni yo'qotish qiyin emas. Bunga faqat dono hukmdorlarga qodirdirlar. Agar illat har kimga yaqqol ko'rinadigan darajada avj olgan bo'lsa, hech qanday dori-darmon kor qilmaydi.

*Makiavelli*

**121-mashq. Gaplarni o'qing. Kerakli o'rinlarga tire qo'yib ko'chiring.**

1. Olimlar, fozillar, adiblar davlatning tanasidagi kuch. Ularga iltifot va ikromda bo'l... Shunday yo'l tutginki, hukumatingda orif arboblari, fazilatli insonlar va olimlar ko'paysin. (*U.G'oziy*) 2. Naf'ing agar xalqqa beshakdurur, bilki, bu naf' o'zingga ko'prakdurur. (*A.Navoiy*) 3. Faqat o'z shaxsiy manfaati haqida qayg'urib, burchni unutmoliq o'taketgan pastkashlik. (*Syun-Szi*) 4. Birovni qoralashdan oldin doimo uni oqlash imkoni bor-yo'qligini o'ylash kerak. (*Lixtenberg*) 5. Inson zotiga mansub odamlar birbirlariga o'xshamaydilar. Ularning o'xshash tomoni bitta. U ham bo'lsa, barchaning pirovard maqsadi mukammallik. (*Fixte*)



**Savol va topshiriqlar**

1. *Ot kesim va fe'l kesimni farqlang.*
2. *Qaysi hollarda ot kesim va ega orasida tire qo'yiladi?*
3. *Qaysi matnda tilga e'tiborli bo'lish haqida fikr berilgan?*



## Uyga vazifa

**103-topshiriq.** Maqollardagi bo'sh o'rinlarni quyidagi so'zlardan tanlab to'ldiring: *bog', haqiqat, adolat, tog', xalq, olomon, daraxt, buta, qozi, boy, odil.*

1 ... kishi oyday, oqib turgan soyday. 2. ...ning yuzi yorug', qo'li uzun.  
3. Haq ishni ... qo'llar. 4. Yolg'iz ... o'rmon bo'lmas. 5. Ko'p biriksa, ... qular.

**104-topshiriq. Nasriy bayonga to'g'ri keluvchi baytni belgilang.** «Xudo kimni bek qilib yaratishni istasa, oldin unga aql-u uquvdan qanot beradi».

1. Bay'at kimki bersa bu beglik ishi,  
Berur o'g ko'ngul ko'r ul ishka tushi.
2. Kimi beg to'rutmak tilasa bay'at,  
Berur ashnu qilq yang uqush yug qanat.
3. Bu beglik ishi bo'ldi beglar ishi,  
Bu beglar ishin bildi beglig kishi.

*Yusuf Xos Hojib*

**122-mashq.** Rasmda berilgan narsa-hodisalar haqidagi fikringizni og'zaki nutqda ravon ifodalang.



## 56–57-darslar. NAZORAT ISHI VA TAHLILI

### 6-BO'LIM

### IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLAR

## 58-dars

### HOL

**105-topshiriq.** Gaplarni ko'chiring. Ajratilgan gap bo'laklarining qanday so'roqqa javob bo'lishini va qanday bo'lakka tobelanayotganini hamda qaysi so'z turkumiga mansubligini aniqlang.

1. Degil inson desang ani ne ajab, bo'lmasa **qirq yasharda** aql-u adab. (*Sayfi Saroyi*) 2. Kishi ko'pgina **narsalarsiz** ham yashay oladi, lekin **tanholikda** yashay olmaydi. (*L. Berne*) 3. Biri mahv bo'layotgan joyda ikki kishi **birlashib** biri-birini qutqarishi mumkin. (*O. Balzak*) 4. Kishi jamiyat uchun yaralgan. U **yolg'iz** yashashga layoqatli emas va **yakka** yashashga jur'ati yetmaydi. (*U. Blekstoun*) 5. Kishi **uzlatda** yashay olmaydi, unga jamoat kerak. (*I. Gyote*) 6. Faqat **odamlar orasidagina** kishi o'z-o'zini anglashga qodir. (*I. Gyote*)



### Bilib oling

Hol ko'proq kesimga bog'lanib, undan anglashilgan ish-harakatning o'rnini, paytini, holatini, bajarilish sababini, maqsadini, daraja-miqdorini bildiradigan ikkinchi darajali bo'lak. Hollar *qanday, qanday qilib, qay tarzda, qayerda, qayerga, qayerdan, qachon, nega, nima uchun, qancha* kabi so'roqlarning biriga javob bo'ladi. Shunga ko'ra, **o'rin holi, payt holi, ravish holi, daraja-miqdor holi, sabab holi** va **maqsad holi** farqlanadi.

Hol ravish, kelishik shaklidagi va ko'makchili otlar, olmoshlar, sifat, son, taqlid so'z va fe'lning xoslangan shakllari bilan ifodalanishi mumkin.

Bir mustaqil so'z bilan ifodalangan hol sodda, kengaygan birikma bilan ifodalangan hol murakkab hol sanaladi.

**123-mashq.** Yuqoridagi ilmiy matnni jadval shaklida ifodalang.

**106-topshiriq.** Gaplarni ko'chiring. Hollarning sodda va murakkab ko'rinishlarini farqlang.

### Hollarning tuzilishi

Sodda hol	Murakkab hol

1. Inson fe'l-atvorini to'g'riroq tushunish uchun boshqa vositalar bo'lmaganda uni ranjitadigan hazildan foydalanish mumkin. (*Lixtenberg*)



2. Harakat inson qiyofasini ochib beruvchi eng aniq vositadir. Inson qanday harakat qilsa, o'shandaydir. (*Gegel*)

3. Insonning haqiqiy fe'l-atvori mayda-chuydalarda: ular inson o'zini nazorat qilishdan to'xtaganda yuzaga chiqadi. (*A. Shopengauer*)

4. Inson o'zga kishi oldida ayblariga iqrор bo'lgach, ularni darhol unutadi. Ammo o'zga kishi uning ayblarini yodida saqlab qoladi. (*Nitsshe*)

5. Haddan ortiq yuksak fazilatlar ham ba'zan insonni jamiyat uchun yaroqsiz holga keltirib qo'yadi. (*Shamfor*)

### Savol va topshiriqlar

1. Gapning qanday bo'lagi hol deyiladi?
2. Hol, ko'pincha, qaysi bo'lak bilan munosabatga kirishadi? Misol keltiring.
3. Hol qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanishi mumkin?
4. Hol tuzilishiga ko'ra necha xil bo'ladi?
5. Qanday hol murakkab hol hisoblanadi?

### Uyga vazifa

**107-topshiriq.** «Tarix» darsligidan hol ishtirok etgan 3 ta gap yozing. Ularning tuzilishiga ko'ra turini, qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanganligini aniqlang.

**108-topshiriq.** *Navozish, nazarkarda, nabi, nabotot, navozanda* so'zlarining ma'nolarini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va qo'llash uchun eslab qoling: 1) xudoning xabarini yetkazuvchi; 2) o'simliklar dunyosi; 3) kuy ijro etuvchi; 4) navo qiluvchi; 5) sozanda; 6) mulozamat; 7) lutf; 8) marhamat; 9) erkalash; 10) ulug' kishilarning nazari tushgan.

## 59–60-darslar

### MUMTOZ MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH

**109-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qib chiqing.

#### HAQIQAT VA MAJOZ

Bir kishi quturgan tuyadan jonini qutqarish uchun jar ustiga egilgan ikki shoxga osilib, jar yoqasiga oyoq qo'yadi. Lekin oyog'i ostidagi indan to'rtta ilon bosh chiqarib turganini ko'rib qoladi. Jarning ostiga nazar tashlasa, u yerda ulkan bir ajdaho og'zini katta ochganча uning tushishini kutib turganligiga, yuqoriga qarasa, oq va qora

sichqonlar u osilib turgan shoxlarni to‘xtovsiz kemirayotganliklariga ko‘zi tushadi. Bu ahvoldan qutulish chorasini o‘ylab turganida shunday yonginasida asalari uyasini ko‘radi va barmog‘ini asalga botirib, yalay ketadi. Asalning shirinligi uning boshini shu darajada aylantirgan ediki, natijada u o‘zining qanday ahvoldaligini unutib qo‘yadi: oyoqlarini to‘rt ilonning boshiga qo‘yganligi va bu ilonlar uni har lahzada chaqib olishlari mumkinligi, sichqonlar shoxlarni kemirib bitirishlari va shox sinsa, u ajdaho **komi**ga tushishi **muqarrar**ligi xayolidan ko‘tariladi. **Jaholat** pardasi aql nurini to‘sisib qo‘yadi va oz fursat o‘tmay, u jarga qulab halok bo‘ladi.

«*Kalila va Dimna*»dan

**110-topshiriq.** Bu hikoyatda oq va qora sichqon, to‘rt ilon, asal, ajdaho majoziy ma’no ifodalamoqda. Ular nimaning ramzi ekanligini ayting. Majoziy ma’noni ta’riflang.

**Tayanch tushunchalar:** o‘lim, olam asosini tashkil qiluvchi unsurlar, o‘tkinchi dunyo, kecha va kunduz.

**124-mashq.** Matn mazmunini ravon og‘zaki nutqda bayon eting.

**111-topshiriq.** Quyida berilgan so‘zlardan foydalanib, matndagi ajratilgan so‘zlarning izohini yarating va lug‘at daftaringizga qayd qiling: aniq; ilmsizlik; tanglay, og‘iz.

**125-mashq.** Matnning har bir xatboshisi mazmunini bittadan qisqa jumlada ifodalang.

**126-mashq.** Matndagi ko‘chma ma’nodagi so‘zlarni o‘z ma’nosida qo‘llab, matnni qayta so‘zlab bering.

**127-mashq.** Matndagi hol vazifasida kelgan so‘zlarni ma’nodoshlari bilan almashtirish mashqini bajaring. Bunda quyidagi so‘zlar qatoridan foydalaning: *tinimsiz, chora izlamoq, tezda, ko‘p o‘tmay.*

**112-topshiriq.** Zamonaviy o‘zbek adabiyotidan ko‘chma ma’noli so‘zlarga misollar toping.



**Uyga vazifa**

**113-topshiriq.** Mumtoz adabiyotdan majoziy mazmundagi she’rdan namuna topib, yod oling. She’rning mazmunini tushuntirib bering.

## 61-dars

### TO'LDIRUVCHI

**114-topshiriq.** Gaplarni ko'chiring. Ajratilgan gap bo'laklarining so'rog'ini, qanday bo'lakka tobelanayotganini va qaysi so'z turkumiga mansubligini aniqlang.

1. Arzimagan va befoyda **narsalarga** keragidan ortiqcha vaqt sarflash dono **odam uchun** nihoyatda og'irdir va bu **uni** mislsiz tashvishga soladi. (*Aflotun*) 2. Modomiki, vaqt eng qimmatbaho mulk ekan, unda **vaqtni** talon-toroj qilish eng og'ir gunohdir. (*B. Franklin*) 3. Inson boshiga tushishi mumkin bo'lgan eng og'ir yo'qotish **vaqtni** boy berishdir. (*Teofrast*) 4. Odam tabiatan qiziq yaratilgan: **boyligini** yo'qotsa, xafa bo'ladi-yu, **umri zoye ketayotganiga** esa parvo qilmaydi. (*Abul Faroj*) 5. **Vaqtini** boy berayotganida xunob bo'ladigan odam eng dono odamdir. (*Dante*) 6. Vaqtning qadriga yetmagan **kishiga** shon-sharaf nasib bo'lmaydi. (*L. Vovenarg*)

#### **Bilib oling**

Gapning fe'l bilan ifodalangan biror bo'lagiga boshqaruv yo'li bilan bog'langan, *kimni, nimani, qayerni, kimga, nimaga, kimda, nimada, kimdan, nimadan, kim uchun, nima uchun, kim haqida, nima haqida, kim bilan, nima bilan* kabi so'roqlarga javob bo'luvchi ikkinchi darajali bo'lakka to'ldiruvchi deyiladi.

To'ldiruvchi quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi:

ot: *Dilshod maktubni xolasiga berib, ko'chaga chiqib ketdi;*  
olmosh: *Mayli-da, kimgadir yoqsa, yoqmasa, ularga qo'shilib yig'lasharmidik.* (*M. Yusuf*);

harakat nomi: *Uning kulib boqishlarini bir zum ham unutmayman.*

Otlashganda:

sifat: *Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas;*

son: *Beshni beshga qo'shsak, o'n bo'ladi;*

sifatdosh: *Bilmagandan bilgan yaxshi, to'g'ri ishni qilgan yaxshi;*

taqlid so'z: *Taqir-tuquringni yig'ishtir;*

undov so'z: *Ohimni eshitmadi;*

modal soʻz: *Yoʻqni yoʻq deydi, borni bor deydi.*

Toʻldiruvchi birikma holida boʻlishi mumkin: Men uning goʻzal siymosida qalbim koʻzqusini, visol orzusini, umidim gulshanini koʻrardim.

Erkin birikma bilan ifodalangan murakkab toʻldiruvchi gap mazmunini toʻldirish, oydinlashtirish vazifasini bajaradi.

**115-topshiriq.** Toʻldiruvchilarni ikki guruhga ajratib, jadvalga tushiring:

*Jadval*

### Toʻldiruvchining turlari

Tushum kelishigidagi toʻldiruvchilar	Boshqa shakldagi toʻldiruvchilar

1. Vaqt hamma narsaga oʻz taʼsirini oʻtkazadi; yillar-ning poyonsiz halqasi nomni ham, qiyofani ham, feʼl-atvorni, hatto taqdirni ham oʻzgartira oladi. (*Aflotun*)
2. Vaqtni oqilona taqsimlash – ish poydevori. (*Y. Komenskiy*)
3. Kimki boʻsh vaqtini oqilona oʻtkaza olsa, shaxsiy madaniyati oliy darajadagi kishidir. (*B. Rassel*)
4. Vaqt va suv toshqini hech qachon kutib turmaydi. (*V. Skott*)
5. Har bir kunni oʻlcha, sarflagan har bir daqiqangni hisobga ol! Faqat vaqt masalasidagina xasislik qilish mumkin. (*T. Mann*)
6. Oʻrtamiyona odam vaqtni tez oʻtkazish payida boʻladi, isteʼdod sohibi esa undan foydalanib qolishga urinadi. (*A. Shopengauer*)



### Bilib oling

Belgili yoki belgisiz tushum kelishigidagi toʻldiruvchi **vositasiz toʻldiruvchi**dir. Tushum kelishigidan boshqa shakldagi toʻldiruvchi **vositali toʻldiruvchi** sanaladi.



### Savol va topshiriqlar

1. Toʻldiruvchi qanday boʻlak?
2. Toʻldiruvchi qaysi soʻz turkumlari bilan ifodalanadi?
3. Toʻldiruvchi holdan qanday farq qiladi?

4. Jumladagi xatolikni tuzating: Bog'ni muhtasham devorini bir muddat tomosha qildi.
5. «Yer kurrasini boshini tang'idik» she'riy jumlasini nasriy gapga aylantiring.



### Uyga vazifa

**128-mashq.** Sinfdoshingizni tug'ilgan kuni bilan qutlash uchun matn yaratib. Matnga sarlavha tanlang. «Tabrik nutqi» tanlovida ishtirok eting.

**116-topshiriq.** Tabrik nutqida qo'llanadigan faol so'zlar lug'atini tuzing.

## 62-dars

### MUMTOZ MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH

**117-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qib chiqing.

Yana turk **lafzining** mahbub jonibidin yasanmog'i **muqobalasida** sort lafzida **orosta** va **oroyish** lafzi bor. Ammo bezanmak muqobalasida demaydurlar va ul yasanmog'ning mubolag'asidur va ani mundoq debdurlarkim,

Bayt:

*Erur bas chu husn-u malohat senga,  
Yasanmoq, bezanmak ne hojat senga.*

Va xo'blarning ko'z va qoshlari orasinki, **qabog'** derlar, forsiyda bu sozning oti yo'qtur. «Masnaviy»da bir jamoat xo'b ta'rifida mundoq deyilibdurkim,

Bayt:

*Mengizlari gul-gul, mijjalari xor,  
Qabog'lari keng-keng, og'izlari tor.  
Alisher Navoiy, «Muhokamat ul-lug'atayn»*

**129-mashq.** Matn mazmunini bayon eting.

**118-topshiriq.** Matndagi ajratilgan so'zlarning ma'nolarini quyida berilgan izohlar orasidan aniqlang va lug'at daftaringizga qayd qiling: 1) tana a'zosi; 2) yuzdagi xol; 3) nutq hosil qiluvchi a'zo; 4) bezak, bezalغان; 5) qarshilik; 6) ko'z kosasini qoplovchi; 7) ochilib-yopilib turadigan teri; 8) poliz o'simligi.

**130-mashq.** Matnning tarkibiy qismlarini bog'lovchi so'zlarni aniqlang.

**131-mashq.** Quyidagi so'zlardan foydalanib, matndagi to'ldiruvchi vazifasida kelgan so'zlarni ma'nodoshlari bilan almashtirish mashqini bajaring: o'rtasi, o'zingga, nutq, tavsif.

### Savol va topshiriqlar

1. Matnda qaysi soʻzlarning fors tilidagi muqobili haqida soʻz boradi?
2. Bu soʻzlarning forsiy muqobilini sanang.
3. Forsiyda qaysi «uzvning oti yoʻqdur»?
4. Navoiy fikrini dalillashda nimadan foydalangan?



### Uyga vazifa

**119-topshiriq.** Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lugʻatayn» asaridan parcha yod oling.

**120-topshiriq.** Matnni diqqat bilan oʻqing.

## TULKI VA DARAXT KESUVCHI

Ovchilar taʼqibidan qochib kelayotgan Tulki oʻrmonda bir daraxt kesuvchiga roʻpara keladi va unga: «Meni yashir», – deb iltijo qiladi. Daraxt kesuvchi unga: «Bor, kulbanga kirib berkina qol», – deydi. Birozdan soʻng bu yerga ovchilar yetib kelishadi va daraxt kesuvchidan: «Koʻrmadingmi, shu yerdan bir Tulki yugurib oʻtmadimi?» – deb soʻraydilar. Daraxt kesuvchi baland ovoz bilan: «Koʻrmadim», – deb aytadi, ammo ayni paytda Tulkining qayerga berkinganini qoʻli bilan koʻrsata boshlaydi. Lekin ovchilar uning ishorasini tushunishmaydi, qisqasi, ovchilar uning gapiga ishonishib, joʻnab ketishadi. Nihoyat, Tulki ovchilarning ot choptirib ketishganini eshitib kulbadan chiqadi va churq etmay keta boshlaydi. Bu holni koʻrgan daraxt kesuvchi unga: «Hoy, noshukur jonzot, axir, men seni oʻlimdan qutqarib qoldim-ku! Sen boʻlsang menga rahmat ham aytmay, juftakni rostlab qolyapsan-a?» – deb malomat qiladi. Unga javoban Tulki deydi: «Agar aytgan soʻzing bilan imo-ishorang bir-biriga mos boʻlganida rahmat aytardim».

«Ezop masallari»

**121-topshiriq.** Matndan olgan xulosangizni 2–3 jumlada yozma ifodalang.

## 63-dars

### ANIQLOVCHI VA UNING TURLARI

**122-topshiriq.** Gaplarni koʻchiring. Ajratilgan gap boʻlaklarining qanday soʻroqqa javob boʻlishini, qanday boʻlakka tobelanayotganini va qaysi soʻz turkumiga mansubligini aniqlang.

1. **Hunari va odobi bo'lmagan** kishidan baxt va davlat ketadi. (*Mahmud Koshg'ariy*) 2. Hunar bilan davlat birikishi **barcha nodir** narsalardan ham qimmatliroqdir. (*Ahmad Yugnakiy*) 3. Kasb ayla nishot mehnat oyinlik aro, kim **ishrat** umidi keldi g'amginlik aro. (*A. Navoiy*) 4. **Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz** hunar bo'lmas. (*Mashrab*) 5. Kissayi purzar emish elga hunar, **behunar** elni derlar rishi xar. (*Gulxaniy*) 6. **Qaysi** ilm va hunar **kishining** aqliga, ruhiga tarbiya berar ekan, **unday** ilm va hunar o'z egasini har doim qo'llab-quvvatlaydi. (*A. Donish*)

### **Bilib oling**

Narsa-buyumning rang-tusi, mazasi, hajmi, kim yoki nimaga qarashlilikini bildirib, gapning ot bilan ifodalangan bo'lagini aniqlab kelgan ikkinchi darajali bo'lak aniqlovchi deyiladi. U *qanday, qaysi, nechanchi, qancha, nechta, kimning, nimaning, qayerning* so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Aniqlovchi aniqlagan (bog'langan) bo'lak aniqlanmish hisoblanadi.

Aniqlovchi gapning barcha bo'laklarini aniqlashtirib kelishi mumkin. Aniqlovchi ega, ot kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va holga bog'lanadi: *Bahaybat samolyot* (ega) *yerga ohista qo'ndi*. *Salimjon — a'lochi o'quvchi* (ot kesim). *Ilg'or ishchilarga* (to'ldiruvchi) *mukofotlar topshirildi*. *Mehnat faxriylari bilan yangi bog'da* (hol) *uchrashdik*. *Tadbirkor insonning* (aniqlovchi) *ishlariga havasing keladi*.

**123-topshiriq.** Aniqlovchilarni aniqlab, uch guruhga ajrating va jadvalga tushiring:

<b>Qarashlilik ma'nosini ifodalovchi aniqlovchi</b>	<b>Belgi-xususiyat ma'nosini ifodalovchi aniqlovchi</b>	<b>Shaxs yoki narsani boshqa tomondan nomlovchi</b>

1. Nodonlardek otangning kimligini pesh qilma, o'zingga sen hunardin o'zгани ota bilma. (*A. Jomiy*) 2. Kamol ahli aro, albatta, topg'ay izzati oliy, har qaysi kasbida har kimsakim qildi hunar ixlos. (*Ogahiy*) 3. Har bir hunarg'a

bordur mushkul base mashaqqat, beranj muft davlat bor elga nogahonda. (*Nodim*) 4. Hojatmand kishini noumid qaytarma. (*Luqmoni Hakim*) 5. Agar yerga topshirsang bir arpa dona, o‘rim vaqti berar biri yuz dona. (*A. Jomiy*) 6. Rayimbek dodxoh qilich yalanglab, sipohlar oldida olomong‘a qarab yugurdi. Biroq uning bu g‘ayrati o‘zi uchun halokat bilan natijalanib, Usta Mo‘minjon ismlik bir miltiq ustasining otqan o‘qi bilan ko‘kragidan yaralanib yiqildi. (*A. Qodiriy*)

### **Bilib oling**

Aniqllovchilarning bir xili narsa-buyumning **belgisi** (rangi, miqdori, mazasi, hajmi)ni bildirsa, boshqa xili narsa-buyumning kimga yoki nimaga **qarashlilikini** bildiradi yoxud boshqa tomondan nomlaydi. Shunga ko‘ra, aniqllovchilar uchga bo‘linadi:

1) **sifatlovchi aniqllovchi;**

2) **qaratqich aniqllovchi;**

3) **izohlovchi aniqllovchi.** Misol: **Yangi** (*sifatlovchi aniqllovchi*) **binolar qishloqning** (*qaratqich aniqllovchi*) **husniga husn qo‘shmoqda.** (*Sh.R.*) **Kapitan** (*izohlovchi aniqllovchi*) **Mansurov so‘zladı.**

Predmetning rangi, ta‘mi, hajmi, miqdori, xarakter-xususiyatini bildirib, o‘zidan keyingi bo‘lakka bitishuv yo‘li bilan tobelangan aniqllovchilarga sifatlovchi aniqllovchi deyiladi. Sifatlovchi aniqllovchi *qanday, qanaqa, qancha, nechanchi, qaysi* kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘ladi va quyidagi so‘zlar bilan ifodalanadi:

sifat: Yaxshi fikrlar ham eng yaxshilariga joy bo‘shatib bermog‘i lozim. (*V. Shekspir*);

son: Shu orada to‘rttacha samosval oldinma-ketin g‘isht to‘kib ketdi. (*S. Ahmad*);

sifatdosh: Bir yil tut ekan kishi yuz yil gavhar teradi;

olmosh: Qaysi gulni yoqtirasiz?;

ot: Kumush qishdan, zumrad bahordan, qolishmaydi kuzning ziynati.

ravish: Ko‘p odamlar bundan bexabar edi;

taqlid: Qir tomondan g‘ir-g‘ir shabada esib turibdi.



Predmetning kim, nima yoki qayerga mansubligi, qarashlilikini bildirib, o'zidan keyingi bo'lakka moslashuv yo'li bilan tobelangan aniqlovchilarga qaratqich aniqlovchi deyiladi. Qaratqich aniqlovchi ot, olmosh, harakat nomi va otlashgan so'zlar bilan ifodalanib, *kimning, nimaning, qayerning* kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi. Oyimlarning aytishicha, keyinchalik dadamlar ham bu qilmishidan pushaymon bo'lganlar. (*O.Yoqubov*) U hozir hammaning kallasini g'ovlatgan shum xabarni hech o'ylamayapti... (*A.Muxtor*)

Izohlovchi aniqlovchi shaxs va narsani boshqa (turi, mansabi, laqabi, kasbi, qarindoshligi kabilar) tomonidan nomlaydi va ot bilan ifodalanadi: *dasturchi-muhandis, o'qituvchi G'ulomov, Xurshid tog'a*.

**132-mashq.** Yuqorida berilgan nazariy ma'lumotlarni jadval shaklida ifodalang va taqdimot qilishga tayyorlaning.

**124-topshiriq.** *Irg'ay, isliqi (iflos), g'alamis, abjir, mushtoq, dilpazir* so'zlarining ma'nosini lug'at yordamida aniqlang va ularni aniqlovchi sifatida qo'llab, gaplar tuzing.



### Savol va topshiriqlar

1. *Aniqlovchi deb nimaga aytiladi?*
2. *Aniqlovchining qanday turlari bor?*
3. *Aniqlovchi qaysi jihati bilan holga uyg'un va undan farqlanadi?*
4. *Aniqlovchi qaysi xususiyatiga ko'ra to'ldiruvchiga o'xshash va undan farqlanadi?*
5. *Quyidagi gaplarda aniqlovchilar orasiga vergul qo'yish mumkinmi? Tushuntirib bering. Dunyoda harakatsizlikdan ham ortiqroq halokatli toqat qilib bo'lmaydigan narsa yo'q. (A.Gersen) 2. Mehnat – barcha xastaliklardan xalos etuvchi shifobaxsh malham. (N.Ostrovskiy) 3. Eng yaxshi axloqiy va estetik dori – mehnat. (A.Frans)*



### Uyga vazifa

**133-mashq.** Fikrlarni muhokama qilib, munosabatingizni bildiring va xulosangizni yozma bayon eting.

Buzurgmehr zindonda yotganda do'stlari undan:

– Shunday qora kunga tushganingda o'zingga qanday tasalli berasan? – deya so'rashibdi.

– To'rt hikmatli so'zni qayta-qayta takrorlayapman, – debdi u. – Birinchisi – bularning hammasi peshonamda

bor ekan, ko'ryapman, demak, taqdiridan qochib qutulib bo'lmaydi. Ikkinchisi – bu kulfat ming og'ir bo'lsa ham, chidamasdan, sabr qilmasdan ilojim yo'q. Uchinchisi – bu hali holva, bundan og'irroq kunga ham tushish mumkin. To'rtinchisi – ehtimol, bu ahvoldan bugun-erta qutulaman, balki allaqachon qutulgan hamdirman-u, ammo o'zim bexabardirman.

«Ibratli hikmatlar»

## 64-dars

### MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH

**125-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qib chiqing.

#### SO'Z MAVJLANGANDA

Xoja Fazlulloh Abullaysiy – Samarqand **akobirid**indur. Faqih Abullays avlodidandur. **Fiqh**da ani Abu Hanifayi Soniy derlar erdi va arabiyatda Ibn Hojib kaffasida tutarlar erdi.

Sayid Sharifning shogirdi erdi va Sayid o'z xatlari bila ulumi dars ayturg'a ijozatnomalar aning uchun bitib erdi. Faqir ikki yil alarning qoshida sabaq o'qub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, «farzand» der erdilar.

Bovujudkim, Samarqandning a'lamu ulamosi erdi, she'r va muammog'a dag'i moyil erdi.

Bu matla' alarningdurkim:

*Qadi chun sarvi tu jon ast maro, balki ravon,  
So'yam, ey sarv, ravon shavki, fido sozam jon.*

Xoja Samarqandda Tangri taolo rahmatig'a bordi va o'z xonaqohida **jadd**ining **gunbaz**ida **madfundur**.

«Majolis un-nafois»

**134-mashq.** Ajratilgan so'zlar qaysi turkumdagi so'zlarga bog'lanib kelayotganini, lug'atdan esa ularning ma'nosini aniqlab, lug'at daf-taringizga ko'chiring.

**Izoh uchun so'zlar:** *ulug', ilmlar, bobo, avlod, dafn etilgan, islom huquqshunosligi.*

**126-topshiriq.** Matn mazmunini uchta gap bilan ifoda eting.

**127-topshiriq.** Uch gap mazmunini bir sodda gapda bering.

**135-mashq.** Tuzgan sodda gapingizni matnning asosiy g'oyasi bilan qiyoslang va qayta ishlang.

**136-mashq.** Ma'nodosh so'zlar lug'atidan foydalanib, matndagi aniqlovchi vazifasida kelgan so'zlarni ma'nodoshlari bilan almashtirish mashqini bajaring.

**Foydalanish uchun so'zlar:** *padari buzrukvor, ota, shamshod, tik, sanobar.*



### Savol va topshiriqlar

1. *Matn qaysi alloma haqida?*
2. *Olim qayerlik?*
3. *U kishi fiqh ilmida qaysi darajaga ko'tarilgan?*
4. *Sayid Sharif kim?*
5. *Ustozi Navoiyga qanday munosabatda bo'lgan va nima deb murojaat etardi?*



### Uyga vazifa

**137-mashq.** Matndan parcha yod oling.

**128-topshiriq.** Mantiqiy zanjirdan tashqaridagi jumlani tanlang.

1. Adab irfon ilmi ichradur sham. (*Anbar Otin*)
2. Xulqi to'g'ri bo'lgan kishi to'rga chiqadi. (*Yusuf Xos Hojib*)
3. Har bir kishi kasb-korni mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-odob, fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak. (*Abu Nasr Farobiy*)
4. Hayot eng yaxshi murabbiydir. («*Otalar so'zi*»)
5. O'zingni shubhadin yiroq tut. (*Muhammad Siddiq Rushdiy*)

## 65–66-darslar

### NAZORAT ISHI VA TAHLILI

**129-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qing.

### ZAG'CHA VA QARG'ALAR

Bir Zag'cha o'z qavmidagi boshqa zag'chalardan bo'y-dorroq, bo'laliroq edi. Shu bois u o'z urug'idan jirkanib, qarg'alar jamoasi huzuriga bordi va ular bilan birga yashamoqchi bo'lganini aytdi. Ammo Zag'chaning turqi ham, ovozi ham qarg'alarga yot edi, shuning uchun bu qushga ro'yxush bermay, cho'qib-cho'qib haydab yuborishdi. Quvilgan Zag'cha o'z urug'lari oldiga qaytib keldi, lekin zag'chalar bu takabbur qushdan nafratlanib, uni jamoalariga qo'shmadilar.

O'zga yurtni afzal ko'rib, o'z Vatanini tark etgan kishilar shu Zag'chaga o'xshaydilar: begona yurtda qadr-qimmat topmaydilar, o'z Vatanlarida esa odamlar ulardan yuz o'giradilar.

«Ezop masallari»

**138-mashq.** Matnda tasvirlangan hodisaning sabablarini yozma bayon qiling.

**139-mashq.** Matnda ishora qilinayotgan shaxslarning xatti-harakati asosida ichki qiyofasini yozma tasvirlang.

**140-mashq.** Matnga yana bir nechta sarlavha toping.



#### Savol va topshiriqlar

1. Masalda qaysi jonivorlar ishtirok etdi?
2. Zag'chaning taqdiri nima kechdi?
3. Nega uni jamoaga qo'shishmadi?
4. Zag'cha hayotimizdagi qanday kishilar ramzi bo'lib kelgan?



#### Uyga vazifa

**130-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qing.

## TOVUSNING GO'ZALLIGI O'ZIGA DUSHMAN

Bir odam tovusning tumshug'i bilan qanotlaridagi go'zal, yaltiroq patlarni yulayotganini ko'rib qoldi. Chidolmay so'radi:

– Ey go'zal qush... Gunoh emasmi, shunday chiroyli, rang-barang patlaringni yulib tashlayapsan. Holbuki, sening go'zalliging shu patlaringdir. Hamma shu patlaringdan yelpig'ich qilish, ularni kitob sahifalari orasiga qo'yishni o'ylaydi, sen esa nima qilyapsan?

Tovus javob berdi:

– To'g'ri, lekin bu patlar mening jonimdan aziz emas. Chunki bu patlar tufayli meni ovlashadi, jonimga qasd qilishadi. Jon omon qolishi uchun xunuk bo'lishim kerak.

Jaloliddin Rumiy, «Masnaviy»

**131-topshiriq.** Tovus hayotda qanday odamlar timsoli deb o'ylaysiz? Tovusning javobini qanday baholaysiz? Uning xatti-harakatlari haqidagi fikringizni yozma bayon qiling.

## 67–68-darslar

### GAP BO‘LAKLARI TARTIBI

**141-mashq.** Berilgan gaplardagi gap bo‘laklarining odatdagi tartibini o‘zgartirib, nechta gap bo‘lagi bo‘lsa, shuncha miqdorda gap tuzing.

1. Oila farzandlardan boshlanadi. (*A. Gersen*) 2. Bolalar – jamiyatning hayotbaxsh kuchi. Ularsiz jamiyat jonsiz va sovuq ko‘rinadi. (*A. Makarenko*) 3. Dunyoda go‘dakning tilidan ko‘ra tantanaliroq gimn yo‘q. (*V. Gyugo*) 4. Bolalar mehnatga shodlik bag‘ishlaydilar, uning sharofati bilan hayot yanada shirin bo‘ladi. (*F. Bekon*)

**142-mashq.** Berilgan gaplardagi gap bo‘laklarini odatdagi tartib bo‘yicha joylashtiring.

1. Hammadan balanddir ona mansabi. (*Abdurahmon Jomiy*) 2. Boshni fido ayla ato boshig‘a, jismni qil sadqa ano qoshig‘a. (*Alisher Navoiy*) 3. Odamning mevasi farzand emish derlar bu dunyoda. (*Sayyodiy*) 4. Farzand mehri aritar g‘am zangini ko‘nguldin. (*Nodira*)

#### **Bilib oling**

O‘zbek tilida gap bo‘laklarining joylashish tartibi, asosan, erkin. Odatda, gapda ega va unga bog‘langan bo‘laklar oldin, kesim va unga bog‘langan bo‘laklar keyin joylashadi, ba‘zan aksincha ham bo‘ladi: **Bu yo‘llar menga tanish. – Menga tanish bu yo‘llar.**

Eganing ko‘proq gap boshida, kesimning, asosan, gap oxirida (*Men keldim*), hol (*ohista gapirdi*) va to‘ldiruvchining kesimdan (*she‘rni yod oldi*), aniqlovchining egadan oldin (*qizil gul, do‘stimning akasi*) joylashuvi odatdagi, me‘yoriy tartibdir.

Ma‘no kuchaytirish uchun muhim bo‘lak kesim oldiga o‘tkaziladi. Masalan:

1. *Kecha akam samolyotda Farg‘onadan Toshkentga ketdi* (boshqa yerga emas, Toshkentga).

2. *Kecha akam samolyotda Toshkentga Farg‘onadan ketdi* (boshqa yerdan emas, Farg‘onadan).

3. *Kecha akam Farg‘onadan Toshkentga samolyotda ketdi* (boshqa narsada emas, samolyotda).

4. *Kecha samolyotda Farg‘onadan Toshkentga akam ketdi* (boshqa kishi emas, akam).

5. *Akam samolyotda Farg‘onadan Toshkentga kecha ketdi* (boshqa kuni emas, kecha).

Odatdagi tartib ilmiy va rasmiy uslub uchun mos bo‘lsa, o‘zgargan tartib og‘zaki va badiiy (ayniqsa, she‘riy) nutq uslubi uchun xos.

**143-mashq.** Quyidagi gaplardan qaysilarida gap bo‘laklarining odatdagi tartibi o‘zgargan.

I. 1. Gar bu gulshanda ano bo‘lsa gul-u sarv – ato, sen kabi tug‘mag‘usi sarvi gulandom o‘g‘ul. (*Ogahiy*) 2. Har bir daraxtning mevasi bor, ko‘ngilning mevasi esa farzanddir. («*Otalar so‘zi*») 3. O‘shal farzand birla shod bo‘lg‘ay, bori qayg‘usidin ozod bo‘lg‘ay. (*Sayyodiy*)

II. 1. O‘zing ham, moling ham otangnikidir. (*Hadis*) 2. Atoga kim bu yanglig‘ qilsa xizmat, o‘z o‘g‘lindin aningdek topg‘ay izzat. (*Quth*) 3. Namozni bomdoddin keyin volidangni ziyorat qil va xizmatida bo‘l. (*Muhammad Siddiq Rushdiy*)

III. 1. Jannat onalar oyog‘i ostidadir. (*Hadis*) 2. Otalarning do‘stligi bolalarni yaqinlashtiradi. («*Otalar so‘zi*») 3. Ota-ona behad bo‘ladi xursand, farzand bo‘la olsa munosib farzand. (*Muhammad Javhar Zamindor*)

**144-mashq.** Berilgan she‘riy parchani diqqat bilan o‘qing. Gap bo‘laklari qanday joylashganligini aniqlang. Gap bo‘laklari noodatiy tartibining sabablarini tushuntiring.

Farzand ota qullug‘in chu odat qilg‘ay,

Ul odat ila kasbi saodat qilg‘ay.

Har kimki otog‘a ko‘p rioyat qilg‘ay,

O‘g‘lidin anga bu ish siroat qilg‘ay.

*Alisher Navoiy*



### Savol va topshiriqlar

1. Odatda, gap bo‘laklari qanday tartibda bo‘ladi?
2. Gap bo‘lagini kesimning oldiga o‘tkazmay ham, ma‘nosini ta‘kidlash mumkinmi?
3. Ilmiy va rasmiy uslubda gap bo‘laklarining odatdagi tartibiga rioya qilinmasa, nima bo‘ladi?
4. She‘riy matnlarda gap bo‘laklarining o‘zgargan tartibi qanday ehtiyojlar asosida sodir bo‘ladi?



### Uyga vazifa

**132-topshiriq.** Sutka qismlarini ifodalovchi soʻzlar lugʻatini tuzing va nutqda qoʻllash uchun eslab qoling. Bunda ota-onangiz, buvi-buvalaringiz yordamidan foydalaning. «Kim koʻproq topadi?» musobaqasiga tayyorlaning.

## 69–70-darslar

### MATN VA LUGʻATLAR BILAN ISHLASH

**133-topshiriq.** Matnni diqqat bilan oʻqib chiqing.

#### SOʻZ SEHRI

##### 1. Hukmnoma

Oʻxshamagʻan yerda bir xotinning arzga kelishi qoʻr-boshining koʻngliga shubha soldi. Majhula xotinning qanday arzi boʻlgʻanligʻini bilib ketishka tilasa ham, qushbegidan ruxsat olib qoʻygʻani uchun mahkamadan chiqishga majbur edi.

Qoʻrboshi mahkama eshigidan dahlizga chiqar ekan, eskigina paranjiga oʻralgʻan bir xotin qushbegi toʻgʻrisigʻa toʻxtab, bukilib taʻzim qildi. Xotinda hayajon va entikish holatlari bor edi.

Shuning uchun qoʻrboshining boyagʻi shubhasi yana kuchaydi, qushbегining koʻzidan yoʻqolib turish maqsadida oʻzini eshikning orqasiga olib, ketmay toʻxtadi.

Xotin shoshilib kavshini yeshdi-da, eshik ostida nimanidir paranji ichidan oxtarindi. Xotinning bu harakatiga tushunolmay ajablangan qushbegi:

– Ichkariga kirib arzingizni soʻzlang, opa, – dedi.

Xotin ichkariga kirdi va qushbegi oldigʻa borib, unga nimadir berdi-da, orqasigʻa qaytib, eshik yonigʻa kelib turdi. Xotinning berib ketkan narsasi uch, toʻrt buklangan bir qogʻoz edi. Qushbegi sekin-sekin qogʻoz taxtlarini ocha boshladi...

– Xudo rizosi uchun tezroq. Yoʻqsa... ikki gunohsizning qonlarigʻa botarsiz!

Xotinning bu soʻzidan aʻyon bir-birlariga qarashdilar. Qushbegi tez-tez qogʻoz taxtlarini ochib bitirdi va yoʻgʻon qalam bilan yozilgan uzun bir maktubni oʻqimoqqa oldi.

Maktubni o‘qub chiqish uzoqqa cho‘zilg‘anliqdan nihoyatda toqatsizlashgan edi.

Oxirda qushbegi maktubning so‘ngrog‘ig‘a kelib to‘xtadi-da, chaqirdi:

– Pirmat, Pirmat!

## 2. Maktub

«Qudamiz Mirzakarim qutidorg‘a va qudachamiz xoning‘a yetib ma‘lum bo‘lg‘aykim, bizlar munda sog‘-salomatdirmiz va ul jonibdagi siz hurmatlik va izzatliklarni Parvardigori olamdin sihatlaringizni saloti xamsa oldida so‘rab turmoqdamiz. Ba‘daz maxfiy qolmag‘aykim, kuyav o‘g‘lingiz xizmatlariga yuborilg‘an edi. Inshoolloh, salomat yetkan bo‘lsa kerak. Ammo siz hurmatlilarga ma‘lumdir, bizning shul Otabekdan o‘zga farzandimiz bo‘lmay, dunyoda o‘zimizdan keyin qoldiraturg‘an tuyoqimiz va ko‘z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir. Muhtaram siz burodarimizning shul yagona o‘g‘limizni farzandlikka qabul qilib, ammo bizning kelin bolamizni Toshkandga yubormag‘anlari bizning janoblaridin bo‘lg‘an minnatdorlig‘imizni va yana o‘g‘limizg‘a bo‘lg‘an marhamatlarini biroz tugallay olmadilar. Ammo kaminalari bu xusudagi aybni sizning ustingizga butunlay yuklay olmaymiz, zeroki, bizning boshimizda bo‘lg‘an «yolg‘iz tuyoqliq» savdosi sizning ham boshingizda bordir. Nachukim, Otabekning ko‘p umri Marg‘ilonda o‘tib, bizlarni ham siz o‘ylag‘an og‘irliqqa solmoqdadir. Birodari aziz, siz manim bu so‘zlarimdin xafa bo‘la ko‘rmangiz, zeroki, faqiringiz bu so‘zlarni bir yo‘sin kelish vajhidin yozib o‘tdimiz. Dunyo orzu-havas uyi derlar. Yuqorida bayon qiling‘anidek va o‘zlari bilganlaridek, ayniqsa, qudachalarining dunyoga kelib kutkani shu yolg‘iz o‘g‘ulning orzu-havasidir. Janoblari bul ishka haq berurlarmi, yo‘qmi, ammo azizlarning ruxsatlarini olmasdanoq Otabekni Toshkanddan ham taalluqdor qilmoqchi bo‘lib, bul ma‘niga ba‘zi harakatlarini qilib qo‘ygan erdik. Bizlarning bul ra‘yimizga o‘g‘lingiz qarshi tushib harchand rad qilsa ham, nihoyatida onasining so‘zini yerda qoldirmasliq uchun qabul qilg‘an erdi. Ammo bul to‘g‘risidag‘i siz janoblarining ruxsatlaringiz ba‘dida javob bermakchi bo‘lib, xizmatlariga



ketkan erdi. Siz hurmatlilar bul ma'nini savob toparsizlarmi-yo'qmi, bu jihati yana marhamatlaringizga bog'liqdir. Bu maktubni yozishdan qasdimiz shulkim, Otabekning u ikkinchi taalluqqa aslo ra'yi bo'lmay va yana sizlarga aytmay bul tarafda bizlarni xijolat chekdirib qo'yarmi, deb o'yladiq. Burodari kiromi, siz dunyo ko'rgan bir kishisiz, onasining bu talabini xo'b mulohaza qilib ko'ringiz, bu to'g'ridag'i ra'yi o'g'lingizga qarag'anda ham faqirlaricha sizlarda bo'lg'ani vajhidin, albatta, ko'ndirishka sa'y va ko'shish qilursiz, deb ishonamiz. Otabekning ikkinchi taalluqi to'g'risida kelin bolamizg'a bildirilmasa xo'b erdi.

Bizlarning xursandchiliklarimiz yo'lida Otabek bilan birga Toshkand tushib, o'z qo'llari bilan to'yimizni o'tkazishingizga ishonib Yusufbek hoji va qudachalari. 17-savr oyida 1265-hijriyada yozildi».

**134-topshiriq.** Tushunmagan so'zlaringizni yozing va izohli lug'atdan ma'nolarini aniqlang.

**145-mashq.** Matndan belgi bildiradigan so'zlarni ajrating.

**135-topshiriq.** Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni toping.

**136-topshiriq.** Ushbu matndagi belgi bildiruvchi so'zlarning ma'nodoshini lug'atdan topib, lug'at daftaringizga ko'chirib oling.

**146-mashq.** Matnning asosiy mazmunini uch jumlada yozma bayon qiling.

**137-topshiriq.** Matndan o'zingiz bilmagan qanday yangi hayotiy haqiqat mavjudligini ayting.

**147-mashq.** Matn mazmunini og'zaki bayon qilish bo'yicha «Ifodali nutq» nominatsiyasida chiqish qiling.



### Savol va topshiriqlar

1. Matnning sarlavhasini yana qanday qo'yish mumkin?
2. Sarlavhani gap holiga keltirib, qayta tuzing.
3. Matnni o'qish jarayonida o'zlashtirgan so'zlaringizni ma'nosi bilan yoddan ayting.



### Uyga vazifa

**138-topshiriq.** Qasd, vajh, taalluq, birodari kirom, say', ko'shish kabi so'zlarning izohini quyidagilar orasidan aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling.

**Izoh uchun so'zlar:** albatta amalga oshirish ko'zda tutilgan, jazm etilgan qat'iy niyat; azm-u qaror, ahd; uylanish, aloqador bo'lish; sabab, asos; muhtaram, ulug' birodar, sa'y va harakat.

## 71-dars

### GAP URG‘USI

**148-mashq.** Gaplarni ko‘chiring. Har bir gapdagi asosiy e‘tibor qarati-  
layotgan bittadan gap bo‘lagini aniqlang.

1. Olim bo‘lishga ahd qilgan odam o‘z ilmini kasb qilib olmasligi va uni mol topish vositasiga aylantirmasligi lozim. (*Farobiy*) 2. Donishmand va olimlar xulqidan o‘rnak olish yaxshi xulqni tiriltiradi, yomonni yo‘q qiladi. (*Beruniy*) 3. Olimlarning ilmi xalqqa mash’aldur. Mash’al bo‘lgach qorong‘ida kishi adashmaydur. (*Yusuf Xos Hojib*) 4. Ustod, muallimsiz qolganda zamon, nodonlikdan qora bo‘lurdi jahon. (*Abdurahmon Jomiy*) 5. Ahli ma’ni guruhida zinhor, hech or aylama gadolig‘din. (*Alisher Navoiy*) 6. Pir oldida topqusi murodin biling, har kimki agar shogirdi sodiq bo‘lg‘ay. (*Bobur*)

**149-mashq.** Har bir gap bo‘lagini kesimning oldiga navbatma-navbat qo‘yib gaplarni ko‘chiring. Gap mazmunida qanday o‘zgarish bo‘layotganini aniqlang.

1. Dono suhbatidin bosh tortsa nodon, davrondan yaxshilik ko‘rmas hech qachon. (*Abdurahmon Jomiy*) 2. Hech kim ustodsiz topmas jahonda izzat-u joh, nechakim hashmat bila Iskandari davron erur. (*Poshshoxo‘ja*) 3. Oqillar oldida aql tarozisiga sig‘magan so‘zlarni gapirsangiz, xijolatda qolasizlar. (*Ahmad Donish*) 4. O‘z shogirdlarida mehnatdan zavqlanish xislatlarini uyg‘ota bilgan muallim sharaflarga loyiq. (*E.Xabbard*) 5. Tarbiyada butun ish tarbiyachining kim ekanligiga bog‘liq. (*D.Pisarev*) 6. Tarbiyachi o‘z tarbiyalanuvchilarini qanday ko‘rishni istasa, avvalo, uning o‘zi o‘shanday bo‘lmog‘i lozim. (*V.Dal*)



#### Bilib oling

Gapda so‘zlovchi tomonidan alohida ahamiyat berilib, ta’kidlab ko‘rsatilgan bo‘lakning kuchli ohang bilan aytilishi **gap urg‘usi** (yoki **mantiqiy urg‘u**) deyiladi. Gap urg‘usini ixtiyoriy ravishda ko‘chirish mumkin:

1. Kecha muzeyga **biz** bordik (biz bordik).
2. Biz muzeyga **kecha** bordik (kecha bordik).
3. Biz kecha **muzeyga** bordik (muzeyga bordik).

4. **Bordik** biz kecha muzeyga (bordik).

Ko‘rinadiki, asosiy fikr gap urg‘usini olgan bo‘lakka qaratilgan bo‘ladi.



### **Eslatma**

Kesim mantiqiy urg‘u olganda gapdagi o‘rni o‘zgaradi.

**150-mashq.** Matndagi gaplarning mantiqiy urg‘usini aniqlang.

## **UZUM HAQIDA MASAL**

Bir-birini tushunmaslik do‘stni dushmanga aylantirishi haqida Rumiyning shunday masali bor.

Turli tilda turlicha aytilgan bir so‘z ba‘zan o‘zaro nizoga sabab bo‘ladi. Turk, arab, fors va yunon millatidan bo‘lgan to‘rt nafar yo‘lovchiga bir saxiy odam tanga hadya etadi.

Yo‘lovchilar o‘rtasida tangani qanday sarflash borasida janjal chiqadi. Forsiy tilda so‘zlovchi yo‘lovchi sheriklariga:

– Yuringlar, bozorga boramiz-da, angur sotib olamiz, – deydi.

– Ey firibgar! – uning so‘zini bo‘ladi arab. – Men angur emas, eynab yeyishni xohlayman!

Turkiy yo‘lovchi esa ularning har ikkisiga e‘tiroz bildirib, shunday deydi:

– Birodarlar, nega shovqin ko‘tarasiz, balki bu pulga uzum sotib olarmiz?

Yunonistonlik yo‘lovchi esa:

– Qanday odamsiz o‘zi. Kelinglar, stafil sotib olamiz-da, maza qilib yeymiz, – deydi.

Shu tariqa to‘rt yo‘lovchi bir-birini tushunmay, janjallashib qoladilar. Aslida ular aynan bir narsani istashardi. To‘rt yo‘lovchi bilimsizlik, nodonlik tufayli bir-birlarini rosa do‘pposlashdi.

Agar ularning orasida bu tillarni biladigan odam bo‘lganda, bir so‘z bilan nizoga chek qo‘yishi mumkin edi.

*Jaloliddin Rumi, «Masnaviy»*



### Savol va topshiriqlar

1. Gap urg'usi deb nimaga aytiladi?
2. Gap urg'usi qanday hosil qilinadi?
3. Kesim urg'usi qanday yo'llar bilan hosil qilinadi?
4. Gap urg'usining qo'llanishi nutq uslublarida farqlanadimi? Misol keltiring.



### Uyga vazifa

**139-topshiriq.** Gap bo'laklarining odatdagi tartibiga «Matematika» darsligidan va o'zgargan tartibiga «Adabiyot» darsligidan 2 tadan misol toping. Gap urg'ularini aniqlang.

## 72–73-darslar

### MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH

**140-topshiriq.** Matnni ifodali o'qishni mashq qiling.

#### SEN MENI ANGLAR BO'LSANG...

##### Hikoyat

Bog'bone bor edi bas behunar,  
Bog'bonliq san'atidin bexabar.

Ne shajar payvand qilmoq shevasi,  
Kim halovat hosil etkay mevasi.

Ne yog'och parkovi birla parvarish —  
Aylab olibkim, shajar qilg'ay ravish.

Vaqt ila ne dona sochmog'in bilib,  
Kim farah qilg'ay guli hosil qilib.

Bog' aro anborkashlig' birla xush,  
Bog'bon yo'qkim, degil anborkash.

Chun ko'rub bu nav' ranj-u tob anga,  
Pandlar deb ahli xush ahbob anga.

Kim bu behosil ishingni tark tut,  
O'zni bir hosilliq ish birla ovut.

Johil ul mehnatdin o'lmay mujtanib,  
Erdi ul mehnat chekorga murtakib.

Toki bir jo‘ya aro kesmakta tok,  
Ayladi oni yilon sanchib halok.

*A.Navoiy, «Lison ut-tayr»*

**141-topshiriq.** Matndan 1-ustunga olingan so‘zlarning ma’nosini 2-ustundagi izohlar orasidan aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va yod oling.

**151-mashq.** Har bir band mazmunini avval she’riy ifodali o‘qib, keyin nasriy bayon qilishga tayyorlaning.

shajar	meva
parkov	daraxt
farah	o‘yish quroli
anborkashlig‘	hazar qiluvchi
ahbob	egallangan, kirishgan
mujtanib	xas-xashak tashuvchilik
murtakib	saodat
	do‘st

**142-topshiriq.** «Namunali ifodali o‘qish», «Eng yaxshi nasriy matn» bahsida ishtirok eting.



### Savol va topshiriqlar

1. Hikoyat kim haqida?
2. Bog‘bonning qanday salbiy xatti-harakatini sezdingiz?
3. Unga qanday maslahat berishdi?
4. Bog‘bon qanday yo‘l tutdi?
5. Hikoyat qanday yakun topdi?



### Uyga vazifa

**152-mashq.** Matnni she’riy va nasriy shaklda yod oling.

**153-mashq.** Matndagi fikrlarni muhokama qilib, munosabatingizni bildiring va xulosangizni yozma bayon eting.

## 74-dars

### TO‘LIQ VA TO‘LIQSIZ GAPLAR

**154-mashq.** Gap juftliklaridagi birinchi gaplarga asoslanib, ikkinchi gaplardagi tushirib qoldirilgan bo‘laklarni tiklang.

1. Bir hakimdan:
  - Qaysi taom eng xushbo‘y va lazzatli? – deb so‘rabdilar.
  - Qorin och paytda yeyilgan taom, – debdi hakim.

2. Bir kishi tabibga mazasi qochayotganini aytibdi.  
Tabib:

- Bugun nima yeganding? – deb so‘radi.
- Uch botmon yarmi kuyuk go‘ja, – debdi bemor.

Tabib unga:

– Sen yanglishibsan, mol tabibining oldiga borgin, men odamlarning tabibiman, – debdi.



### **Bilib oling**

Barcha zarur bo‘laklari mavjud gap to‘liq gap deyiladi.

Tushirilgan bo‘laklari oldingi gaplardan anglashilib turadigan gap to‘liqsiz gapdir.

**143-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o‘qib chiqing. Gaplardagi qaysi gap bo‘laklarining tushirib qoldirilganligini aniqlang.

Bir olimdan so‘rbdilar:

- Ukangni ko‘proq yaxshi ko‘rasanmi, do‘stingnimi?
- Ukamni, – deb javob beribdi u. – Agar do‘st bo‘lsa!..

**155-mashq.** Gap juftliklarini o‘qing. Ikkinchi gaplardagi ortiqcha so‘zlarni aniqlang. Ularni tushirib qoldirib, gaplarni ko‘chiring. Tushirib qoldirish sabablarini tushuntiring.

1. Behuda urinsang, poyoni bo‘lmas,  
O‘ylanib qilsang, ziyoni bo‘lmas.
2. Tuya mingan uzoqni ko‘zlar,  
Eshak mingan yaqinni ko‘zlar.
3. Qizni beshikka sol,  
Sepini sandiqqa sol.
4. Har ishning chamasi bor,  
Har daryoning kemasi bor.

*O‘zbek xalq maqollari*



### **Savol va topshiriqlar**

1. Qanday gap to‘liq gap deyiladi?
2. To‘liqsiz gapni ta‘riflang.
3. To‘liqsiz gaplar muallif (so‘zlovchi)ning qanday maqsadini namoyon qiladi?
4. To‘liqsiz gapning tinglovchi (o‘quvchi)ga ta‘siri qanday bo‘ladi?
5. To‘liqsiz gap inson tabiatidagi qanday xususiyat bilan bog‘liq?



### **Uyga vazifa**

**156-mashq.** Masalni o‘qing.

## BUG‘U VA UZUMZOR

Bir bug‘u ovchilardan qochib uzumzorga yashirindi. Ovchilar uni ko‘rmay bog‘ yonidan o‘tib ketishdi. Shunda falokatdan qutuldim deb ko‘ngli taskin topgan bug‘u tok barglarini yeya boshladi. Lekin ovchilardan biri shu payt tasodifan orqasiga o‘girilib, bug‘uni ko‘rib qoldi va kamondan o‘q otib uni yaraladi. Ajali yetganini sezgan jonivor og‘ir bir nola chekib o‘ziga o‘zi dedi: «Eh qanday sho‘r-peshonaman! Qilmishimga yarasha jazomni oldim: bu tok meni o‘limdan qutqarib qolgan edi, men bo‘lsam uni nobud qildim».

«Ezop masallari»

### 157-mashq. Matnga muvofiq bo‘lgan fikrlarni toping.

1. Kishi o‘z yaqinlarining dilini og‘ritsa, Xudoning qahriga uchraydi. 2. Ba‘zi kishilar kichik bir xatardan o‘zlarini olib qochib, katta falokatga ro‘para bo‘lganlarini sezmay qoladilar. 3. Masal deydiki, biron kimsaning makr-u hiylasiga uchrab pand yegan dono odam, bir toshga ikki marta qoqilmaganidek, boshqa hech qachon aldovga uchmaydi.

## 75-dars

### MATN VA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH

#### 144-topshiriq. Gaplarni diqqat bilan o‘qib chiqing.

### SAYYOR SO‘ZLAR

1. Hindistonning qoramtir changalzorlarini, qalin bambukzorlarini, ya‘ni **junglini** ko‘rish uchun ertalab yo‘lga chiqish ma‘qulligini aytishdi. (*Z. Akramov, «Hindiston lavhalari»*)

2. Hurmatli **jiyuri** a‘zolari, loyihalarga yetti o‘lchab, bir kesib baho bering, agar shoshqaloqlik qilsangiz, odamlar kechirishmaydi. (*Gazetadan*)

3. Achechiq va hidli dorilar alohida **jelatin** g‘ilofida ichiladi. (*N. Ismoilov, «Kasallarni parvarish qilish»*)

#### 145-topshiriq. Matndagi ajratilgan so‘zlarning ma‘nolarini berilgan lug‘atdan o‘qing, lug‘at daftaringizga ko‘chirib yozing va eslab qoling.

1. **Jelatin** (fr. *gelatine* – dirildoq, yelimshak; lot. *gelatus* – muzlagan) Yosh mol suyagi va terisidan tayyorlanadigan bir nav yelimshak modda.

2. **Jungli** (ing. *jungle*; f.-hind – changalzor, o‘rmon) Chakalak, qalin o‘rmonzor.

3. **Jyuri** (fr. *jury* – hakamlar guruhi; lot. *jur* – qasam, ont ichaman; qasamyod qilaman) Musobaqa, tanlov va shu kabilarda g‘oliblikni va mukofot berishni belgilovchi mutaxassislar, hakamlar guruhi.

**146-topshiriq.** Matndagi so‘zlarni mavzuiy guruhlariga ajrating.

**158-mashq.** Har bir mavzuiy guruhni yangi so‘zlar bilan boyiting.



### Savol va topshiriqlar

1. Sayyor so‘zlar deganda nimani tushunasiz?
2. So‘zlar nega bir tildan boshqasiga ko‘chadi?
3. Bir nechta tilda ishlatiladigan so‘zlarga misol ayting.



### Uyga vazifa

**147-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o‘qing.

## HIKOYAT

Ikki xurosoniy **faqir** bir-biri suhbatina **mulozim** bo‘lur, sayohat qilur edilar. Biri zaif va biri **qaviy** edi. Zaif kunduz **uruj** tutar, kecha iftor etar, **dag‘i** qaviysi kunda uch navbat yemak yer. Bir kun bularni bir shaharning eshikinda josus deb tuhmat bilan tuttilar.

Ikkisini bir evga soldilar, dag‘i eshikni mahkam bekitdilar. Bir jum‘adan so‘ngra ma‘lum qildilarkim, **yozuqlari** yo‘q emish, kelib ko‘rdilarkim, qaviysi o‘lmish, zaifi salomat qolmish. Taajjub qildilarkim, nechuk bo‘ldi deb. Bir hakim hozir edi. Aytti:

«Agar munung **xilofi** bo‘lsa, ajab bo‘lg‘ay edi. Ul biri ko‘p yer edi, ochliqqa toqat keturmadi, o‘ldi. Dag‘i bu biri oz yer edi, odatincha sabr etib salomat qoldi».

*Sayfi Saroyi, «Guliston bit-turkiy»*

**148-topshiriq.** Matndagi ajratilgan o‘zlashma so‘zlarning ma‘nosini aniqlang va lug‘at daftaringizga ko‘chiring hamda yodlang:

- 1) kambag‘al, oddiy; bechorahol; 2) kuchli, baquvvat; 3) quloq soluvchi, xizmatkor; 4) ro‘za, tiyilish; 5) tag‘in, yana; 6) gunoh, ayb, qilmish; 7) farq, tafovut.



## Mustahkamlash darslari

### 76–77-darslar

#### GAPNING IKKINCHI DARAJALI BO‘LAKLARI YUZASIDAN TAHLIL

**149-topshiriq.** Matni diqqat bilan o‘qing.

#### ULUG‘BEKNING SHOGIRDI

Sulton Ulug‘bekning Ali Qushchi degan shogirdi bor edi. Ulug‘bek uni shunchalik yaxshi ko‘rib, hurmat qilganki, bunga boshqalar hasad qilisharkan. Ulug‘bek buni bilar, ammo o‘zini bilmaganlikka solib yurar ekan. Bir kuni Ali Qushchi shahardan tashqarida yashovchi onasinikiga borib, kasalga chalinib qolibdi. Odamlar: «Kimsan dunyoga dong‘i ketgan sulton shogirdini borib ko‘rarmikan yo tuzalib kelishini kutarmikan, balki odam yubortirib bu yerga oldirib kelarmikan?» – deb quloqlarini ding qilib turishibdi. Shogirdining betobligini eshitgan Ulug‘bek darhol buyuribdi:

– Yo‘l libosini keltiringlar, otlar hozirlansin! Alini ko‘rib, holidan xabar olib kelamiz.

Shunda bosh vazir bilan **shayxulislom**:

– Oliy hazrat, sizday ulug‘ bir zotning tagi past bir shogird bolani ko‘rgani uning kulbasiga borishingiz qanday bo‘larkin? Yaxshisi, bu fikringizdan qayting, – deyishibdi. Bu gapni eshitib, Ulug‘bekning jahli chiqibdi, lekin o‘zini bosib debdi:

– Ilm ahlini vaqti-vaqti bilan ziyorat qilib, holidan xabar olish savobdir. Bu yumush har qanday sulton-u xonlarga ham qarz, ham farz bo‘lmog‘i darkor. Qani, tez bo‘linglar, yo‘ldan saroy tabibini ham olib, tolibi ilm – suyukli shogirdimni ko‘rib, holidan xabar olib kelamiz, – debdi.

Hukm qat‘iyligini anglab, hamma yo‘lga otlanibdi.

*M. Murodov. «Allomalar ibрати»*

**150-topshiriq.** Matndan ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlang.

**159-mashq.** Berilgan so‘zlardan foydalanib, matndagi aniqlovchilarni sinonimlari bilan almashtiring.

**Foydalanish uchun soʻzlar:** istiqomat qilmoq, buyuk, muhtaram, oʻzga, mashhur, qaror, farmon.

**151-topshiriq.** Matnning umumiy xulosasini toping.

1. Ulugʻbek — fuqaroparvar sulton.
2. Ilm va maʼrifat homiysining zakovati.
3. Ali Qushchi — Ulugʻbekning sevimli shogirdi.

**152-topshiriq.** Matnni oʻqing va unga sarlavha tanlang.

Bir kuni Farobiydan soʻradilar:

— Kimning bilimi kuchliroq: senikimi yo Arastunikimi?  
Farobiy shunday javob qaytardi:

— Men oʻsha zamonda yashab, u bilan uchrashganimda va uning qoʻlida tahsil olganimda edi, uning eng yaxshi shogirdlari safidan joy olgan boʻlardim.

**153-topshiriq.** Yuqorida berilgan matndan toʻldiruvchilarni aniqlang.

 **Savol va topshiriqlar**

1. Ulugʻbekning sevimli shogirdi kim?
2. Nega odamlar unga hasad qilishadi?
3. Ulugʻbek hasadgoʻylarga nisbatan qanday yoʻl tutdi?
4. Farobiyning javobiga qanday munosabat bildirasiz?

 **Uyga vazifa**

**154-topshiriq.** «Ulugʻbekning shogirdi» matnidagi ajratilgan soʻzlarning maʼnosini aniqlang va lugʻat daftaringizga koʻchiring hamda yodlang:

1) islom dini boʻyicha eng yuksak maqomdagi olim; 2) talaba; bilim egallayotgan kishi.

**160-mashq.** Mantiqiy zanjirdan tashqaridagi jumlani tanlang.

1. Men insoniy axloqning asl mohiyatini anglab yetdim. Bu qimmatbaho neʼmat sukut saqlamoqlikdir. 2. Tilini tiysa kim bezgaklikda ham, baxt unga tez kunda boʻlgʻusi hamdam. 3. Bir paytlar qalbinga oltindan tamgʻa qoʻydim, bugun sukut saqlashni men oltinga yoʻydim. 4. Yaxshilik qilish qanchalik qiyin boʻlsa, tubanlikka yuz tutish shunchalar oson.

*Al-Maarriy*

**155-topshiriq.** Yuqorida berilgan hikmatlardan ikkinchi darajali boʻlaklarni aniqlang. Sinfda oʻtkaziladigan «Zukko tilshunos» musobaqasida sintaktik tahlilingiz bilan ishtirok eting.

## 78–79-darslar

### NAZORAT ISHI VA UNING TAHLILI

**156-topshiriq.** Berilgan mavzulardan birini insho yozish uchun tanlang.

1. Do‘stga himmat – oliy fazilat.
2. Yolg‘onning umri qisqa.
3. Hunar – zar.

**157-topshiriq.** Mavzungizga mos epigraf tanlang va reja tuzing.

**158-topshiriq.** Matnning xomaki nusxasini tuzing. Matnda hikmatli so‘z va maqollardan foydalaning.

**159-topshiriq.** Ijodiy ish matnida uchragan xatolaringizni diqqat bilan ko‘zdan kechiring.

**161-mashq.** Imloviy xatolar ro‘yxatini tuzing, xato yozilgan so‘zlarni imlo lug‘atiga qarab lug‘at daftaringizga ko‘chiring va eslab qoling.

**160-topshiriq.** Insho matnida uchragan uslubiy g‘aliz jumalarni qayta tuzing, guruhdoshlaringizga o‘qib bering.



**Uyga vazifa**

**161-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o‘qing.

### SHER VA SICHQON

Bir sichqon uxlab yotgan sherning ustidan pildirab o‘ta boshladi. Sher uyg‘onib ketib, sichqonni tutib oldi va uni yemoqchi bo‘ldi. «Sen, yaxshisi, meni qo‘yib yubor, – deb yolvordi sichqon, – kezi kelganda men ham bu yaxshiliging uchun seni falokatdan qutqaraman». Sher bu gapni eshitib, xaxolab kuldi va sichqonni qo‘yib yubordi. Lekin oradan biroz vaqt o‘tgach sichqon, chindan ham, sherga bergan so‘zining ustidan chiqdi – uni bir o‘limdan asrab qoldi. Gap shundaki, sher ovchilar tuzog‘iga ilinib qolgan va ular sherni arqon bilan daraxtga bog‘lab qo‘yishgan edi. Sherning nola chekib o‘kirganini sichqon eshitib qoldi va darhol uning oldiga yugurib keldi-da, arqonni kemirib, sherni tuzoqdan ozod qildi. So‘ng dedi: «U kuni ustimdan kulgan eding – senga yaxshilik qilishimga go‘yo ishonmaganday. Mana, endi sichqon ham minnatdorlik bildirishga qodir ekanligini bilib olding».

Bu masal ba‘zida eng qudratli, zabardast odamlar ham, taqdir taqozosi bilan, eng zaif kishilar yordamiga muhtoj bo‘lishlari mumkinligini ko‘rsatadi.


### 162-topshiriq. Matndagi asosiy fikrni aniqlang.

1. Ba'zida eng qudratli, zabardast odamlar ham, taqdir taqozosi bilan, eng zaif kishilar yordamiga muhtoj bo'lishlari mumkin.

2. Dushmaning bitta bo'lsa ham — ko'p, do'sting mingta bo'lsa ham — oz.

3. Do'st kulfatda sinaladi.

### 162-mashq. Berilgan diagramma mazmunini matnda ifodalang va unga sarlavha qo'ying.



## 7-BO'LIM

### UYUSHIQ VA AJRATILGAN BO'LAKLI GAPLAR, GAP BO'LAKLARI BILAN ALOQAGA KIRISHMAYDIGAN BO'LAKLAR

#### 80-dars

#### GAPNING UYUSHIQ BO'LAKLARI

**163-topshiriq.** Gaplarni ko'chiring. Ajratilgan gap bo'laklarining qanday so'roqqa javob bo'lishini, o'zaro qanday bog'lanayotganini (teng bog'lanish yoki tobe bog'lanish), qanday tinish belgilari ishlatilganini aniqlang.

1. O'zini ilmga bag'ishlaydigan kishi odamlarga mehribon, haqo'y; fisq-u fujur, gina, xiyonat, makr va xiyaladan xoli bo'lishi kerak. (*Farobiy*) 2. Faylasuflarning odati, axloqi ham o'z kasbiga loyiq, xuddi tug'madek bo'lishi kerak. (*Farobiy*) 3. So'zlashga berilgan kishi hikmat sharaftidan chetlashgan va mahrumdir. (*Alisher Navoiy*) 4. Olim-

ning yomonligi kemandi sinishiga o'xshaydi. Chunki kema sinsa ham o'zi cho'kib, ham o'zgalarni cho'ktiradi. («*Otalar o'giti*») 5. Oqillarga shafqat va mehribonchilik bilan muomalada bo'lib, so'ngra tavoze, odob bilan yordam qilinglar. (*Ahmad Donish*)



### Bilib oling

Grammatik jihatdan bir xil shakllanib, ko'pincha, bir xil so'roqqa javob bo'ladigan, o'zaro teng bog'langan va barchasi gapning bitta bo'lagiga tobelanadigan bo'laklar **uyushiq bo'lak deyiladi**.

Masalan: *Bola goh menga, goh unga qarar edi*.  
Gapning barcha bo'lagi uyushadi:

1) **uyushiq ega:** *Bugun Anvar yoki Sobir navbatchilik qiladi*;

2) **uyushiq kesim:** *U asta joyiga o'tirib, gapira boshladi. Yo'l keng va tekis edi*;

3) **uyushiq to'ldiruvchi:** *Kitob va daftarlarni keltirdi. Akamga va opamga xabar qildik*.

4) **uyushiq aniqlovchi:** *Salqin va bahavo bog'da dam oldik. Olma(ning) va shaftolining hosili mo'l bo'ldi*;

5) **uyushiq hol:** *Topshiriqni tez va puxta bajardik. Bugun va ertaga men navbatchilik qilaman. Shahar va qishloqda qurilish avjiga chiqqan. Quvonch va shodlikdan tili aylanmas edi. U shaharga o'qish va ishlash maqsadida kelgan edi. Men sizga o'n marta, yuz marta gapirdim*.

**164-topshiriq.** Gaplardagi uyushiq bo'laklarni aniqlang. Ularni shakl yasovchi qo'shimchalarning qo'shilishiga ko'ra ikki guruhga ajratib ko'chiring: 1) shakl yasovchi qo'shimchalar har bir uyushiq bo'lakka qo'shilgan so'zlar; 2) shakl yasovchi qo'shimchalar oxirgi uyushiq bo'lakka qo'shilgan so'zlar.

1. Donishmandlik haqiqatni so'zlamog va tabiatga qu-loq tutib, unga bo'ysunmoqlikdan iboratdir. (*Buqrot*)

2. O'zini anglash va fikrlash hamma odamlarga xosdir. (*Buqrot*)

3. Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidurlar. (*A.Avloniy*)

4. Adolatli, fanni sevuvchi aqlli hukmdor in-sonparvarlik munosabatlarini adolat talablariga moslashti-rib turishi kerak. (*Abu Ali ibn Sino*)

5. Ulamolalar suhbatida bo'l; pok, sof niyatli kishilarga talpin. (*Amir Temur*)

va muallimlar hurmatini o'rniga qo'rganlar bu dunyoda ham, oxiratda ham savob topadi. (*Koshifiy*)

### **Bilib oling**

1. Kesim uyushib kelganda uni shakllantiruvchi vositalar (zamon, shaxs-son, mayl, tasdiq-inkor shakllari, bog'lama va ko'makchi fe'llar) oxirgi bo'lakka qo'shiladi: *Mavzuni yaxshi tushunish uchun, avvalo, darsni diqqat bilan tinglash, berilgan topshiriqlarni bajarish, muntazam takrorlash kerak. Men uzoq yillardan buyon shu shaharda yashab, o'qib, ishlab kelyapman.*

Agar ushbu vositalar har bir kesimga qo'shilsa, bunday gap uyushiq kesimli sodda gap emas, qo'shma gap hisoblanadi: *Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi.*

2. Uyushiq bo'lakda ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchasi qo'llanishi ikki xil:

1) ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchasi uyushiq bo'lakning oxirgisiga qo'shilib, barchasiga tegishli bo'ladi:

*Noma va arizalarning ba'zisi mirzo, muftilarga havola qilinar edi;*

2) gapdagi uyushiq bo'lakning har birida son, egalik, kelishik qo'shimchasi qo'shilishi ham mumkin: *Qor sovug'i qo'llarimni va oyoqlarimni, peshonamni yalab tursada, menga juda yoqimli tuyuldi.*

**165-topshiriq.** Gaplardagi uyushiq bo'laklarni bog'lovchi vositalarni aniqlang.

1. Haqiqiy olimning so'zi, o'yi, fikri va ishi bir xil bo'ladi. (*«Otalar o'giti»*) 2. Nazariy bilimlardan hosil qilinadigan tushunchalar uzoq va chuqur tushunish, tekshirish, kashf — ijod, ta'lim olish va boshqalarga ta'lim berish yo'li bilan qo'lga kiritiladi. (*Farobiy*) 3. Er kishiga zeb-u ziynat hikmat va donishdur. (*A.Navoiy*) 4. Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-atvor, fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak. (*Farobiy*) 5. Olgil mandin nasihat, o'g'lim, ilm-u adab o'rgangin, bo'lub bilimli ulug' xalq ichida boshqag'a ilm-u adab o'rgatgin. (*Mahmud Koshg'ariy*) 6. Ilmli bo'lishga

intilish jumlayi mo‘min er va ayollarga oliy sharafdir.  
(*Mirzo Ulug‘bek*)

### **Bilib oling**

Gapda uyushiq bo‘lak sanash ohangi va teng bog‘lovchilar vositasida bog‘lanadi.

Gapning uyushiq bo‘lagi guruh–guruh bo‘lsa, bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratiladi: *Yutib chiqish uchun ot chopqir, zotdor bo‘lishi va yaxshi toblanib sovitilishi; chavandoz usta, epchil bo‘lishi kerak.*

### **Savol va topshiriqlar**

1. Uyushiq bo‘laklar qanday xususiyatga ega?
2. Uyushiq bo‘laklarda grammatik shakl qanday qo‘shiladi?
3. So‘z birikmasi va so‘z qo‘shilmasi tushunchalari uyushiq bo‘lakli gaplar bilan qanday aloqador?

### **Uyga vazifa**

**166-topshiriq.** Geografiya darsligidan uyushiq bo‘laklar ishtirok etgan 4 ta gap yozing. Ularning qaysi turkum so‘zlari bilan ifodalanganligini, qanday vositalar bilan bog‘langanini aniqlang.

**167-topshiriq.** Berilgan izohlardan *ulamo, fisq-u fujur, tavoze* so‘zlarining ma’nolarini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va qo‘llash uchun eslab qoling: 1) o‘zini xokisor, odob bilan tutish; 2) g‘iybat, gunoh ishlar, axloqsiz amallar; 3) islom dini olimlari.

## **81–82-darslar**

### **MUMTOZ MATN VA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH**

**168-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o‘qib chiqing.

#### **DONISHMAND USTOZ**

Abu Ali ibn Sinoning qo‘lida ta’lim olish, unga shogird bo‘lish katta **sharaf** edi. Kunlardan bir kun ikki ota o‘z o‘g‘illarini Ibn Sinoga shogirdlikka bermoqchi bo‘lishdi.

– Ey ulug‘ tabib, huzuringizga bolalarimizni olib keldik. Tarbiyangizga olib, shogirdlikka qabul qilsangiz. **Zora** sizga o‘xshab tabib bo‘lib yetishsalar, – deyishdi. Ibn Sino rozilik bildirib, ularni sinab ko‘rib shogirdlikka olishini

aytdi. Ibn Sinoning bir odati bor edi. Kim unga shogird tushmoqchi bo'lsa, oldin sinovdan o'tkazar, so'ng tabiblik ilmini o'rgatar edi.

– Bolalarim, – dedi kelgan yigitlarga qarab, tog'-u toshlar kezing, cho'l-u biyobonlar oralang-da, har biringiz ming donadan o't-giyoh terib kelinglar.

Ibn Sino shunday dedi-da, har birining qo'liga xalta berdi. Oradan bir necha kun o'tdi. Bolalarning birinchisi kelib, yig'gan giyohlarni Ibn Sinoning oldiga to'kdi. Hammasi shifobaxsh giyohlar edi. Buni ko'rgan Ibn Sino quvonib so'radi:

– Barakalla, o'g'lim, eng **dorivor** giyohlarni teribsana. Endi bir savolimga javob bersana. Qani ayt-chi, oyoq **qabarishiga** nima davvo bo'ladi?

– Mening tabiblikdan xabarim yo'q, – dedi bola, – sizga o'zim endi shogird tushdim-ku.

Ibn Sino: «Shu o'n kun orasida **nabotot** ichida yurib tabiblikdan **alifni** o'rganmabsanmi, sendan tabib emas, olibsotar chiqadi» – dedi ko'nglida. So'ng ovozi chiqarib:

– Senga javob, o'g'lim, ketaver! Borib olibsotarga shogird bo'l! – dedi.

Oradan bir kun o'tgach, ikkinchi bola yetib kelib, to'plagan o'tlarni **hakimning** oyog'i ostiga to'kdi. Ibn Sino juda xursand bo'lib:

– Barakalla, bo'tam, qani menga ayt-chi, oyoq qabarganiga nima davvo bo'ladi? – deb so'radi.

– Yovvoyi rayhon yoxud yalpizni suvda ivitib, ozgina **tosh tuzdan** qo'shib yuvish kerak, – javob qildi bola.

– Cho'l-biyobonda qolding-ku, suv topolmading deydik, chanqoqni nima bilan qondirish mumkin? – yana savolga tutdi Ibn Sino bolani.

– Yantoqning suvi chanqoqni qondiradi, ham **darmon** bo'ladi, – dadil javob berdi bola.

– Rahmat, o'g'lim, sen endi menga shogirdgina emas, farzand ham bo'lding!

**169-topshiriq.** Matndagi ajratilgan so'zlarning ma'nolarini berilgan izohlardan aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chirib yozing va qo'llash uchun eslab qoling: 1) faxrlanishga arziydigan narsa, biror ijobiy xislat, xizmat



yoki iqtidor tufayli xalq orasida taratilgan dong; 2) qani edi, koshki edi; 3) kasalliklarga davo bo‘ladigan va malham olinadigan yoki taomni xushxo‘r qiladigan modda; 4) o‘simliklar dunyosi, o‘simliklar; 5) ishlash, ishqalanish yoki kuyish natijasida bo‘rtma hosil bo‘lishi; 6) tirik organizmdagi quvvat, mador, kuch; 7) ko‘pincha, o‘tmishdagi o‘tkir tabib; donishmand, faylasuf.

**170-topshiriq.** Matndagi gaplarni mazmunan bog‘lovchi so‘zlarni aniqlang.

**163-mashq.** Matndagi siz uchun yangilik bo‘lgan hayotiy haqiqatni tavsiflang.

**164-mashq.** Matnga shaxsiy munosabatingizni yozma ravishda bayon qiling.

**171-topshiriq.** Matnga shaxsiy munosabatingizni og‘zaki nutq bo‘yicha «Shaxsiy fikr» bahsida namoyish qiling.



**Uyga vazifa**

**172-topshiriq.** Matnning biror parchasini (yoki to‘lig‘icha) yod oling.

## 83-dars

### UYUSHIQ BO‘LAKLI GAPLARDA UMUMLASHTIRUVCHI SO‘Z VA UNDA OHANG HAMDA TINISH BELGILARI

**173-topshiriq.** Gaplarni ko‘chiring. Uyushiq bo‘laklar, ular bilan oldin yoki keyin kelgan bo‘lak orasida tinish belgilarining qo‘llanishiga e‘tibor qarating.

1. Najot ikki narsada: taqvo bilan niyatdadir. Halokat ham ikki narsada: umidsizlik va mag‘rurlanishda. («*Sharq haqni topdi*») 2. Har narsada uch asosga: haqiqiy, halol va nafli narsalarga e‘tibor berish kerak. (*J.Marmontel*) 3. Ish bizni uch xil illatdan: zerikish, qusur, muhtojlikdan xalos etadi. (*F.Volter*) 4. Kelajak bundan buyon ikki xil toifa kishilar: aqliy va jismoniy mehnat kishisi qo‘lidadir. (*V.Gyugo*) 5. Insonni butun borliq: odamlar, buyum va narsalar, voqea-hodisalar, ammo, eng avvalo va aksar holdalarda, odamlar tarbiyalaydi. Bular orasida esa ota-onalar bilan o‘qituvchilar birinchi o‘rinda turadilar. (*Makarenko*) 6. Insonda hamma narsa: yuz ham, kiyim ham, qalb ham, fikr ham go‘zal bo‘lishi lozim. (*A.Chexov*)

## **Bilib oling**

Gapda uyushiq bo‘laklarni jamlovchi, umumlashtiruvchi so‘z bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha, belgilash, bo‘lishsizlik olmoshi va jamlovchi ot, jamlovchi son, shuningdek, so‘z birikmasi, kengaygan birikma umumlashtiruvchi so‘z bo‘lib keladi: **Uylar, daraxtlar, ko‘chalar** – **hammasi qorong‘ilik qa‘riga cho‘mdi. Ishga yangi qabul qilinganlar: Ahmad, Salim va Akbar boshliqning oldiga kirishsin.** Umumlashtiruvchi so‘z bilan uyushiq bo‘lak bir xil sintaktik vazifani bajaradi.

Umumlashtiruvchi bo‘lak uyushiq bo‘lakdan oldin kelsa, undan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: *Qudratning oldidan **ikki o‘rtog‘: Ilhom va Rustam chiqib keldi.*** Umumlashtiruvchi bo‘lak uyushiq bo‘lakdan keyin kelsa, undan oldin tire qo‘yiladi: *Shu hovli-joy, mana shu daraxtlar, kursi, so‘ri – **hammasi** – meniki.*

### **174-topshiriq.** Uyushgan va uyushmagan aniqlovchilarni ajrating.

1. O‘zim ko‘rmadim, – dedi Oftob oyim, – ammo ko‘rguchilarning so‘zlariga qaraganda o‘xshashsiz ko‘rkam, tengsiz aqlli bir yigit emish... 2. Rayimbek dodxohning yonidagi bizga tanish olabayroq to‘nlik kishi Hasanalini ko‘rishi hamono: – Ha-a-a, bizning Hasanali-ku! – dedi, – kel, Hasan ko‘rishaylik, Otabek esonmi? 3. O‘tkir, qonsirag‘an xanjarini beliga osib, oyboltasini ko‘targan jallod qushbegining hukmiga muntazir edi. 4. Qushbegi tez-tez qog‘oz taxlarini ochib bitirdi va yo‘g‘on qalam bilan yozilgan uzun bir maktubni o‘qumoqqa oldi. 5. Xotin o‘ltirmakchi bo‘lg‘an edi paranji ichidan uning atlas ko‘ylaklari va nafis oq qo‘llari ko‘rinib ketdi. 6. O‘zining eski mahramiga ko‘ngli to‘lmay boshqa bir o‘yinchi, ashulachi, husndor bir mahram topmoqchi va o‘zining bu mashhur mahrami bilan yer yuzi (*Turkiston va Buxoro*)ga dong‘, shuhrat chiqarmoqchi!

*A. Qodiriy*

## **Eslatma**

Ketma-ket kelgan, lekin sanash ohangi bilan aytilmaydigan, yozuvda orasiga vergul qo‘yilmaydigan

aniqlovchi va hol **uyushmagan aniqlovchi** va **uyushmagan hol** hisoblanadi. Uyushmagan aniqlovchi va uyushmagan hol o'zi bog'langan bo'lakning turli tomoniga oid belgini anglatadi: **Qop-qora shirin** (uyushmagan aniqlovchi) *uzum g'arq pishgan. Kecha kechqurun* (uyushmagan hol) *yomg'ir yog'di. Bugun tushdan keyin* (uyushmagan hol) *boramiz.*

### Savol va topshiriqlar

1. Umumlashtiruvchi so'z nima?
2. Umumlashtiruvchi so'z qanday vazifa bajaradi?
3. Umumlashtiruvchi so'z qaysi o'rinlarda keladi?
4. Uyushiq bo'laklar uchun qanday finish belgilari qo'llanadi?
5. Uyadoshlik munosabati bilan uyushiq bo'laklar orasida qanday bog'liqlik bor?

### Uyga vazifa

**165-mashq.** Matndagi gaplarda ishtirok etgan uyushiq bo'laklar va umumlashtiruvchi so'zlar orasiga zarur tinish belgilarini qo'ying.

1. Bu xabarni eshitish bilan Otabekda ko'riladigan o'zgarishlarni... hollarni... harakatlarni... barchasini birma-bir ko'nglidan kechirar edi. 2. Otabekdagi sukut... xayol... fikr kabi holatlarni yulib... yulqib olib, ular o'rniga chechak donalari ekib, umid suvlari sepmakchi edi. 3. Ammo bu o'zgarishlar uning husnini... latofatini bir zarra ham kamitmay, balki o'n qayta oshirg'an edilar. 4. Zol juda nafis ishlangan edi: oltin qandildagi ellilab sham'larning nuri bilan munaqqash devorlarning oltin... kumush... ko'k-qizil... oq-pushti... sariq-qora gullari yulduzlardek yashnab, uyga bir xayoliylik berar edilar. 5. Majlisning shoirlari... o'yinchilari... childirma va dutorchilari ... barchasi ham hozir bo'lib, faqat Kumushbibigina hammomdan qaytmag'an edi.

A. Qodiriy

**175-topshiriq.** Berilgan izohlardan qandil, munaqqash, childirma, taxmon, sipar, chakmon so'zlarining ma'nolarini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va qo'llash uchun eslab qoling:

- 1) naqshlangan, naqshli, naqshdor; 2) bir necha sham yoki lampochka qo'yiladigan oyoqli yoki osma chiroq; chilchiroq, lustra; 3) yog'och gardishga teri qoplab yasalgan, chertib chalinadigan musiqa asbobi; doira, chirmanda, daf; 4) uy yoki ayvon devorida: sandiq o'rnatib, ustiga ko'rpa-to'shak yig'ib

qo'yiladigan tokchasimon maxsus joy; 5) qalqon, sovut; o'q, nayza, qilich kabi qurollar zarbidan saqlanish uchun qo'llangan, ko'pincha, doira shaklidagi qadimiy aslaha; qalqon; 6) odatda, jun matodan tikiladigan erkakcha uzun qishki to'n.

## 84–85-darslar

### MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH

176-topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qib chiqing.

#### QIL USTIDA TURGAN TAQDIRLAR

Mulla Fazliddin ertalab podshoh in'om qilgan **to'bichoq** otni mindi-da, shahar **dorug'asi** qabul qiladigan mahkamaga yo'l oldi. Uzun Hasan ismli ingichka, novcha dorug'a askarlikka odam olish va shaharni yaqinlashib kelayotgan dushmandan himoya qilish tashvishi bilan band ekan. Mulla Fazliddinning arzi qayoqqadir ketmoqchi bo'lib shoshilib turgan paytda tingladi-da:

– **Tarh**laringizga tegmay, hamyoningizni olib ketgan bo'lsa, bu – to'qaydan chiqqan o'g'rilarning ishi, – dedi. – **Yog'iy** tashvishidan qutulsak, to'qaylarni o'g'rilardan tozalagaymiz... Hozir ahvolni ko'rib turibsiz!..

Qo'l qovushtirib tikka turgan mulla Fazliddin dorug'aga yaqinroq keldi:

– Mening boshqa gumonim bor, janob dorug'a, – dedi. So'ng Ahmad Tanbalning surat chizdirmoqchi bo'lganini, rad javobi olganda esa achchiqlanib ketganini aytib berdi.

– Kimning surati? – deb dorug'a qiziqib qoldi.

Mulla Fazliddin Xonzoda begimning nomini tilga olishga qo'rqdi.

– Parilar suratimidi? Yaxshi tushunmadim.

– Sandig'ingizda parilar surati bormidi? Bosqinchilar shuni olib ketibdirmi?

– Surat o'zi bo'lmasa, neni olib ketsin! Men hazrati oliylari buyurgan madrasa tarhini chizish bilan bandmen. Suratkashlikka vaqtim yo'q. Sandiqda xomaki loyihalarim bor edi, xolos.

– Ular joyida qolganmi, axir? Undoq bo‘lsa Ahmadbekdan nechun gumonsiramogdasiz?

– Sababini aytdim, janob dorug‘a! **Taftish** o‘tkazishinigizni so‘raymen!

– Ahmadbek – sultonlar avlodidan ekanini unutgan bo‘lsangiz, men eslatib qo‘yay. Hazrati oliylarining katta xotinlari Fotima begim Ahmadbekka qarindosh bo‘lurlar. Fotima begimning chaqirig‘i bilan Sulton Ahmadbek bugun azonda poytaxtimiz Axsiga ketdilar.

«Agar o‘sha bek sandiqdagi suratlarni qo‘lga tushirsa, Axsiga eltib, podshoh oilasiga ko‘rsatmoqchi bo‘lganmi? – degan o‘y mulla Fazliddinning ichini muzlatib o‘tdi. – Bular mening qonimga shunchalik tashnami? Balki Ahmad Tanbal Xonzoda begimni ham shu surat orqali qo‘lga tushirmoqchidir? Hali uylanmagan bu bek podshohga kuyov va Xonzoda begimdek go‘zal qizga er bo‘lishni jon-dili bilan istasa kerak!»

**177-topshiriq.** Matndagi ajratilgan so‘zlarning ma’nolarini quyidagi izohlardan aniqlab, ko‘chirib yozing va eslab qoling: 1) chopqir, yo‘rg‘a ot; 2) shahar posbonlari sardori; 3) bo‘lib o‘tgan ish, hodisa va shu kabilar yuzasidan yoki haqiqiy ahvolni aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan tekshiruv; 4) chizma lavha: loyiha, reja; 5) dushman, g‘anim; 6) namoz o‘qishga chaqiriq; tong yorishish, g‘ira-shira payti; erta tong.

**178-topshiriq.** Matndagi bugungi iste‘molda qo‘llanmaydigan so‘zlarni ikki guruhga ajrating:

- 1) iste‘moldan chiqib ketgan so‘zlar;
- 2) o‘rnini boshqa so‘zlarga bo‘shatib bergan so‘zlar.

**179-topshiriq.** Matndagi so‘zlarni ikki guruhga ajrating:

- 1) barcha uslubda qo‘llanadigan so‘zlar;
- 2) badiiy uslubda qo‘llanadigan so‘zlar.

**180-topshiriq.** Matnni bir necha qismga ajrating va ularga alohida sarlavhalar qo‘ying. Bu sarlavhalarning bosh sarlavha tarkibiy qismlari bo‘lishiga erishing.



**Uyga vazifa**

**181-topshiriq.** Matnning biror parchasini (yoki to‘lig‘icha) yod oling.

## 86-dars

### AJRATILGAN BO‘LAKLI GAPLAR

**182-topshiriq.** Gaplarni ko‘chiring. Ajratilgan bo‘laklar bilan kursiv yozuvdagi bo‘laklar bir-birining ma‘nosiga qanday ta‘sir qilayotganini aniqlang. Ular orasida tinish belgilari qanday qo‘yilganini o‘rganing.

1. Tabiat inson qo‘liga **qurol** – *intellektual axloqiy kuch-qudratni* berdi, lekin u bu qurolni aks tomonga xizmat qildirishi ham mumkin, binobarin, axloqiy e‘tiqodi, jinsiy va did instinktlari pastkash bo‘lgan odam eng nopok va vahshiy kimsaga aylanib qoladi. (*Arastu*) 2. Biz ko‘proq yoki boshqacharoq **ko‘rishni**, *ya’ni muayyan narsada mavjud bo‘lmasa-da, boshqa bir narsada bor bo‘lgan nimanidir ko‘rishni* xohlaymiz. (*Parmenid*) 3. Hamma narsaning asosida **ikki ibtido**: *olov va yer* yotadi. (*Parmenid*) 4. Ichki idrok amriga bo‘ysunsang, katta inson bo‘lasan, **ikkinchi darajali** (*ya’ni, ko‘z va quloq sezgilari*) tuyg‘ularga amal qilsang, mayda odamga aylanasan. (*Men-Szi*) 5. Ayni vaqtda, «**muhmali g‘alla**», *ya’ni qop kiyadigan darajaga yetganini* ham aytib, o‘z ahvoliga kinoya qilmoqda edi. (*A. Qodiriy*) 6. Binoiy avvalgi ruboiysiga kamtarona baho berib, uni «**muhmal**» – «*xom*» deb atagani ham ajoyib edi. «**Muhmal**»ga «**musta‘mal**», *ya’ni «pishiqlik», «mukammal»* so‘zining ichki qofiya qilingani ham Boburga juda yoqdi, u munshiyini chaqirib, mulla Binoiy aytgan ruboiylarni yozib olishni buyurdi. (*P. Qodirov*)



#### Bilib oling

Gapda biror bo‘lakning ma‘nosi so‘zlovchi nazarida noaniqroq bo‘ladi va uning ma‘nosini aniqroq berish, izohlash maqsadida xuddi shunday boshqa bo‘lakni gapga kiritadi. Masalan, **Men ishni mana shundan boshladim** gapida **shundan** to‘ldiruvchisining ma‘nosi noaniq. Shuning uchun so‘zlovchi aniqroq ma‘noli boshqa bir to‘ldiruvchini gapga kiritadi: **Men ishni mana shundan, ya’ni tushuntirishdan, boshladim**. O‘zidan oldingi bo‘lakni izohlagan bunday bo‘lak **ajratilgan izoh bo‘lak** deyiladi. Ajratilgan bo‘lak quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) **ajratilgan to'ldiruvchi:** *Oyimni, ya'ni Xosiyat Suvonovani, mukofotlashdi.*

2) **ajratilgan aniqlovchi:** *Qobil bobo, yalangbosh, yalangoyoq, eshik yonida dag'-dag' titraydi.*

3) **ajratilgan hol:** *Uning qo'lidan ushlab ichkariga, mehmonxonaga, boshladi; Anjuman bugun, soat beshda, boshlanadi; Qo'llar ishlar tez – mo'jizakor; Shaharga borish uchun, ya'ni o'g'lini ko'rish uchun, ulov qidirdi; Bugun sizni yana, ikkinchi marta, kechirishdi.*

4) **ajratilgan izohlovchilar,** asosan, izohlanmishdan keyin keladi va o'ziga xos ohang bilan aytiladi. Ajratilgan izohlovchilar, ko'pincha, egaga taalluqli bo'ladi: *O'g'lim, qo'zichog'im, orom olib uxlayapti, – dedi ona. Birozdan so'ng Hasan oka, fizika o'qituvchisi, kirib keldi.*

**166-mashq.** Berilgan ilmiy matnni jadval ko'rinishida ifodalang va og'zaki bayon etishga tayyorlaning.

**167-mashq.** Gaplarni ko'chiring. Nuqtalar o'rniga ajratilgan bo'laklar qo'ying.

1. O'ziga yengil hayot axtargan – ... kishi chindan ham ayanchlidir. 2. Har g'aniy, ...ki, tirikligida ehsonidin ko'ngullarni shod qilmag'ay, o'lganidin so'ng ani kimsa duo bilan yod qilmag'ay. 3. Ahmoqona, ..., qanoatsiz yashash chakki yashash emas, asta-sekin o'lish demakdir. 4. O'zingdan keyingilarga avvalgidan ko'proq bilim va baxt qoldirishga, ..., intil, bizga meros qolgan narsalarni takomillashtirish va ko'paytirish, tinmay mehnat qilmo-g'imiz zarur bo'lgan soha mana shudir. 5. Harakatsizlik, ..., uzoq uyquga chalinish kasalligidir, xolos. 6. Hayot o'z holicha hech narsani anglatmaydi: hayotning qimmati, ..., unda qanday yashay bilish bilan bog'liq.



### Savol va topshiriqlar

1. Gap bo'laklari nega ajratiladi?
2. Qaysi gap bo'laklari ajratiladi?
3. Ajratilgan bo'laklar yozuvda qaysi tinish belgilari bilan ajratilishi mumkin?
4. Hol qanday ifodalansa, ajratilgan bo'lak sanaladi?



## Uyga vazifa

**168-topshiriq.** Gaplarni ko‘chiring. Qaysi gap bo‘lagi ajratilayotganini aniqlang.

1. Tirik ulki, undan keyin qolsa joy — hovuz, ko‘l-u ko‘prik-la karvonsaroy. (*Sa‘diy*) 2. Odam ikki marta yashamaydi, lekin bir marta — mazmunli yashashni ham bilmaydiganlar ko‘p. (*F.Ryukkert*) 3. Agarda razm solib qaralsa, aksariyat kishilar hayotining ko‘p qismi bo‘lmag‘ur ishlarga, anchaginasini bekorchilikka, umrning yaxlit o‘zi esa nokerak narsalarga sarflanadi. (*Seneka*) 4. O‘z hayotining mohiyatini bilmaydigan kishilarning, befarqlarning ahvoliga voy. (*V.Paskal*) 5. Farosatsizlik, axloqsizlik orqasida faqat huzur-halovatga mukkasidan ketganlarning, yengilyelpi fikrlovchilarning hayoti sariq chaqaga ham arzimaydi. (*I.Kant*)

**169-mashq.** Berilgan izohlardan *munshiy, ibtido, g‘aniy, instinkt* so‘zlarining ma‘nolarini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va qo‘llash uchun eslab qoling: 1) kotib, ish yurituvchi; 2) avval, boshlanish; 3) boy, nafsini tiygan; 4) tug‘ma sezgi.

## 87—88-darslar

### AJRATILGAN BO‘LAKLI GAPLARDA OHANG VA TINISH BELGILARI

**170-mashq.** Berilgan gaplardagi tushirilgan tinish belgilarini qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. Bu qahramonlar \\  
ezgulik izlovchilar, ezgulik istovchilar, sog‘inuvchilar, zulm yoki beshafqatlik qarshisida bo‘yin egmovchilar \\  
bularning barcha-barchasi yozuvchi yuragida tug‘ilgandir. 2. Ko‘pchilik adiblarga xos odat \\  
yomon odamni bulg‘ab tashlash O‘lmas aka ijodi uchun yot narsa. 3. O‘lmas akaning Qo‘qon teatri sahnasida qo‘yilgan birinchi sahna asarlari \\  
«Sud», «Yoz yomg‘iri» qissalari zamonaviy detektiv tarzida yozilgan asarlarning dastlabkilaridan biri edi. 4. Shulardan biri \\  
O‘lmas aka 1934-yilda \\  
ulug‘ shoir, alloma, siyosiy arbob, diplomat, o‘zbek teatrining asoschisi Abdulla Avloniy vafot etgan yilda tug‘ilganlar. 5. Keksalar \\  
dunyoni tashlab ketishga tayyorlanayotgan odamlar ... avlodlariga nimalarni qoldirishyapti? 6. O‘lmas akaning ijodlariga xos yana bir narsa



\\ nomus, hayo, iffat masalalari turli obrazlar yordamida turlicha yechiladi. (*T. Malik*)

### **Bilib oling**

Yozma nutqda izoh bo‘lak, ko‘pincha, vergul, tire va qavs bilan ajratiladi:

1) bo‘lak ikki tomondan vergul bilan ajratiladi: *Soy bo‘yidagi choyxonada, **gavjum joyda**, Azimjon uchradi;*

2) ajratilgan bo‘lakning o‘z ichida vergul bo‘lsa, ikki tomoniga tire qo‘yiladi:

Ekranida Yer tasviri ko‘rindi; daraxtlar gullagan, pag‘a-pag‘a oq bulutli osmon yer bilan qo‘shilib ketganday – osmon aksi yerga tushyaptimi, yo aksinchami – bilib bo‘lmaydi. (*T. Malik*)

3) ajratilgan bo‘lak uyushib, gap oxirida kelsa, undan oldin tire qo‘yiladi: *Mening o‘z muhabbatim bor – **toza va musaffo!***

**170-mashq.** Berilgan gaplardagi tinish belgilarini qo‘yib, ajratilgan bo‘lakli gaplarni ko‘chiring. Ajratilgan bo‘lakli gaplardan tinish belgilari tushirib qoldirilsa, qanday mantiqiy xatoliklar kelib chiqadi?

1. Uydagi yig‘i-sig‘idan... onasining yuraklarni ezib yuboradigan nidolaridan uzoqda... kechgacha ko‘chamako‘cha sandiroqlab yuradigan bo‘lib qoldi. 2. Shu yerlik hamkasbi... urush yillari bir qismda xizmat qilgan qadrdon oshnasi: «Otpuskangni bir gal bizning shaharda o‘tkaz, Namangan ham kurort joylardan qolishmaydi», – deb chaqirtirib kelgan edi. 3. Qop-qora sochini jingalak-jingalak qilib taragan... ingichka... ilonizi nusxa galstuk taqib... kifti keng kostum kiygan o‘rta bo‘yli yigitga ilgarilari havas bilan qaragan odamlar endi uni ko‘rishsa... chetlab o‘tadigan bo‘lib qolishdi. 4. Mirsiddiq bu qishloq qayerda o‘zi... uzoqmi, yaqinmi – surishtirmadi. 5. Do‘simboy ota boshidagi yangi marg‘ilon do‘ppisini olib... tizzasiga urib changni qoqqan bo‘ldi, ko‘kragiga tushib turgan moshkichiri soqolini tutamlab og‘ir xo‘rsindi. 6. Ular klubdan chiqishganda vaqt allamahal bo‘lib qolgan... ko‘k betini son-sanoqsiz yulduzlar qoplab olgan edi.

*O‘.Umarbekov*

**172-mashq.** She'riy matnni ifodali o'qing. Ajratilgan bo'laklarda ohang qoidalariga rioya qiling.

1. Ana Hulkar – yetti qiz imlar meni yiroqdan,  
Oydin ko'chalar bo'ylab shu'lalarda oqurman.  
Ulug'bek qadam qo'ygan bu muqaddas tuproqdan,  
Ulug'bek nigoh tikkan yulduzlarga boqurman.
2. Ikki kuch bor –  
Yurak va aql,  
Ikki yonga tortuvchi meni,  
Ular bundoq bo'lsa noahil,  
Qay birining tutay izmini?
3. May – bahor qizining  
O'n sakkiz yoshi,  
Uning ajib noz-u  
Adolari bor.  
Boshida gulchambar  
Porloq quyoshi,  
Chamanda bulbuli  
Shaydolari bor.

*E. Vohidov*

**173-mashq.** Ajratilgan bo'laklar nima maqsadda qo'llanayotganligiga ko'ra gaplarni ikki guruhga ajratib ko'chiring:

- 1) ta'kidlash uchun ajratilgan bo'laklar;
- 2) aniqlashtirish uchun ajratilgan bo'laklar.

1. Darvoqe, o'tgan har bir lahza asli tarix, adabiyot esa, asosan, kechgan voqelik – hodisalar tasviri bilan ish ko'radi. 2. Ammo muallif bunda o'tmish umr sog'inchi yoxud odatdagi qo'msov – nostalgiyani maqsad qilgan emas, boshqa dard, muddaolar ham borki, kitobni o'qiganda anglaysiz. 3. Dastlabgisi – elektron pochta orqali kelgan maktub Ravshan Akobirovdan edi. 4. Otdoshing – Farhod maktabni bitiray deb qoldi, Londonga borib o'qimoqchi, pasport olishi kerak. 5. Fikrni bir joyga jamlashga, ko'p yillar burun kechgan o'sha voqealarni birma-bir nazardan o'tkazib, qay o'rinda yoshlik qilgani – xatoga yo'l qo'yganini anglab yetishga kuch topolmayotir. 6. Atay sheriklaridan qochib orqadagi bo'sh o'rindiqqa o'tib olgan safar guruhining rahbari – san'at arbobi Farhod Ramazon

dafʼatan bezovtalandi. 7. Ertaga kinofestivalda namoyish etilajak filmdagi bosh qahramon – «qizlarning qorovuli» ham shu. 8. Bir nimalar yozib tashlagisi keladi, ammo kunduzgi horgʻinlikmi, allaqanday qoʻrquv – jurʼatsizlikmi qoʻlini chandib, oʻrnidan qoʻzgʻatmay qoʻyadi.

*E. Aʼzam. «Shovqin»*

**174-mashq.** Gaplarni oʻqing. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qoʻyib, uyushiq va ajratilgan boʻlakli gaplarni ikki guruhga ajrating, tartib raqamlari asosida jadvalga tushiring.

1. Lablari tabassum bilan ochilib, uning ichki sirini ... bu sheʼrni yaxshi bilishini va yoqtirishini sezdirib qoʻydi. 2. Mamlakat toʻla qiz, tangri mening peshonamga birorta oqila-yu fozilasini bitmagani gʻalati! 3. Axir... Hamida Humoyunning goʻzal xotini Beka begimni... olti yashar qiz-chasi Aqiqani koʻrgan. 4. Agrada Hindol mirzoga otasidan qolgan toʻrt bogʻning bittasi ... mana shu Zarafshon berilgan edi. 5. Chunki uning bilishicha, Kabir dahshatli bir jodugar kofir boʻlgan, el-ulusni yoʻldan ozdirib... dindan chiqargan, shuning uchun Iskandar Lodi degan podsho Kabirning boʻyniga tosh bogʻlatib, Gang daryosiga choʻktirishni buyurgan. 6. To shahar hokimi ... qutvol bundan xabar topib, ikki yuz navkari bilan yetib kelguncha va qirgʻinni toʻxtatguncha ikki tomondan oʻn yetti kishi halok boʻladi, yetmish-sakson odam yaralanadi. 7. Humoyun mirzo kemanding yuqorigi qavatida tillakori tolorda yasanib... jozibaga toʻlib oʻltirishini, Nizom esa pastdagi tor joyda oʻn oltita eshkakchining orasida terlab-pishib eshkak eshishini koʻz oldiga keltirdi. 8. Harakatlanib borayotgan koʻshk ichida yolgʻiz oʻtirgan Humoyunning peshonasi ustida ... sallasining old tomonida Koʻhinur olmosi yaraqlab koʻzni qamashtirgudek boʻladi. 9. Humoyun bu gavharni yilda bir marta ... Navroʻz paytida peshonasiga qadab el-ulusga koʻrinish beradi. 10. Faqat bir joyda ellik-oltmishta yosh-yalanglar bir-birini itarib... surib qoʻriqchilar zanjirini xiyobon ichiga egib kirgiza boshladi.

*P. Qodirov, «Avlodlar dovoni»*



### Savol va topshiriqlar

1. Ajratilgan va uyushiq boʻlakli gaplarning oʻxshashligi nimada?

2. *Ajratilgan va uyushiq bo‘lakli gaplarning farqi nimada?*
3. *Bir gapda ham ajratilgan, ham uyushiq bo‘lakli gap ishtirok etsa, tinish belgilari qanday qo‘yiladi?*
4. *«Odatda, bir xil so‘roqqa javob bo‘ladi». Bu ajratilgan bo‘lakmi yoki uyushiq bo‘lak?*
5. *«Ba‘zan bir xil so‘roqqa javob bo‘lishi ham mumkin». Bu ajratilgan bo‘lakka tegishlimi yoki uyushiq bo‘lakka?*



### Uyga vazifa

**175-mashq.** Tinish belgilarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Hozir Humoyunning fili yonida birgina inisi oq otliq Hindol mirzo bormoqda. 2. Said Xalil mehrobda turgan charm muqovali ulkan kitob Qur‘onga ko‘z tashlab, go‘yo undan madad olgan bo‘ldi-yu ovozigga sehrlil tus berdi. 3. Said Xalil esa yana orqa qatorda ahli saodat uchun ajratilgan ikkinchi darajali «Osoyish» kemasida o‘ltirishga majbur. 4. Chand bibi qilich taqqan beshafqat ayol haram bekasining ixtiyorida qoldi. 5. Jamna bo‘yiga yuvinishga borsa, boshqa afsonaviy daryo Sarasvati yodiga tushadi. 6. Humoyunning chodiri turgan balandlikdan Gangaga kelib qo‘shiladigan yana bir daryo Karamnasa ham ko‘rinadi. *P. Qodirov, «Avlodlar dovoni»*

**183-topshiriq.** *Fozila, qutvol, navkar, tolol, eshkakchi, ko‘shk, mehrob, haram, chodir* so‘zlarining ma‘nolarini berilgan izohlar orasidan aniqlab, **lug‘at daftaringizga ko‘chiring va eslab qoling:** 1) ilm-fan asoslarini yaxshi egallagan ayol; olim; 2) shahar hokimi; 3) o‘tmishda harbiy xizmatkor, askar; 4) yog‘och yoki yengil metall panjaradan qilingan ayvon; 5) odam va yuklarni daryodan o‘tkazishni o‘ziga kasb qilib olgan kishi; qayiqchi; 6) qadimda baland, bahavo qilib solingan yengil imorat; 7) masjid ichida uning qibla tomonidagi devorida taxmon shaklida qurilgan joy (namoz shu tomonga qarab o‘qiladi).

## 89–90-darslar. NAZORAT ISHI VA TAHLILI

### 91-dars

#### KIRITMALAR (KIRISH SO‘Z)

**184-topshiriq.** Berilgan gaplarda ajratilgan so‘zlar qanday vazifa bajarib kelayotgani, qanday ma‘no ifodalashi va qaysi turkumga mansubligini aniqlang.

1. Asli qiyofangni ko'rsatishdan qo'rqishing, **demak**, o'zingdan nafratlanishingni bildiradi. (*J.Massiyon*) 2. Ko'p-dan ko'p baxtsizliklarning ildizi shundaki, yoshlikdanoq bolani o'z xohishlarini tizginlashga, bu ishni qilish mumkin, bunisini, **albatta**, qilish kerak, buni qilish esa mumkin emas, degan tushunchalarga to'g'ri yondashishga o'rgatilmaydi. (*V.Suxomlinskiy*) 3. Mehnat ijodga aylangan joyda, **tabiiyki**, o'lim dahshati, hatto, fiziologik jihatdan ham yo'q bo'lib ketadi. (*A.Tolstoy*) 4. Sernuqsonlik, **shubhasiz**, yomon, ammo undan ham yomonrog'i, o'zingda ularni tan olmaslik istagi, bunda mazkur nuqsonlarga o'z-o'zini aldash ham qo'shiladi. (*Paskal*) 5. Izzattalablik o'z holicha, **ehtimol**, nuqsondir, biroq u ko'p hollarda qadr-qimmat manbayidir. (*Kvintilian*) 6. Safsata va quruq gap, **haqiqatan ham**, nafratga loyiq. Gapdan ko'ra ish qilish kerak. (*V.Suxomlinskiy*)

**176-mashq.** Berilgan gaplardagi tushirib qoldirilgan tinish belgilarini o'rniga qo'yib ko'chiring.

1. Aqlli bo'lsang, johil va nodondan hazar qil. Aqalli biroz bilimi bor kishi ulardan, albatta, yuz chaqirim uzoqlashadi. (*Majididdin Xavofiy*) 2. Aqalli bir mushukka bo'lsang mehribon, demak, salomatdir sendagi iymon. (*Xusrav Dehlaviy*) 3. Qo'y tamani, bor esa senda tamiz, shubhasiz el ichra bo'lg'aysan aziz. (*Farididdin Attor*) 4. Agar adolat himoya qilinmasa, zaif va kuchli odamlar yo'qolib ketadi. Modomiki zaiflar qirilib ketar ekan, kuchlilar ham omon qolmaydi. (*Husayn Voiz Koshifiy*) 5. Birovga sog'insa har kim yomonlik, nihoyat ul o'zi topmas omonlik. (*Abulqosim Firdavsiy*)

### **Bilib oling**

Yuqoridagi gaplarda ajratib ko'rsatilgan qismlar **kiritma** deyiladi. Kiritma gapning, xususan, matnning umumiy mazmuniga daxldor bo'lsa-da, gapdagi biror bo'lak bilan hokim-tobelik aloqasiga kirmaydi, shuning uchun ular gapdagi boshqa bo'laklardan yozuvda vergul, tire, ba'zan qavslar bilan, talaffuzda esa kichik to'xtamlar bilan ajratiladi.

**185-topshiriq.** Gaplarni ko‘chiring. Kiritmalar qanday ma’no anglatayotganini aniqlang.

1. Iqtidorli odamlar bilan tenglashmoqchi bo‘lganlar hech nimaga erisha olmaydilar, aksincha, ularning no-shudligi boshqalarning kulgisini keltiradi. 2. Ha, shunday odamlar borki, ular o‘z foydalarini ko‘zlab, har qanday yolg‘on-yashiq gaplarni qasam ichib tasdiqlashdan ham toymaydilar. 3. Shuningdek, aqli raso odam ham bir ishni boshlashdan oldin uning oqibati qanday tugashi haqida o‘ylab ko‘rishi kerak. 4. Demak, bu bilan masal aqlning teranligi jismning ko‘rkamligidan afzal ekanligini bildiradi. 5. Ta’kidlanishicha, kuch-qudratdan ko‘ra e’tiqod salmoqli samara berarkan. 6. Maqtanchoqlik dardiga uchragan odam ham ba’zida bu dardidan xabardor bo‘lgan do‘stlari oldida maqtana boshlaydi va ularga kulgi bo‘ladi, albatta.

«Ezop masallari»



### **Bilib oling**

Kiritma so‘zlovchining o‘zi bayon etayotgan fikriga munosabati (ishonchi, gumoni, tasdig‘i, inkori va h.), fikrning bironvga nisbatlanishi (mansubligi, aloqadorligi), o‘z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatlilik darajasi (**birinchidan, ikkinchidan** va h.), fikri va uning tarkibiy qismlariga doir bayon etadigan qo‘shimcha axboroti yoki izohi kabi rang-barang ma’nolarni ifodalaydi.

**186-topshiriq.** Gaplarni o‘qing. Bir so‘z yoki so‘z birikmasi bilan ifodalayotgan kiritmalarni aniqlang.

1. Qaysi ishni qilmoqchi bo‘lsang, eng avvalo, o‘z ko‘ngling bilan kengashib ko‘rgin. (*Yusuf Xos Hojib*) 2. Naql qilibdilarki, yo‘ldan uzoq, o‘tkinchidan xoli bir yerda ko‘l bor edi. («*Kalila va Dimna*») 3. Kimga pand-u nasihat qilsang, unga, avvalo, o‘zing amal qil. (*Luqmoni Hakim*) 4. To‘g‘ri, qulog‘ini burasang bas, gazlamasi ham ichida. (*A. Qahhor*) 5. Biz (Men harbiy kiyim – leytenant formasida edim) – ko‘z doktori Muhtarama Hamidova (hozir u kishi professor) ikkalamiz Hamza nomidagi O‘zbek Davlat akademik drama teatrlarining eski binosiga, Uyg‘unning «Qaltis hazil» komediyasini tomosha qilgani borgan edik.

(K. Qahhorova) 6. Otinoyi, ko‘pincha, o‘z ishi bilan shug‘ullanar, darsda, asosan, xalifa (hozirgi til bilan aytganda, sinf boshlig‘i) rahbarlik qilar, sho‘xlik qilgan qizlarga ham xalifaning o‘zi jazo berar edi. (K. Qahhorova)

### **Bilib oling**

Kiritma barcha bo‘laklar kabi sodda va murakkab bo‘ladi. **Sodda kiritmalar** so‘zlar va so‘z-gaplar bilan, **murakkab kiritmalar** esa so‘z birikmasi, kengaygan birikma va gaplar bilan ifodalanadi.

**177-mashq.** Gaplardagi kiritmalarni aniqlab, tinish belgilarini o‘rniga qo‘ying. Kiritmalarni qanday ma‘no anglatayotganiga ko‘ra tasniflang.

1. Zero sen mening emas, o‘z qorningning g‘amini yeyapsan. 2. Hayotda ham shunday, yomon niyatli kishilar, agar oqil odamlarga biror bir yovuzlik qilmoqchi bo‘lsalar, ko‘zlagan barcha makr-u hiylalari, baribir albatta fosh bo‘lgay. 3. Demak agar odam bir-biriga zid bo‘lgan ikkita ishga baravar kirishsa, uning hech qanday samaraga erisha olmasligi muqarrar. 4. Shuningdek ko‘p odamlar ham birovning shohona ziyofatida mehmon bo‘lishdan o‘z uylarida kamtarona kun kechirishni afzal ko‘radilar. 5. Alqissa yaxshi odamlar uchun foydali bo‘lgan har qanday amalni yovuz niyatli kishilar manfur ish deb biladilar. 6. Binobarin bizlar ham o‘zimizda boriga shukur qilmog‘imiz va ochko‘zlik tufayli bor-budimizdan mosuvo bo‘lishimiz mumkinligini unutmashimiz kerak.

«Ezop masallari»

### **Savol va topshiriqlar**

1. So‘zlovchi o‘z fikriga munosabatini qanday ifodalaydi?
2. Yo‘l-yo‘lakay gapdan o‘rin olgan qo‘shimcha fikr ifodasi qanday nomlanadi?
3. Kirish va kiritmaning o‘xshash va farqli tomonlari nimada?
4. Kirish va kiritmalar qaysi bo‘laklarga tobelanadi?

### **Uyga vazifa**

**187-topshiriq.** Quyidagi gaplarning har biriga kirish va kiritma qurilmalarni qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. Mehmoni yo‘q qora uydan dala-tuz yaxshi. («Komillik o‘gitlari») 2. Teran fikrni doim keksalardan qidirgin, bahor

suvi kuzda musaffolik topadi. (*Termiziy*) 3. Odamlar bilan murosa-yu madoraga kirishish ham sadaqa hisoblanadi. (*Hadis*) 4. Nosihi sodiq erurki beg'araz, bil anga olamda topilmas evaz. (*Alisher Navoiy*) 5. Mehmonsiz uy suvi qurigan tegirmonga o'xshaydi. («*Komillik o'g'itlari*») 6. Kishilarning qadrlisi saxovatli kishilardir. (*Yusuf Xos Hojib*)

**188-topshiriq.** *Nosih, tizgin, nuqson, tama, tamiz, raso, xalifa* so'zlarining ma'nolarini izohlardan aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va qo'llash uchun eslab qoling: 1) nasihatgo'y; 2) kishi nomiga nomunosib, uni salbiy jihatdan ko'rsatadigan belgi; kamchilik, illat, qusur, ayb; 3) hayvonlarni bog'lash yoki qantarib qo'yish uchun xizmat qiladigan, uchi suvliqqa yoki boshvoqqa birlashtiriladigan uzun tasma yoki chizimcha; boshqarish vositasi; 4) o'z bilimi, aqli, farosati bilan tegishlicha ish tutish qobiliyati; fahm, farosat; 5) birovdan bir narsa undirish hissi, o'ziniki qilish, olishga bo'lgan intilish; umidvorlik, umid, ilinj; 6) kami yo'q, to'liq, but; 7) aqliy jihatdan to'la rivojlangan, kamolotga erishgan; yetuk, barkamol; 8) musulmonlar jamoasi va musulmon davlatining diniy, ayni bir paytda dunyoviy boshlig'i.

## 92-dars

### UNDALMA

**189-topshiriq.** 1. Berilgan gaplardagi ajratilgan so'zlarning o'rnini aniqlang va tasniflang: a) shaxsga qaratilgan so'zlar; b) hayvonlarga qaratilgan so'zlar; d) jonsiz predmetlarga qaratilgan so'zlar. 2. Bu so'zlarning egadan farqini tushuntiring.

1. Nimalar haqida surasan xayol, so'yla, **majnuntol**?  
2. **Yoshlik!** Seni kuylamagan kim? 3. Yonib yasha to tanda jon bor, Quyosh bo'lg'in, **azizim**, Quyosh! 4. Asabga so'z bermang, **odamlar!** 5. Ilhomimning ilk mevasini – senga tutdim, ayb etma, **o'rtoq**. (*E.Vohidov*) 6. Ey **gul**, ne uchun qoshingda men xor o'ldum? (*Bobur*)

**190-topshiriq.** Berilgan gaplarga tinish belgilarini qo'ying. Qaysi gap bo'lagi tushirib qoldirilayotganini aniqlang va uning sababini bayon qiling. Kesimning shaxs-sonini aniqlang.

1. Xullas o'rtoq rais aylangiz imdod, men sizga haq gapni aytaman tikka. 2. Ey ko'hna Sharqimizning hech so'nmas mash'alasi noming kabi mustahkam, poydor bo'l hamisha. 3. Toshkentim oftobsan Sharqda nur sochgan. 4. Azizim payt keldi, ko'nglim yoraman, insonman, sen



horsang, men ham horaman. 5. Ey g'ofil sarkash deb meni kamsitma, g'anim senga emas, menga pand bergan. 6. Shoshmagin ey karvon to'xtagin biroz so'zlayin ezgulik, shafqat otidan. (*A. Oripov*)



### Bilib oling

So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsani bildiradigan so'z yoki birikma **undalma** deyiladi. Undalma grammatik jihatdan hech bir bo'lakka bog'lanmaydi. Undalma alohida ohang bilan ajratilib aytiladi. Uning gapdagi o'rni erkin: gap boshida ham, o'rtasida ham, oxirida ham kelishi mumkin.

Undalma jonivor yoki jonsiz narsaga ham qaratiladi: **Qarg'avoy, men seni yeyman. (Ertakdan); Seni unutulmas yuragim aslo, ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo. (G'.G'.)**

Undalma uyushib kelishi ham mumkin: **Muhtaram otalar, onalar, kelinlar, o'g'illar, opa-singillar, sizga oila tinchligi hamma narsadan muhim.**

**178-mashq.** Berilgan gaplarga turli o'rinlarda undalmalar qo'yib ko'chiring. Tinish belgilarini qo'ying.

1. Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldanchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi. (*Beruniy*) 2. Yo'qolgan narsangga ko'p achinma, achinish ila qayta kelmas, netarsan. (*Koshg'ariy*) 3. Ishda oshiqqan ko'p toyilur, ko'p toyilgan ko'p yiqilur. (*A.Navoiy*) 4. Garchi tavakkalsiz erur azmi sust, mashvaratsiz qilma tavakkul durust. (*A.Navoiy*) 5. Sabr qilsang, g'o'radin halvo bitar, besabrlar o'z ayo-g'idin yitar. (*Gulxaniy*) 6. Tahammul aylakim, besabrlig' achchiq etti komingni, bo'lur, sabr etsang achchiq g'o'radin shirin-u shakar paydo. (*Nodira*)

**179-mashq.** Qatordagi gaplarning umumiy belgisini topib, unga uchinchi gapni kiriting.

I. 1. Shoshmagin, ey, karvon, to'xtagin biroz, chashmi zilol bo'lib dardingni olay. 2. Dengizing qurisa, ne ham qilursan, qayga bosh urarsan, ey munglug' ko'ngil.

II. 1. Azizim, dil qasriga beso'roq kira ko'rma... 2. Boshing egma sira, xoksor banda, erta ruhing topgay oliy ohanglar.

**III.** 1. Sen bizni kechirgin, ey Navro‘zimiz, g‘aflatda chalg‘idi ul kun ko‘zimiz. 2. O hissiz tabiat, shafqatsiz hayot, shunday go‘zallikni bekitding qayga?

**IV.** 1. Ko‘z yoshim ko‘rding, falakdin qo‘l yuvgin, Mushtariy. (*Amiriy*) 2. Mayli, qulog‘ingga aytay, ey shoir, chunki yomonlikning qo‘li balanddir.



#### **Savol va topshiriqlar**

1. *Undalma deb nimaga aytiladi?*
2. *Gapda undalma qo‘llanganda qaysi bo‘lak tushib qolishi mumkin?*
3. *Undalmaning ega bilan o‘xshash va farqli tomonlari nimada?*



#### **Uyga vazifa**

**191-topshiriq.** Hurmat va ehtirom bilan qilinadigan murojaatda qo‘llanadigan «Chiroyli murojaat so‘zlari» lug‘atini tuzing. Kichraytirish, erkalash, hurmat shakllaridan ununli foydalaning.

**180-mashq.** «Til ofati» mavzusida og‘zaki telenutq tayyorlang va sinfda uni namoyish etishga tayyorlaning.

## **93-dars**

### **UNDALMALARDA TINISH BELGILARI**

**181-mashq.** Berilgan gaplardagi undalmalarni aniqlang. Ularni undalmalarga xos ohang bilan o‘qing. Tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1. – Robiya inon, men tirik bo‘lsam, senga balo-qazoni yo‘latmasmen! – Tangrim sizni ham panohida asrasin Tohir og‘a!.. Yog‘iyning ming-ming askari bor. Qaysi biriga bas kelursiz? Ana, qochqinlarga qarang!..

2. – Aya Fazliddin tog‘oyim! – dedi-yu, chopib borib darvozaning zanjirini tushirdi.

3. – Mulla tog‘a arava sizdanmi?

– Ha jiyanim. Ko‘ch-ko‘ronim bilan keldim.

4. – To‘xta nobakor! – deb mulla Fazliddin bittasining qarshisidan chiqqan edi, yuziga qora niqob tutgan ayiqday zo‘r yigit uni yelkasi bilan urib chetlatdi-da, ko‘chaga otildi.

5. Qutlug‘ Nigor xonim bolalar oldida qilingan bu kinoyadan ozorlanib:

– Qo‘ying og‘a oyi. Bu begimda ayb yo‘q! – dedi.

6. Eson Davlat begim tomoq qirib qiynalib gapirdi:

– Amirzodam adolat siz tomonda. Lekin Mahmudxonning eshik og‘asi Tilba Sulton o‘ta mug‘ambir odamda. Xonni shu odam qo‘shin yuborishga ko‘ndirgan.

*P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»*



### **Bilib oling**

Undalmalar gap boshi va oxirida kelsa, bir tomondan, gap o‘rtasida kelsa, ikki tomonidan vergul bilan ajratiladi.

**182-mashq.** Berilgan gaplardagi undalmalarni ajratib, mustaqil gaplarga aylantiring. Tinish belgilariga e‘tibor qaring.

1. – Aziz nabiralar, siz bilmaysiz, oh, men o‘sha cho‘q-qida quchganman zafar. 2. Insondan o‘zgani demasman, do‘stim. 3. Bizlarni bir yo‘qlab kelibsan, vafo qilurmisan, bahorim?! (*A. Oripov*) 4. Amirzodam, har bir daqiqa g‘animat. Xos navkarlaringiz otlangan. Hammasi farmoyishingizga muntazir. 5. Hazratim, taxtingiz pastki oshiyonda. 6. «Siz menga farzanddek yaqin bo‘lmoqchimisiz, Mirzo?» – so‘radi Shayboniyxon muloyim tovush bilan. (*P. Qodirov*)

**183-mashq.** Berilgan gaplardagi undov so‘zlar bilan undalma orasida tinish belgisi qo‘yilgan-qo‘yilmaganligiga e‘tibor qaring.

1. Ey farzand, agar sen har qancha notiq bo‘lsang ham, o‘zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so‘z bilimdonligi vaqtida bekor bo‘lib qolmagaysan. 2. Ey farzand, o‘zingni mol jam qilishdan g‘ofil tutma, ammo halollik bilan mol to‘plashga harakat qil. (*«Qobusnoma»*) 3. Yiroq-yiroq tushsa insondan inson, bu holning sharhiga ne deysan, ey jon! 4. Endi bandalarga o‘zing qil shafqat, ey oliy joziba – sirli Muhabbat! 5. Ka‘ba qopqasida turgan, ey posbon, avval onalarning ochgin yo‘llarin. 6. Faqat ayriliqdan asragin, yo Rab, do‘st-u yoronlardan qilmagin judo. 7. Kimdir payg‘ambardan so‘radi kelib: – ayo Rasululloh, aylagil javob. (*A. Oripov*)

**184-mashq.** Tenglikning o‘ng tomoniga gaplarning undalmalarini boshqa o‘rinlariga qo‘yib ko‘chiring.

1) Oftobi olam, shahar qozisi mansabi uchun muborak ko‘zingiz qaysi baxtiyorga tushdi? = .....

2) – Yuring, maxdum, bizni olib boring, – o‘rnidan qo‘zg‘aldi Navoiy. = .....

3) Sarkor, bu inimni sizga topshiramen, – dedi Sohib Doro Arslonqulni ko‘rsatib, – ishlatusiz va el qatori haq to‘larsiz. = .....

### Savol va topshiriqlar

1. Undov, undalma so‘zlarining o‘zagini aniqlang.
2. Gapdan undalma ajratib chiqarilsa, qanday gap vujudga keladi va finish belgisi qanday qo‘yiladi?
3. Undalmali gapda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan asosiy xato nimada ro‘y beradi?

### Uyga vazifa

**185-mashq.** Undalmali gaplarga 2 tadan misol topib yozing va undalmani ajratib alohida gapga aylantiring. Finish belgisini qo‘ying.

## 94-dars

### MATN VA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH

**192-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o‘qib chiqing.

### BERUNIYNING DAM OLISH KUNLARI

Beruniy yiliga ikki martagina dam olar ekan. Birinchisi – Navro‘zi olam kirgan kuni, ikkinchisi – bug‘doyga o‘roq tushganda... Dillarni xushnud etib Navro‘zi olam yetib kelgan kuni erta tongdanoq o‘rinlaridan turib, yuvinib-taranib, yaxshi liboslarini kiyib, qarindosh-urug‘larni, keyin yor-u birodarlarni **ziyosat qilib**, holidan xabar olar ekanlar, ular bilan birga bo‘lib suhbatlashar, hazil-mutoyiba qilar, askiyalar aytishar ekanlar. Keyin to qosh qorayguncha **qo‘sh qo‘shishar**, yerga birinchi **omoch** solishda qatnashar, nihol ekisharkan... Hol-ahvol so‘raganlarga: «Dam olib, hayot lazzatini totib ko‘rmoqdaman», – deb javob berar ekanlar. Boshoqqa birinchi o‘roq tushgan kuni ham dehqoncha libos kiyib olib, qo‘llariga o‘roq tutib azondan to kechgacha bug‘doy o‘rar ekanlar. Olimni ko‘rgan-ketganlar bilan: «Horma, bor bo‘l», – qilishsa ham: «Dam olib, rizqimni teryapman», – deb javob berar ekanlar. Qarang-a, ulug‘ alloma mutolaa, kitob yozish, tajriba o‘tkazishdan yiliga ikki kun vaqt ajratib

azondan to kechgacha qo'sh qo'shib, shudgor qilishni, o'roq o'rishni o'zi uchun dam olish deb bilar ekan.

Ha, Beruniy: «Bir daqiqa vaqtni behuda o'tkazganim, halok bo'lganim», – der ekan.

**193-topshiriq.** Berilgan izohlardan matndagi ajratilgan so'zlarning ma'nolarini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chirib yozing va eslab qoling: 1) muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib sig'inish; hurmat yoki rasmiyat yuzasidan tabarruk kishilar huzuriga tashrif buyurib, holidan xabar olish; 2) ulov qo'shib yer haydaladigan, metall tishli qadimgi eng oddiy yog'och yoki temir asbob.

**194-topshiriq.** Matndagi ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni aniqlang.

**195-topshiriq.** Matndagi ko'chma ma'noli so'zlar qanday badiiy san'at hosil qilayotganini aniqlang.

**196-topshiriq.** Matndagi gaplarni mazmunan bog'lovchi so'zlarni aniqlang.

**186-mashq.** Matndagi sizga yangilik bo'lgan hayotiy haqiqatni tavsiflang.



**Uyga vazifa**

**187-mashq.** Matnga shaxsiy munosabatingizni yozma ravishda bayon qiling.

**197-topshiriq.** Matnning biror parchasini (yoki to'lig'icha) yod oling.

## 95–96-darslar

### Mustahkamlash

## GAPNING UYUSHIQ BO'LAKLARI, AJRATILGAN BO'LAKLAR YUZASIDAN TAHLIL

**198-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qing.

Mir Alisher Navoiy o'z g'azallarini zamonasining eng zo'r bilimdon va mohir xattotlariga ko'chirtirardi. Nima bo'ldi-yu, o'z xattotining tobi qochib qoldi. Bundan xabardor bo'lgan, o'zini mashhur xattotlardan deb yurgan bir olifta kishi: «Rozi bo'lsa, Navoiyning xizmatini jonim bilan bajarardim», – debdi. Shoir uning bu gapini eshitib, she'r-larini ko'chirtirishga berdi. Bir payt katta mushoirada g'azal mulkingning sultoni – Alisher Navoiyning qulog'iga: «Malikush-shuaro o'zlari nuqson-qusurga yo'l qo'yibdilar-mi, boshqalardan nimani ham kutish mumkin», – degan gap chalinibdi.

Gap nimadaligini darrov fahmlagan shoir boyagina ko'chirtirgan g'azallarini olib o'qibdi, qarasa, o'zi aytgan gap emas emish. Maqtanchoq xattot tushmagur «ko'z» so'zidagi bir nuqtani tushirib qoldirganidan bu so'z «ko'r» bo'lib qolgan va she'r ma'nosi o'zgarib, aksincha chiqib qolgan ekan. Navoiy ahli fozillarga qarab:

– Ko'zimni ko'r qilganlar ko'r bo'lsin, – debdi-da, xattotga javob berib yuboribdi.

**199-topshiriq.** Matnga sarlavha tanlang.

**200-topshiriq.** Matndan uyushiq va ajratilgan bo'laklarni aniqlang.

**201-topshiriq.** Matndagi ajratilgan bo'laklarni boshqa so'z yoki birikma bilan almashtirib ko'chiring.

**202-topshiriq.** Matndan bugungi kunda nutqimizda qo'llanmaydigan so'zlarning mos izohlarini aniqlang: 1) chiroyli va aniq yozadigan odam; kalligraf; 2) she'riyatning bir janri: ikki yoki undan ortiq shoirning bir mavzuda bir-birining fikr va tuyg'ularini rivojlantiradigan she'r aytishish musobaqasi; 3) shoirlar.

**188-mashq.** Berilgan gaplardagi uyushiq bo'laklarning tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

1. Borlik yo'qlikni mushkulot yengillikni yuzaga keltiradi. 2. Inson ilk bor dunyo yuzini ko'rganda nozik va zaif o'limi oldidan esa sabotli va kuchlidir. Barcha tirik mavjudot va o'simliklar mavjudlikning ilk pallasida nozik va zaif o'lim lahzalarida esa quruq va chirkindir. (*Lao Szi*) 3. Marvarid donalarining o'rtasida bir tosh bo'lib, unga: «Jasorat umidsizlik shodlik», degan so'zlar bitilgandi. (*Budda*) 4. Borliq mushtarak uzluksiz yaxlit bo'linmas va bir jinsli voqelikdir. (*Parmenid*) 5. O'simliklar tirik mavjudotlardir. Ular ham his qiladilar g'am chekadilar quvonadilar. Bu tuyg'ular ularning yaproqlarida zohir bo'ladi. Shuningdek, o'simliklar aql va bilimga ham egadirlar. (*Anaksagor*)

**189-mashq.** Ajratilgan bo'lakli gaplarni aniqlang. Ularni mos ohang bilan o'qishni mashq qiling hamda tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

1. Ahmad Tanbal bugun Axsida shoh saroyida. 2. Men faqat o'zim chizgan suratga o'z ijodimga mehr qo'yganimen xolos! Boshim omon bo'lsa, bunday suratni yana chizgaymen! 3. Mirzoning birinchi xotini Fotima Sulton ikkinchi xotini Qutlug' Nigor xonim o'n sakkiz yoshlik qizi

Xonzoda begim va o'n yashar o'g'li Jahongir mirzo hamalari o'sha tanobiy uyga yig'ilgan edilar. 4. Xonimning xayoli shu xatarli vaziyatda ota-onadan uzoqda Andijonda turgan yolg'iz o'g'li Boburda edi. Hazrat uni nega farzandlari qatori tilga olmadi? 5. Orqadagi mulozimlardan ikkitasi rikobdor bilan jilovdor tez otdan tushdilar.

*P. Qodirov*



### Savol va topshiriqlar

1. Navoiy nega o'z she'rlarini begona xattotga ko'chirishga berdi?
2. Xattot qanday yo'l tutdi?
3. Xattot qaysi so'zni o'zgartirdi?
4. Nega so'zni osongina o'zgartira oldi?
5. Navoiy aytgan so'zning zohiriy va botiniy ma'nosini qanday sharhlaysiz?



### Uyga vazifa

**190-mashq.** She'riy misralardagi ajratilgan bo'lakli gaplarni mos ohang bilan o'qishni mashq qiling hamda tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

1. Butoqlarga qo'nib gul kitobini varaqlashga tushdi bulbul g'azalxon... 2. Samum yalab o'tar yalang to'shini bunda yolg'iz giyoh sho'ra-yu yantoq. 3. She'r yozar chog'ida-gidek yoningiz bunda dasturxoningiz dostoningiz. 4. Turmushimiz ko'rib turibsan mana ketmas davlatimiz fe'limizga mos. 5. Bugun qarabsizki men ham otaman, mening ham o'g'lim bor umid yulduzim. 6. Chunki «oq-soqol»da noyob fazilat qahr beshafqatlik zug'um bor edi.

## 97–98-darslar

### NAZORAT ISHI

**203-topshiriq.** Matni diqqat bilan o'qing.

### SA'VA

Derazaga osib qo'yilgan qafasdagi Sa'va kechasi bilan tinmay sayrab chiqardi. Uning xonishini eshitgan Ko'rshapalak uchib kelib: «Nima uchun kun bo'yi churq etmaysan-u, nuqul kechasi sayraysan?» – deb so'radi. Sa'va unga javob berdi: «Buning sababi bor: men ilgari kunduzi sayrab yurgan chog'imda nogahon to'rga ilinib qolgandim. Shundan keyin esim kirib, faqat kechalari sayraydigan bo'ldim». Ko'rshapalak unga shunday tanbeh berdi: «Sen

ilgari, to'rga ilinmasingdan oldin shunaqa ehtiyotkor bo'lishing kerak edi. Esingning endi kirganidan foyda yo'q». «Ezop masallari»

**188-mashq.** Matnda tasvirlangan hodisaning sabablarini yozma bayon qiling.

**189-mashq.** Matnda ishora qilinayotgan jonivorlarning xatti-harakati asosida ichki qiyofasini yozma tasvirlang.

**190-mashq.** Matnga yana bir nechta sarlavha toping.



### Savol va topshiriqlar

1. Masalda qaysi jonivorlar ishtirok etdi?
2. Sa'vaning taqdiri nima kechdi?
3. Nega uni qafasga solishdi?
4. Ular hayotimizdagi qanday kishilar ramzi bo'lib kelgan?



### Uyga vazifa

**205-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qing.

## ME'MOR SINON TADBIRI

Me'mor Sinon mashhur Salimiya minoralarini qurarkan, bir to'da bolalar chug'urlashib, nimanidir ko'rsatayotganlarini ko'rib qolibdi. Ularga yaqinlashib: «Nima gap?» — deb so'rabdi.

— Amaki, — deyishibdi ular, — shu minorangiz biroz qiyshayibdi.

— Ha, unday bo'lsa, hozir minorani arqon bilan torttirib to'g'rilaymiz. Sizlar qarab turinglar, — deb arqon keltirishni buyuribdi.

Me'mor Sinon, to bolalar to'g'ri bo'ldi deyishmaguncha, minorani bir arqon bilan torttiraveribdi. Bolalar, to'g'ri bo'ldi, deyishgach to'xtatibdi. Shu orada bir kishi kelib:

— Usta, bu arqon shunday katta minoraga hech bir ta'sir qilmasligini yaxshi bilasiz. Nega endi bolalarning gapiga kirib bunday qildingiz, — deganida, me'mor javob beribdi:

— Shunday qilmasam, bu churvaqalar shahar bo'ylab minora qiyshiq, degan gap tarqatishadi. Minoraning egri emasligiga hech kimni ishontirolmaymiz. Endi esa, minora egri edi, arqon bilan torttirib to'g'rilatdik, degan gap tarqatishadi. Bu gapga esa aqli bor odam ishonmaydi!

«Hikmatli latifalar»



**206-topshiriq.** Me'mor muammoli vaziyatdan chiqishda nimaga asoslandi? U zukkomi yoki firibgar? Me'morning xatti-harakatlari haqidagi fikringizni yozma bayon qiling.

## 99-dars

### ISH QOG'OZLARI USTIDA ISHLASH

**206-topshiriq.** Quyida berilgan ish qog'ozlari matnini diqqat bilan o'rganing.

36-umumta'lim maktabi direktori  
*Sh. Abdullayevaga*  
8-«b» sinf o'quvchisi  
*V. Rustamovadan*

#### tushuntirish xati

Men 2018-yil 13-sentabrdan 20-sentabrgacha bo'lgan davrda onamning qattiq betobligi tufayli darslarga qatnasha olmadim. O'tilgan mavzularni mustaqil ravishda o'zlashtirib olaman.

*Ilova:* Onamning kasalligi haqidagi tibbiy ma'lumotnoma.

*(imzo) V. Rustamova*  
*2018-yilning 21-sentabri*

#### Taklifnoma

Hurmatli Abdufattoh Nazarov!

Maktabimiz o'quvchilari sizni qishlog'imiz (mahallamiz)da istiqomat qilayotgan mehnat faxriylari bilan uchrashuvga taklif qiladi.

Uchrashuv 15-may kuni soat 18:00 da maktabning majlislar zalida boshlanadi.

#### Ma'lumotnoma

Shohruhbek Umidjonovich Abduraimov umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinfini bitirdi va hujjatlari Toshkent iqtisodiyot universiteti qoshidagi akademik litseyga qabul qilindi.

Ma'lumotnoma so'ralgan manzil uchun berilgan.

*Kotiba: (imzo) (muhr) Sh.Nosirova*

**207-topshiriq.** Tushuntirish xati qanday tarkibiy qismlardan iborat ekanligiga diqqat qiling. Berilgan tushuntirish xati matnini qismlarga ajrating.

**208-topshiriq.** O'zingiz tahsil olayotgan ta'lim maskani nomiga tushuntirish xati yozing.

**209-topshiriq.** Guruhingiz o'tkazayotgan adabiy kechaga taklifnoma tayyorlang.



### Savol va topshiriqlar

1. Qanday ish qog'ozlarini bilasiz?
2. Ish qog'ozlari qanday tarkibiy qismlardan iborat?
3. Qaysi ish qog'ozlari tashkilot tomonidan beriladi?
4. Qaysi ish qog'ozlari murojaat tarzida yoziladi?



### Uyga vazifa

**210-topshiriq.** Qayerda ta'lim olishingiz haqida ma'lumotnoma matni tayyorlang.

## 100-dars

### ASOSIY ATAMALAR USTIDA ISHLASH

**211-topshiriq.** Yil davomida o'rgangan atamalaringiz ro'yxatini tuzing. Bu ro'yxatni «Eng nuqtadon o'quvchi» tanlovida o'qib berishga tayyorlaning.

**212-topshiriq.** Atamalarni guruhlashtiring hamda quyidagi jadvalga joylashtiring.

Gap bo'laklari	Gap bilan aloqaga kirishmaydigan bo'laklar	Sodda gap

**213-topshiriq.** Atamaga mos ta'rifni belgilang.

- 1) ajratilgan bo'lak;
- 2) aniqlanmish;
- 3) atov gap;
- 4) bitishuv;
- 5) darak gap;
- 6) hol;
- 7) kiritmalar;
- 8) mantiqiy urg'u;
- 9) murakkab kesim;
- 10) ot kesim.

A. Gapning mazmun va ohang jihatdan ajratilgan bo'lagi.

B. Aniqlovchi tobe bo'lgan hokim bo'lak.

C. Gap bo'laklari bilan shakliy-grammatik bog'lanmagan, asosiy fikrga qo'shimcha fakt bayon qiluvchi, aniqlik kiritish va shu kabi maqsadlarda qo'llanuvchi so'z, so'z birikmasi, gaplar.

D. Voqea-hodisa haqida tasdiq yoki inkor yo'li bilan xabar beruvchi gap.

E. Ish-harakatning qay tarzda bajarilishini, uning bajarilishi sababi, maqsadi, o'rni, payti va shu kabi belgilarini bildiradigan ikkinchi darajali bo'lak.

F. Gapdagi biror so'zning, bo'lakning ma'nosini ta'kidlab ajratuvchi urg'u, gap urg'usi.

G. Birdan ortiq soʻz bilan ifodalangan kesim.

H. Feʼldan boshqa soʻz turkumlari, shuningdek, harakat nomi va otlashgan sifat-dosh shakllari bilan ifodalangan kesim.

I. Bosh kelishikdagi soʻz yoki otli birikma bilan ifodalanadigan bir tarkibli gap.

J. Tobe soʻzning hokim soʻzga grammatik shakl yordamida emas, balki tartib va ohang orqali bogʻlanishi.

### **194-mashq.** Atamalar taʼrifidagi mantiqiy xatolikni aniqlang.

1. **Soʻz-gap** – soʻz yoki ibora bilan ifodalanadigan gap.

2. **Soʻroq gap** – biror narsa-hodisani bilish uchun murojaatni ifodalovchi, soʻroq mazmunli gap.

3. **Teng bogʻlanish** – qoʻshma gapning qismlari orasidagi sintaktik bogʻlanish.

4. **Til birligi** – bir-biridan ifoda materiali, tuzilishi va tizimdagi oʻrni bilan farqlanadigan til hodisasi.

5. **Toʻliqsiz gap** – tarkibida bir necha boʻlaklari ishtirok etmagan, ammo bu narsa matn yoki vaziyatdan aniq sezilib turadigan gap.

6. **Undalma** – soʻzlovchining nutqi qaratilgan boshqa bir shaxsni bildiradigan soʻz yoki soʻz birikmasi.

7. **Undov gap** – soʻzlovchining voqelikka boʻlgan turlicha his-hayajonini ifodalovchi gap.



### **Uyga vazifa**

**214-topshiriq.** Matnni diqqat bilan oʻqing.

## **EMAN DARAXTI VA QAMISH**

Eman bilan Qamish: «Qay birimiz kuchliroqmiz?» – deb bahslasha boshladilar. Bahs paytida kuchli shamol koʻtarildi va Qamish bir seskanib ketib, shamolga bosh egib taʼzim qildi; ammo Eman shamolga qarshi koʻksini qalqon qilib turaverdi, oqibatda, ildizi bilan qoʻporilib yerga quladi.

### **215-topshiriq.** Matnga mos keluvchi xulosa fikrni tanlang.

1. Bahs-munozarada oʻz fikringda dadil tur.

2. Behuda zoʻriqish belni sindirar.

3. Chumchuqdan qoʻrqan tariq ekmas.

**195-mashq.** Yuqoridagi masal mavzusiga mos matn yarating. Fikringizni hayotiy dalillar bilan asoslang.

## **101-dars. TAKRORLASH**

## **102-dars. YAKUNIY DARS VA YOZGI TAʼTILGA TOPSHIRIQLAR**

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-dars. «Soʻzdan soʻzning farqi bor...».....	3
2-dars. Adabiy nutq meʼyorlari. Nutqning koʻrinishlari.....	4

### 1-BOʻLIM OʻTILGANLARNI TAKRORLASH

3-dars. Mustaqil soʻz turkumlari.....	6
4-dars. Yordamchi soʻzlar.....	8
5-dars. Undov, taqlid va modal soʻzlar.....	10
6-dars. Olmoshning maʼno turlari.....	11
7-dars. Ravishning maʼno turlari.....	12
8–9-darslar. Nazorat ishi va tahlili.....	14

### 2-BOʻLIM IJODIY MATN. INSHO VA UNING TURLARI

10-dars. Maʼlumotnoma matni va ijodiy-tavsifiy matn.....	14
11-dars. Insho – ijodiy ish.....	16
12-dars. Inshoning mavzu va mazmuniga koʻra turlari.....	19
13-dars. Insho rejasi.....	20
14-dars. Sodda va murakkab rejalar.....	22
15-dars. Adabiy mavzulardagi insholar.....	23
16-dars. Erkin mavzudagi insholar.....	24
17-dars. Inshoga epigraf tanlash.....	26
18-dars. Ilmiy insho.....	28
19-dars. Mustahkamlash darsi.....	29
20–21-darslar. Yozma nazorat ishi va uning tahlili.....	32

### 3-BOʻLIM SINTAKSIS, OHANG VA TINISH BELGILARI

22-dars. Sintaksis haqida umumiy tushuncha. Soʻz birikmasi.....	32
23-dars. Teng va tobe bogʻlanish.....	35
24-dars. Soʻz birikmasi va soʻzlar qoʻshilmasi, qoʻshma soʻz.....	36
25–26-darslar. Mumtoz matn va lugʻatlar bilan ishlash.....	38
27-dars. «Eng chiroyli va taʼsirchan nutq» tanlovi.....	40

## 4-BO'LIM GAP

28-dars. Gapning ifoda maqsadi.....	41
29-dars. Mumtoz matn va lug'atlar bilan ishlash.....	42
30-dars. Gapning tuzilishiga ko'ra turlari.....	43
31-dars. Matn va lug'atlar bilan ishlash.....	46
32-dars. Mustahkamlash darsi.....	47
33-dars. Nazorat ishi.....	48
34-dars. Nazorat ishi tahlili.....	49

## 5-BO'LIM SODDA GAP SINTAKSISI

35-dars. Sodda gap. Gap bo'laklari.....	50
36-dars. Mumtoz matn va lug'atlar bilan ishlash.....	51
37-dars. Kesim. Fe'l kesim va ot kesim.....	52
38-dars. Matn va lug'atlar bilan ishlash.....	53
39-dars. Sodda kesim va murakkab kesim.....	54
40-dars. Bog'lamlar.....	55
41-dars. Matn va lug'atlar bilan ishlash.....	57
42-dars. Kesimning birikma va ibora bilan ifodalanishi.....	59
43-dars. Og'zaki nutq mahorati bo'yicha nazorat ishi.....	59
44-45-darslar. Nazorat ishi va tahlili.....	60
46-dars. Ot kesim va ega orasida tirening ishlatilishi.....	61
47-dars. Ega.....	63
48-dars. Egali va egasiz gap.....	65
49-dars. Atov gap.....	67
50-dars. So'z-gap.....	69
51-dars. Yig'iq va yoyiq gap.....	72
52-53-darslar. Matn va lug'atlar bilan ishlash.....	74
54-55-darslar. Sodda gap va gap bo'laklari yuzasidan tahlil.....	76
56-57-darslar. Nazorat ishi va tahlili.....	79

## 6-BO'LIM IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLAR

58-dars. Hol.....	79
59-60-darslar. Mumtoz matn va lug'atlar bilan ishlash.....	81
61-dars. To'ldiruvchi.....	83
62-dars. Mumtoz matn va lug'atlar bilan ishlash.....	85
63-dars. Aniqlovchi va uning turlari.....	86
64-dars. Matn va lug'atlar bilan ishlash.....	90
65-66-darslar. Nazorat ishi va tahlili.....	91

67–68-darslar. Gap bo‘lamlari tartibi.....	93
69–70-darslar. Matn va lug‘atlar bilan ishlash.....	95
71-dars. Gap urg‘usi.....	98
72–73-darslar. Matn va lug‘atlar bilan ishlash.....	100
74-dars. To‘liq va to‘liqsiz gaplar.....	101
75-dars. Matn va lug‘atlar bilan ishlash.....	103

### **MUSTAHKAMLASH DARSLARI**

76–77-darslar. Gapning ikkinchi darajali bo‘lamlari yuzasidan tahlil.....	105
78–79-darslar. Nazorat ishi va uning tahlili.....	107

### **7-BO‘LIM**

#### **UYUSHIQ VA AJRATILGAN BO‘LAKLI GAPLAR, GAP BO‘LAKLARI BILAN ALOQAGA KIRISHMAYDIGAN BO‘LAKLAR**

80-dars. Gapning uyushiq bo‘lamlari.....	108
81–82-darslar. Mumtoz matn va lug‘atlar bilan ishlash.....	111
83-dars. Uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘z va unda ohang hamda tinish belgilari.....	113
84–85-darslar. Matn va lug‘atlar bilan ishlash.....	116
86-dars. Ajratilgan bo‘lakli gaplar.....	118
87–88-darslar. Ajratilgan bo‘lakli gaplarda ohang va tinish belgilari.....	120
89–90-darslar. Nazorat ishi va tahlili.....	124
91-dars. Kiritmalar (Kirish so‘z).....	124
92-dars. Undalma.....	128
93-dars. Undalmalarda tinish belgilari.....	130
94-dars. Matn va lug‘atlar bilan ishlash.....	132
95–96-darslar. Mustahkamlash.....	133
97–98-darslar. Nazorat ishi va tahlili.....	135
99-dars. Ish qog‘ozlari ustida ishlash.....	137
100-dars. Asosiy atamalar ustida ishlash.....	138
101-dars. Takrorlash.....	139
102-dars. Yakuniy dars va yozgi ta‘tilga topshiriqlar.....	139

**MUHAMMADJON QODIROV,**

**HAMID NE'MATOV,**

**MUHABBAT ABDURAIMOVA,**

**RA'NO SAYFULLAYEVA,**

**BAXTIYOR MENGLIYEV**

## **ONA TILI**

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
8-sinfi uchun darslik*

To'rtinchi nashr

*Muharrir Dildora Abduraimova*

*Badiiy muharrir Maftuna Vaxxobova*

*Texnik muharrir Yelena Tolochko*

*Musahhih Dildora Abduraimova*

*Matn teruvchi Gulchehra Azizova*

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2019-yil 11-martda ruxsat etildi. Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>. Ofset qog'ozi. Times TAD garniturası. Keglı 11. Shartlı bosma tabog'i 9,0. Nashr tabog'i 9,11. Adadi 506584 nusxa. Shartnoma № 7–2019. Buyurtma № 19–100.

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida tayyorlandi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30. Telefon: +998-71244-10-45. Faks: +998-71244-58-55.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

**Qodirov M.**

O-58 Ona tili: o'rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik/ M. Qodirov va boshq. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. – 144 b.

ISBN 978-9943-05-619-0

**UO'K 811.512.133**

**KBK 81.2 O'zb ya721**

### Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T.r.	O'quvchi-ning ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslik-ning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslik-ning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

**Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

<b>Yangi</b>	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
<b>Yaxshi</b>	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqalar yo'q.
<b>Qoniqarli</b>	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
<b>Qoniqarsiz</b>	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.